

"FUNDAMENTAL FANLARNING ZAMONAVIY TIBBIYOT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING MATERIALLAR TO‘PLAMI 2025-YIL 25-26-aprel

SAMARQAND - 2025

“FUNDAMENTAL FANLARNING ZAMONAVIY TIBBIYOT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING MATERIALLAR TO‘PLAMI 2025-YIL 25-26-aprel

“CONTRIBUTION OF FUNDAMENTAL SCIENCES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MEDICINE”
Aprel 25-26, 2025 SAMARKAND

*** * ***

“СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ’’
25-26 апрель 2025 Г. САМАРКАНД

"FUNDAMENTAL FANLARNING ZAMONAVIY TIBBIYOT RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI" Respublika ilmiy-amaliy anjumanining materiallar to‘plami, 2025-yil 25-26-mart
Samarqand - : Fan, Jamiyat va Innovatsoyalar 2025. – 236 b.

Tahrir hay’ati a’zolari (Members of the editorial board)

Mardonov Baxodir Baxronovich	Zarmed universiteti ilmiy ishlar va innovatsiya bo’yicha prorector, i.f.d., dotsent
Vohidova Adola Mamatqulovna	dotsent, ZARMED universiteti Tibbiy biologiya, fizika, informatika, mikrobiologiya va gistologiya kafedrasi mudiri, Samarqand kampusi;
Muazzamov Bobir Baxodirovich	dotsent, ZARMED universiteti Klinik oldi fanlar kafedrasi mudiri Buxoro kampusi;
Amonov Raxmon Arslonovich	ZARMED universiteti Klinik fanlar kafedrasi mudiri Buxoro kampusi;
Shodmonova Zebiniso Rahimovna	dotsent, ZARMED universiteti Klinik fanlar kafedrasi mudiri, Samarqand kampusi
Xaydarova Dilorom Safoyevna	dotsent, ZARMED universiteti fiziologiya, patofiziologiya, gigiyena, farmakologiya va kimyo kafedrasi mudiri Samarqand kampusi;
Toshmamatov Baxtiyor Norbekovich	dotsent, OXTA, Normal va patologik anatomiya kafedrasi mudiri Samarqand kampusi;
Xudoyarova Gavxar Nurmamatovna	PhD, ZARMED universiteti tibbiy biologiya, fizika, informatika, mikrobiologiya va gistologiya kafedrasi o‘qituvchisi;
Xo’djanova Muattar Absalomovna	PhD, ZARMED universiteti fiziologiya, patofiziologiya, gigiyena, farmakologiya va kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi;
To‘rayeva Sadoqat Solijonovna	ZARMED universiteti fiziologiya, patofiziologiya, gigiyena, farmakologiya va kimyo kafedrasi o‘qituvchisi;
Rasuleva Muxsina Razikovna	PhD, ZARMED universiteti Klinik fanlar kafedrasi dotsenti.

-

© Zarmed University

© Fan, Jamiyat va Innovatsoyalar

© Authors

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli hamkasblar, ishtirokchilar va kitobxonlar!

Sizlarga 2025-yil 25-26-aprel kunlari Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan **"Zamonaviy tibbiyot rivojida fundamental fanlarning ahamiyati"** mavzusidagi konferensiya tezislari va maqolalar to‘plamini taqdim etishdan mamnunmiz. Ushbu to‘plam fundamental fan va tibbiyot chorrahasida muhokama qilinayotgan masalalarning ko‘p qirraliligi va chuqurligini aks ettiradi, shuningdek, tibbiy amaliyot taraqqiyoti uchun ilmiy tadqiqotlarning muhimligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishi va fundamental fanlarning klinikaga qo‘shgan hissasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayonlardir. Ushbu sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, balki kelajakda bilimli va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu maqsadda fundamental fanlarni o‘qitishni rivojlantirish va takomillashtirish nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "2021-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" dasturiga muvofiq o‘z nutqida ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratdi. "O‘zbekiston kelajagi - bilimli va yuksak madaniyatli, turli sohalarda raqobatbardosh avlod. Bu avlodni tayyorlashda yoshlarning bilim va ma’naviyatini yuksaltirish, zamonaviy usullarni qo‘llash, dunyoqarashi va bilimini kengaytirish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda" (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi).

Konferensiya davomida bioinjeneriya, ekologiya, patomorfologiya muammolari, farmatsiya va farmakologiyani o‘qitish, shuningdek, amaliy tibbiyot yutuqlari kabi muhim masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Bu yo‘nalishlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishning yangi imkoniyatlarini belgilab beradi. Konferensiyada muhokama qilingan masalalar tibbiyot fani va amaliyoti rivojlanishiga, shuningdek ta’lim dasturlarini takomillashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishiga ishonchimiz komil.

Ushbu to‘plamda keltirilgan ishlar ilmiy tadqiqotlar va mualliflarning sog‘liqni saqlash hamda tibbiyotning dolzarb muammolarini hal etishga qo‘shgan hissalarining natijasidir. Ularda bioinjeneriya va ekologiya sohasidagi eng so‘nggi yutuqlar, farmatsevtika va farmakologiya fanlarini o‘qitishga innovatsion yondashuvlar, shuningdek patomorfologik tadqiqotlar asosida kasalliklarni aniqlash va davolashga amaliy yondashuvlar yoritilgan. Konferensiyamiz doirasida kasalliklarning biologik asoslari, tashxis qo‘yish va davolashning innovatsion usullari, tibbiyotda matematik modellardan foydalanish va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar kabi dolzarb mavzularga chuqur kirib bordik. Ushbu to‘plamda keltirilgan ishlar tibbiy yordam sifatini va insonlar

salomatligini yaxshilash uchun yangi yechimlar izlayotgan olimlar va amaliyotchilarning samarali mehnati natijasidir.

Biz o‘z tadqiqotlarini taqdim etgan mualliflarga hamda konferensiyaning barcha ishtirokchilariga munozaralarda faol qatnashganliklari va tajriba almashganliklari uchun minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ishonchimiz komilki, taqdim etilgan ishlar tibbiyotning yanada rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi, konferensiyada muhokama qilingan ilmiy g‘oyalar va yondashuvlar esa tibbiyot amaliyotiga innovatsiyalarni joriy etishga ko‘maklashadi.

To‘plam materiallari bilan tanishish o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali bo‘lishini tilaymiz hamda taqdim etilgan tadqiqotlar foydali bo‘lib, keyingi ilmiy yutuqlarga ilhomlantiradi deb umid qilamiz.

Zarmed universiteti bosh direktori

Shukurlayev Dilshod Dalerovich

BIOLOGIYA VA BIOTIBBIYOT MUHANDISLIGINING DOLZARB MASALALARI

* * *

TOPICAL ISSUES OF BIOLOGY AND BIOMEDICAL ENGINEERING

* * *

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ БИОЛОГИИ И БИОМЕДИЦИНСКОЙ ИНЖЕНЕРИИ

TIBBIYOTDA SU’NIY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI


Raxmatullayev Mirzoxid Rustam o’g’li
Zarmed Universiteti Davolash fakulteti talabasi
Ilmiy raxbar: ass. Bahramov Rustam Raxmatullayevich
Zarmed Universiteti “Tibbiy biologiya, fizika, informatika va mikrobiologiya” kafedrasi
Samarqand, O’zbekiston

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda tibbiyot sohasida axborot texnologiyalarini o‘rni judayam muxim ekanligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Tibbiyot xodimlari tomonidan bemorlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar davolashning zamonaviy usullari, diagnostika usullari, kasallikning oldini olish va sog‘liqlarini tiklash, bemorga ko‘rsatilayotgan birinchi yordamni tezkorligini oshirish bunda raqamli texnologiya va su’niy intellektdan unumli foydalanish, tibbiyotimizning rivojlanayotganligidan darak beradi.

Kalit so‘z: Raqamli texnologiya, su’niy intellekt, raqamli tibbiyot texnologiyasi.

Respublikamizda tibbiyot sohasida juda katta o‘zgarishlar olib borilmoqda, shifokorning bemorga tugri tashxisi va shifokorning ish o‘rinlarini zamonaviy tibbiyot qurilmalari bilan jihozlanishi bu tibbiyotimizning rivojlanishidan darak beradi. Klinika va oilaviy klinikalarda bemorga ko‘rsatilyotgan tibbiy xizmatlarni sifati kundan kunga oshib bormokda. Ish o‘rinlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan kompyuter axborot tizimi shifokorga juda katta yordam ko‘rsatadi bemorning diagnostik



1-rasm. Tibbiy raqamli texnologiya

ma’lumotlariga qarab tashxis qo‘yishda xatoga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi. Bu yerda texnologik jarayonlarda davolash profilaktikasi, hisobot berish va tibbiy statistik ma’lumotlarni taqdim qilish, rejalashtirish ishlarini qadamma qadam bajarishligini ko‘rsatish, har xil turdagi tibbiy malumotnomalar olishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiya ko‘plab soxalarda, jumladan, tibbiyotda ham joriy etilmokda, tibbiyot muassalarida tibbiy qurilmalarning har biri zamonaviy jaxon standartlariga mos qurilmalar bilan jixozlanmoqda. Bundan tashqari diagnostika tibbiy qurilmalarning barchasi raqamli texnologiyaga o‘tishgan va bemorlarni kasalligini tezda aniqlab berish qudratiga ega. Raqamli tibbiyot-bu axborot texnologiyalari yordamida o‘lchash va ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan inson salomatliga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan sohadir.
Raqamli tibbiyot maxsulotlari sifatli tibbiy qurilmalari va dasturiy ta’minot bilan belgilanadi. Sog‘liqni saqlash sohasida oldinlari rentgen qurilmalari yordamida bemorlarga yordam ko‘rsatishgan va natijalarni olishda uzoq vaqt kutib qolishgan, tasvirlar esa aniq va tiniq chiqmagan, ushbu tasvirlar bilan shifokorni bemorga quyiladigan



2-rasm. Tibbiyotda su’niy intellekt

tashxisi aniqlik foizi ancha past bo‘lgan. Hozirda har bir klinakada va xususiy klinakalarda tibbiyot qurilmalarning barchasi raqamli texnologiyaga o‘tishgan, shifokorning bemorga qo‘yiladigan tashxisi tibbiy tasvirlarning aniqliligiga bog‘liq. Shundagina shifokor bemorga tashxis qo‘yishda xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Tibbiyotni raqamlashtirish butun dunyo bo‘ylab rivojlanmokda, shu bilan bir qatorda mamlakatimizda ham rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin, tibbiy raqamli texnologiyaning asosiy maqsadi insonlarga sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni rivojalantirish.

Su’niy intellektning asosiy maqsadi inson salomatligini saqlash va mustaxkamlash, umrini uzaytirish, kasalliklarni davolash va oldini olishdir. Su’niy intellekt atamasining mazmuni deganda biz kompyuter texnologiyalarini uqitishga asoslangan va xar qanday jarayonlarni amalga oshirishda inson xarakatlarini almashtirishga muljallangan texnologiyalarni tushunamiz. Tadqiqotlar sonining eksponensial o‘sishi, qoida tariqasida, hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar doirasining doimiy ravishda kengayishi bilan birga keladi. Shuning uchun biz tibbiyotda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha to‘liq tushunchaga egamiz deb da’vo qilmaymiz, balki o‘z nuqtai nazarimizdan eng muvaffaqiyatli yoki istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashga harakat qilmoqdamiz.

Hozirda su’niy intellekt yordamida tibbiyotda xam juda ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Oldingi shifokorlarimiz yangi texnologiyalarni ishlatishda ikkilanganlar. Dasturchilar ishlash ko‘rsatkichlarini xisoblashganlar, model qanchalik to‘gri ishlashini, qayerda xato bor ekanligini tekshirishgan, xar doim bir nechta tibbiyot mutaxassislari bilan birgalikda sinovlar o‘tkazishganlar. Shifokorlar bunday sinovlarni yaxshi natijalar berishini ko‘rishadi va su’niy intellektga nisbatan ijobiy munosabat bildirishadi.

Hozirgi vaqtda tibbiyotda su’niy intellektning roli oshib bormoqda. Su’niy intellektga (SI) ega tibbiy tizimlar ko‘plab tibbiyot soxalarida mavjud. Ma’lumki, shifokorlarning bilimi, kuzatishlarda va ma’lumotlarga qaraganda, ularda yuqori tajribaga egalari kamroqni tashkil etadi,

ko‘pincha o‘quv jarayonidan yoki adabiyotdan olingan manbalarga asoslanib qolishi bemorga tashxis qo‘yishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Xar bir aniq tashxis- davolashni amalga oshirishda shifokor o‘z taxminlarini tasdiqlash uchun o‘xshashliklarga asoslanib, asosiy g‘oyalarni shaxsiy tajriba bilan birlashtiradi. Shu bilan birga, malaka va tajribasiga qarab, kasallikning xolati va ko‘rinish shakllarini tanib olib jarayonning dinamikasini prognoz qiladi. Jaxon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, su’niy intellekt butun dunyo bo‘ylab sog‘liqni saqlashni yaxshilash uchun ajoyib imkoniyatlarni takdim etadi. Xorij sog‘liqni saqlash muassalarida neyronlar orqali neyrokibernetikaning asosiy goyasi bulgan inson miyasi kabi fikrlay oladigan inson miyasini yaratishdir. Buning uchun su’niy intellekt yordamida inson miyasining tuzilishiga o‘xshash tuzilmalarni modellashtirish va neyronlar orkali bu o‘xshashliklarni yaratish va amalga oshirish mumkin.

Xulosa. Sog‘liqni saqlash sohasining har bir klinika va xususiy klinikalarida raqamli tibbiyot texnologiyasi qurilmalari bilan jihozlanib kelinmoqda. Malakali shifokorlar tomonidan raqamli tibbiyot texnologiyalari orqali bemorlarni kasalligi tez va aniq tashxislar qo‘yilib kasallikni oldi olinmokda. Zamonaviy raqamli tibbiyot texnologiyalari qurilmalari kompyuter tomografiyasi, UZI, kardioexo, laboratoriya asbob uskunalari va boshqa tibbiyot qurilmalari shular jumlasidandir. Su’niy intellekt yordamida o‘pka raki xujayralarini analiz qilishda, inson miyasi tuzilishi yaratishda, 3D o‘lchamli yurak yaratishda, DNK analizida, protez loyixalashda, transplantatsiya vaqtlarini optimizatsiyalashda, shifoxona xarajatlarini kamaytirishda va sifatini oshirishda, shoshilinch tez tibbiy yordam xonalarini zamonaviy modelini yaratishda foydanilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Belyaletdinov, R.R. «Osvobojdeniye» patsiyenta: sotsiogumanitarnыe osobennosti stanovleniya personalizirovannoy meditsinы //Filosofsko-antropologicheskiye osnovaniya personalizirovannoy meditsinы (mejdissiplinarnыy analiz). Rabochiye tetradi po bioetike: sb. nauch. st. pod red. P. D. Tiщenko. M.: Izd-vo Moskovskogo gumanitarnogo universiteta, 2017. S. 148-156.
2. Grebenщikova, Ye.G. Personalizatsiya meditsinы i medikalizatsiya budushego // Filosofskiye problemы biologii i meditsinы. Sb. statey. M.: Mosk. gos. mediko- stomatolog. universitet im. A.I. Yevdokimova, 2015. S. 75-77.
3. Bahramov R. i dr. ROL I ZNACHENIYE MATEMATICHESKOY STATISTIKI V MEDITSINE //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 1615-1619.
4. Rakhmatullaevich B. R. et al. STATISTICAL ANALYSIS OF MEDICAL DATA AND PROCESSING IN MS EXCEL //British View. – 2023. – T. 8. – №. 1.
5. Abdullayeva S., Bahramov R., Voxidov A. TIBBIYOT OLIY YURTI TALABALARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 686-689.
6. Bahramov R. R., Malikov M. R., Abduraxmonov R. P. ZABOLEVANIYA VЫIZVANNЫE GELMINTAMI U DETEY I PROGNOZ RAZVITIYA ETIX ZABOLEVANIY //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 58-62.
7. Bakhramov R. R., Abdurakhmonov R. P., Malikov M. R. Diseases caused by helminths occuring in children of world countries and prognosis of these diseases //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – S. 330-334.
8. Bahramov R. R., Abduraxmonov R. P., Malikov M. R. DUNYO MAMLAKATLARI BOLALARIDA UCHRAYDIGAN GIJJALAR (GILMENT) KELTIRIB CHIQARADIGAN KASALLIKLAR VA USHBU KASALLIKLAR PROGNOZI.

ПЕЧЕНОЧНО-ПОДЖЕЛУДОЧНАЯ АМПУЛА ПТИЦ: МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Н.А.Алланазарова
Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова
E.mail:allan_20@mail.ru

Строение печеночно-поджелудочной ампулы (ППА) привлекает внимание исследователей не одно десятилетие. Это обусловлено важным значением этой зоны в пищеварении и осуществлением очень сложных физиологических функций. С одной стороны, печеночно-поджелудочная ампула (ППА) предотвращает поступление содержимого двенадцатиперстной кишки в полость ампулы, а с другой поступления активной желчи в проток поджелудочной железы и активного сока последней в общий желчный проток. Такое многообразие и сложность функции ППА обусловлены ее функциональным значением, а выполнение такой сложной функции её особым строением.

Установлено наличие особенностей строения печеночно-поджелудочной ампулы у млекопитающих животных с различным характером питания и у человека (Т.Д.Дехканов, 1990; Т.Д.Дехканов, А Ахмедов, 2002; Алланазарова, 2010). Также уместно отметить, что не все позвоночные имеют желчный пузырь. Несколько парадоксальным является то, что животные или птицы из одного класса, одни имеют желчный пузырь, а другие его не имеют. Так, крысы не имеют желчного пузыря, а морские свинки, кролики имеют желчный пузырь. Голуби и горлицы не имеют желчного пузыря, а другие птицы его имеют. Следовательно, сравнительное изучение структурных особенностей печеночно-поджелудочной ампулы у животных с желчным пузырем и без, является важным.

Полученные результаты имеют важное теоретическое и практическое значение для обоснования роли и значения желчного пузыря для организма, а сравнительные данные строения печеночно-поджелудочной ампулы животных с желчным пузырем и без, поспособствуют выяснению патогенеза постхолецистэктомических нарушений желчевыделения, а также помогут выяснению причин ретроградных поступлений желчи в проток поджелудочной железы, а сока последней в общий желчный проток, а так же рефлюкса содержимого duodenum в печеночно-поджелудочную ампулу.

Для изучения морфофункциональных компонентов стенки, рельефа слизистой оболочки и микроархитектоники заслонок ампулы на всем ее протяжении проводились серийные срезы материала, при этом кусочек стенки сажали в блок всегда устьем ампулы вниз. Получая серийные срезы, окрашивали методами гематоксилин-эозин, ван-Гизона, Маллори.

Результаты показывают, что желчный проток и проток поджелудочной железы меняют диаметр и толщину мышечного слоя перед вступлением в стенку двенадцатиперстной кишки и перед образованием общей ампулы. Относительный объем ампулы у птиц, не имеющих желчный пузырь (голубь) намного больше по сравнению с птицами имеющими желчный пузырь (утка, майна). Внутренний рельеф печеночно-поджелудочной ампулы duodenum также имеет отличия у птиц с желчным пузырем и без. У голубей, у которых нет желчного пузыря, внутренний рельеф ампулы гладкий, полость почти не содержит складок и имеет вид свободного пространства. Печеночно-поджелудочная ампула duodenum птиц, имеющих желчный пузырь, содержит многочисленные, многоэтажно расположенные складки слизистой оболочки, которые имеют анастомозы и как бы “свисают” в сторону образования устья ампулы. Они разделяют

полость ампулы на многочисленные камеры различной формы и конфигурации. Свободные концы заслонок ампулы в несколько смыкаются в области устья ампулы. Они образуют запирающее устройство, предотвращающее попадание содержимого кишечника в полость ампулы, и далее в желчный проток и проток поджелудочной железы. Форма и размеры полости ампулы зависят от уровня слияния протоков. Наличие печеночно-кишечного протока, по которому желчь из печени поступает в кишечник, минуя желчный пузырь, наводит на мысль о наличии специального процесса пищеварения у птиц, в отличие от млекопитающих.

Таким образом, морфофункциональные компоненты стенки желчного и панкреатического протоков у птиц с желчным пузырем (утка, майна) значительно отличаются от таковых у птиц без него (голубь). Объем ампулы большого сосочка двенадцатиперстной кишки у птиц без желчного пузыря значительно больше. У птиц с желчным пузырем, ампула большого сосочка duodenum формируется в результате слияния печеночно-кишечного протока с протоком поджелудочной железы, а у птиц, без желчного пузыря – расширенным участком общего желчного протока.

Литература:

1.Алланазарова Н.А. Использование данных морфологии печеночно-поджелудочной ампулы у некоторых млекопитающих в медицине Материалы 2 Республиканского научно-практического семинара «Актуальные и перспективные проблемы медицины в Узбекистане». Тезисы докладов, 2010.- стр 98

2.Дехканов Т.Д. Сравнительная морфология и реактивные изменения ампулы большого сосочка двенадцатиперстной кишки млекопитающих животных и человека. Докт. дисс.- 1990.-29 стр

3.рДехканов Т.Д., Ахмедов А. Сравнительная морфология печеночно-поджелудочной ампулы у млекопитающих животных с различным характером питания. // Проблемы биологии и медицины, №4.- 2002. - стр.34-36.

VITAVOLT: YARA REGENERATSIYASINI TEZLASHTIRUVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYA

Hakimova Sh.B ; Ablaqulova P.A; Bobonazarova M.N.
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son davolash ishi talabasi
Ilmiy raxbar – PhD, ***Hayitov Maqsud Samatovich***

Kirish. Yara regeneratsiyasi organizmning fiziologik tiklanish jarayoni bo‘lib, uning tezligi va samaradorligi ko‘plab omillarga, jumladan, hujayra proliferatsiya va differensiasiya darajasi, immun javobning faolligi hamda terapevtik aralashuvlarning turiga bog‘liq. An’anaviy bog‘lamlar va antiseptik vositalar infeksiya xavfini kamaytirsa-da, hujayralarning tez yangilanishini ta’minlay olmaydi. VitaVolt innovatsion plastiri elektrokimyoviy texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, regeneratsiya jarayonini tezlashtirish va hujayra proliferatsiyasini rag‘batlantirishga mo‘ljallangan. Ushbu tadqiqot VitaVolt plastirining samaradorligini baholashga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. VitaVolt plastirining elektr stimulatsiya texnologiyasiga asoslangan ta’sir mexanizmini chuqur o‘rganish, uning to‘qima regeneratsiyasini tezlashtirishdagi rolini aniqlash hamda bioelektrik signallar orqali hujayra proliferatsiyasi va tiklanish jarayonlariga ko‘rsatadigan ta’sirini baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: apparat ishlab chiqish, in vivo sinovlar va klinik sinovlar. Birinchi bosqichda VitaVolt plastiri uchun zarur bo‘lgan elektrokimyoviy texnologiyani yaratish va uni moslashtirish bo‘yicha ish olib borildi. Ushbu apparatning birinchi prototipi sichqonlarda sinovdan o‘tkazildi. Sichqonlar orqali plastirning yara epitelizatsiyasiga ta’siri o‘rganildi. Keyingi bosqichda, klinik sinovlar 30 nafar bemorda amalga oshirildi. Bemorlar orasida yara yopilish tezligi va infektsiya xavfini kamaytirish o‘rganildi. Sinov davomida plastirning samaradorligi kuzatildi, va uning yangi to‘qimalarning hosil bo‘lish jarayonini jadallashtirishi hamda antibakterial xususiyatlari tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida VitaVolt plastirining samaradorligi uch bosqichda o‘rganildi. In vivo sinovlar natijasida, VitaVolt plastirining diabetik kalamushlar modellarida ta’siri sezilarli darajada yaxshilandi. Sinov natijalariga ko‘ra, plastirning qo‘llanilishi natijasida yara yopilish tezligi 30-40% ga qisqardi. Bu yangi to‘qimalarning hosil bo‘lishini tezlashtirib, bemorlarning reabilitatsiya vaqtini qisqartirdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, VitaVolt plastirining regenerativ xususiyatlari an’anaviy bog‘lamlarga qaraganda samaraliroq. Klinik sinovlar davomida, 30 nafar bemorda plastirning ta'siri baholandi. Sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, VitaVolt plastiri yara yopilish tezligini 30-40% ga tezlashtirdi. Infeksiya xavfi 25% ga kamaydi, bu plastirning antibakterial xususiyatlarini tasdiqlaydi. Bemorlar orasida plastirni qo‘llashning samaradorligi to‘g‘risida ijobiy fikrlar bildirildi, va ko‘pchilik bemorlar plastirning qulayligi va samaradorligini yuqori baholadi. Yara holatidagi o‘zgarishlar, plastirning samaradorligini yanada kuchaytiradigan mexanizmlarini ko‘rsatdi.
In vitro sinovlar orqali plastirning inson fibroblast hujayralariga ta’siri o‘rganildi. VitaVolt plastiri hujayralarning proliferatsiyasini 42% ga oshirdi, bu esa yangi to‘qimalarning tezroq hosil bo‘lishini anglatadi. Kollagen sintezi ham sezilarli darajada oshdi. Bu natijalar plastirning yara tiklanish jarayonini jadallashtirishi va yaralar tezroq tuzalishini ko‘rsatadi. Samaradorlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan, klinik sinovlarda plastir qo‘llangan bemorlarda hech qanday jiddiy yon ta’sirlar kuzatilmagan. Infeksiya xavfining kamayishi va yara holatining

yaxshilanishi plastirning xavfsizligini va samaradorligini tasdiqladi. Bemorlar jarrohlik muolajalaridan keyin tezroq tuzalgan, bu esa plastirning klinik amaliyotdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu natijalar plastirning regenerativ xususiyatlari va antibakterial samaradorligini isbotladi, bu esa uni zamonaviy tibbiyotda yara davolashda samarali va xavfsiz vosita sifatida qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotning davomiy sinovlari va yanada kengroq klinik o‘rganishlar plastirning kengroq amaliyotda qo‘llanilishini ta'minlashga yordam beradi.

SEKSIYA 2. EKOLOGIYA VA GIGIYENANING DOLZARB MUAMMOLARI

***

SECTION 2. ACTUAL PROBLEMS OF ECOLOGY AND HYGIENE SECTION

***

СЕКЦИЯ 2. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИИ И ГИГИЕНЫ

ТИББИЙ ТАЪЛИМГА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ КИРИБ КЕЛАЁТГАНЛИГИ

Шайқулов Ҳамза Шодиевич
Биология, физика, информатика, микробиология ва гистология кафедраси катта ўқитувчиси
Расулова Мухсина Розиқовна
PhD, клиник фанлар кафедраси доценти
Зармед университети Самарқанд кампуси.

Аннотация. Келажакдаги врачлар – тиббиёт олий ўқув юрти талабаларининг сунъий интеллект (бундан кейин – СИ) технологиясига бўлган муносабатига оид тадқиқотнинг долзарблиги СИ тизимларининг нафақат таълим жараёнига, балки клиник ва диагностик амалиётга ҳам жорий этилиши билан белгиланади. Шахснинг ахборот маданияти мазмунини акс эттирувчи ахборот амалиётлари ва СИ таърифини аниқлашдаги афзаллик ўртасида боғлиқлик мавжудлиги ҳақидаги гипотеза тасдиқланди. Мақсад тиббиёт олий ўқув юрти талабаларининг ахборот маданиятининг асосий таркибий қисми сифатида турли хил ахборот манбаларидан фойдаланиш амалиётлари ва уларнинг СИни тушуниши ўртасидаги боғлиқликни тавсифлашдан иборат. Тиббиёт университетининг биринчи иккинчи ва учунчи курс талабалари ҳамда профессор ўқитувчилари ўртасида ўтказилган сўровнома натижалари (n = 217) келтирилган.

Долзарблиги. Сунъий интеллект (СИ) - бу одатда инсон интеллектини талаб қиладиган вазифаларни бажаришга қодир ахборотларни қайта ишловчи, техник таҳлил қилувчи ва математик ҳисоб –китобларга таяниб техник хулосалар берувчи замонавий машиналардир.

Замонавий таълим технологиялари ҳар бир талабанинг эҳтиёжларига мослашадиган шахсийлаштирилган таълим траекторияларини яратиш имконини беради [2]. СИ талабаларнинг ютуқларини, уларнинг кучсиз томонларини таҳлил қилишга ёрдам беради ва кейинги ривожланиш учун индивидуал топшириқлар таклиф қилади. Бу ёндашув ўзлаштиришнинг яхшиланишига ёрдам беради, чунки талабалар айнан қийин бўлган соҳаларда ёрдам оладилар ва материални самаралироқ эгаллашлари мумкин.

СИ, хусусан машина орқали ўқитиш технологиялари, тиббий маълумотларни, масалан, тасвирларни (рентген, МРТ каби), лаборатория текширувлари натижаларини ва беморларнинг касаллик тарихини таҳлил қилиш учун фаол қўлланилмоқда. Талабалар катта ҳажмдаги маълумотлар билан ишлашни, намуналарни аниқлашни ва ҳақиқий тиббий вазиятлар асосида прогноз қилишни ўрганишлари мумкин. Бу таҳлилий қобилиятларни ривожлантиришга ва маълумотларни аниқроқ талқин қилишга ёрдам беради, бу эса келажакдаги врачлар учун муҳим кўникмадир [4].

Сунъий интеллект технологияси мутахассисларга ҳақиқий сценарийларга яхшироқ тайёргарлик кўришга ёрдам берадиган янада реал ва қизиқарли ўқитиш жараёнини таъминлаши мумкин. Масалан, тиббиёт талабалари ҳақиқий беморларда амалиёт ўтказишдан олдин операциялар ва муолажаларни машқ қилиш учун сунъий интеллектга асосланган симуляторлардан фойдаланишлари мумкин. Бу хатолар хавфини камайтириши ва беморларнинг даволаш натижаларини яхшилаши мумкин.

Сунъий интеллект, шунингдек, индивидуал эҳтиёжлар ва самарадорлик асосида ўқитиш жараёнини шахсийлаштириши мумкин. Симуляция маълумотларини таҳлил қилиш орқали сунъий интеллект алгоритмлари инсон яхшиланишга муҳтож бўлган соҳаларни аниқлаши ва ўқитиш дастурини шунга мос равишда созлаши мумкин. Бу янада самарали

ўқитишга, шунингдек, жалб қилиш ва мотивациянинг юқори даражасига олиб келиши мумкин.


Тадқиқотнинг мақсади. Тиббиёт университети талабаларининг симуляцион ўқитишда сунъий интеллектнинг (СИ) афзалликлари ва ривожланиш истиқболларига нисбатан фикрлари ҳақидаги маълумотларни тўплаш ва ўрганиш. Вазифалар қуйидагиларни ўз ичига олади:

1. Талабалар ва ўқитувчилар ўртасида симуляцион ўқитишда СИ ҳақидаги билимлари, тушунчалари ва баҳолари бўйича сўров ўтказиш.
2. Симуляцион ўқитишда СИнинг афзалликлари ва истиқболларига оид илмий мақолалар, тадқиқотлар ва адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш.
3. Талабаларнинг умумий тенденциялари, фикрлари ва афзалликларини аниқлаш мақсадида маълумотларни жамлаш.

Тадқиқотнинг материаллари ва усуллари. Тадқиқот Самарқанд Зармед университети, СамДТУ, KIUT Самарқанд кампусининг 1, 2, 3-курс талабалари ва профессор-ўқитувчилари умумий сони 217 кишини ташкил қилди. Уларнинг симуляцион ўқитишда СИ ҳақидаги билимлари, тушунчалари ва баҳолари бўйича бир нечта саволларни ўз ичига олган сўровнома ишлаб чиқилди. Кейинчалик ушбу сўровнома рақамлаштирилди ва Google Forms платформасига жойлаштирилди ва кейинчалик таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари. Сўровнома таҳлилига кўра:


Сиз СИнинг мавжудлиги ва улардан фойдаланиш вариантлари ҳақида биласизми?



Ушбу саволномамизга ОЎЮ профессор-ўқитувчиларига нисбатан талабалар СИ ҳақида кўпроқ билиши, ундан фойдаланётганлиги кузатилди.


Ўқув фаолиятини соддалаштириш учун СИдан фойдаланишга тўғри келганми?

_



“Ўқув фаолиятини соддалаштириш учун СИдан фойдаланишга тўғри келганми?” – саволномасига ОЎЮ талабалари СИдан фойдаланаётганлиги, профессор-ўқитувчилар нисбатан камроқ фойдаланётганлиги кузатилди.

Врачлар ишини оптималлаштириш учун сунъий интеллект ёрдамида қандай янги усуллар ишлаб чиқилиши мумкин?



Врачлик амалиёти натижаларини яхшилаш учун сунъий интеллект қандай маълумотлардан фойдаланиши мумкин?



Сунъий интеллект билан ишлайдиган келажакдаги врачларда қандай асосий сифатлар ва кўникмалар зарур бўлади?



Хулосалар

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги ёшлар катта авлод вакилларига нисбатан СИ ҳақида кўпроқ билиши, ундан фойдаланётганлиги аниқланди. Биз симуляцион ўқитишда сунъий интеллектнинг салоҳиятини ва унинг афзалликларини ўрганиш билан бир қаторда, сунъий интеллект шахсийлаштирилган қайта алоқа бериш, реал сценарийлар яратиш ва харажатларни камайтириш орқали ўқитиш дастурларининг самарадорлигини қандай оширишини режалаштиришга имкон берувчи бирламчи маълумотларни олдик.

Симуляцион ўқитишга сунъий интеллектни жорий этиш билан боғлиқ этик, юридик ва техник масалалар каби қийинчиликларга қарамай, биз сунъий интеллект турли соҳаларда мутахассисларни тайёрлаш усулини инқилоб қилиш салоҳиятига эга деб ҳисоблаймиз. Тўғри ёндашув ва пухта ўйланганлик билан сунъий интеллект янада самарали ва қизиқарли ўқитиш жараёнини таъминлаши мумкин.

Тиббий таълимда сунъий интеллект тиббиёт олий ўқув юртлари талабалари учун янги уфқларни очиб, юқори сифатли таълим воситалари ва ёндашувларини таклиф этади. Виртуал тренажёрлар, шахсийлаштирилган таълим, маълумотларни таҳлил қилиш ва билимларни баҳолашни автоматлаштириш ўқитиш самарадорлигини сезиларли даражада оширади ва юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш имконини беради. Бирок, барча

афзалликларга қарамай, тиббий таълимга СИни жорий этиш бир қатор муаммолар билан боғлиқ, масалан, этик ва техник муаммолар, ўқитувчиларни ўқитиш зарурати ва сезиларли молиявий харажатлар.

Адабиётлар.

1. Тренды и прогнозы развития медицинских информационных систем в России / А.В. Гусев [и др.] // Врач и информационные технологии. 2019. № 2. С. 38–49.
2. Искусственный интеллект в медицине: соотношение обыденного и профессионального понимания / С.С. Стрельников [и др.] // Проблемы современного образования. 2022. № 6. С. 55–69. DOI: https://doi.org/10.31862/2218-8711-2022-6-55-69. Проблемы современного образования | № 6 | 2023 | http://www.pmedu.ru 247 ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ
3. Стрельников С.С., Каткова А.Л. Информационная культура студента: общность методологической оптики педагогических исследований // Перспективы науки. 2022. № 9. С. 91–94.
4. Горюнова Л.Н. Психическая регуляция информационно-поисковой деятельности // Вестн. С.-Петербургского ун-та. Сер. 12: Психология. Социология. Педагогика. 2008. № 4. С. 409–416.
5. Иващенко А.В., Карабущенко Н.Б., Сунгурова Н.Л. Личностно-типологические особенности студентов в сетевом поведении // Российский психологический журнал. 2016. Т. 13, № 2. С. 58–70.

БИОЛОГИЯ И ЭКОЛОГИЯ ГЛОБАЛЬНОЕ ПОТЕПЛЕНИЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОСИСТЕМЫ

Улмасов Темуржон Шохдавлатович
Студент 2го курса ZARMED UNIVERSITY

Введение: Глобальное потепление представляет собой одну из самых серьезных экологических проблем нашего времени, проявляющуюся в повышении средней температуры как атмосферы Земли, так и океанов. Главным фактором, способствующим глобальному потеплению, является антропогенное увеличение содержания парниковых газов в атмосфере. Это явление оказывает значительное воздействие на различные экосистемы, вызывая изменения в их структуре, функционировании и уровне биоразнообразия.

Ключевые слова: функционирования, климат, фактор, анализ, оценка.

Цель исследования: Исследовать, как глобальное потепление воздействует на различные типы экосистем, выявить основные изменения и их последствия.

Оценить уязвимость различных экосистем к изменениям климата и определить факторы, определяющие эту уязвимость. Предложить возможные стратегии адаптации и смягчения последствий глобального потепления для сохранения экосистем.

Материалы и методы: Анализ научной литературы, данных наблюдений и климатических моделей.

Изучение влияния глобального потепления на различные экосистемы: лесные, водные, арктические и горные. Использование статистических методов для выявления взаимосвязей между климатическими изменениями и изменениями в экосистемах. Оценка уязвимости экосистем на основе анализа их характеристик и прогнозируемых изменений климата.

Результаты и обсуждения: Глобальное потепление приводит к следующим изменениям в экосистемах:

Изменение фенологии растений и животных. Расширение ареалов теплолюбивых видов и сокращение ареалов холодолюбивых видов. Увеличение частоты и интенсивности экстремальных погодных явлений, таких как засухи, наводнения и лесные пожары. Деградация коралловых рифов из-за обесцвечивания, вызванного повышением температуры воды. Таяние ледников и вечной мерзлоты, приводящее к изменению гидрологического режима и высвобождению парниковых газов. Различные экосистемы обладают разной уязвимостью к глобальному потеплению. Наиболее уязвимыми являются арктические экосистемы, коралловые рифы и горные экосистемы. Сохранение экосистем требует комплексного подхода, включающего сокращение выбросов парниковых газов, адаптацию к изменениям климата и восстановление деградированных экосистем.

Вывод: Глобальное потепление представляет серьезную угрозу для экосистем во всем мире. Изменения, вызванные глобальным потеплением, могут привести к потере биоразнообразия, нарушению функционирования экосистем и негативным последствиям для человека. Необходимы срочные меры по смягчению последствий глобального потепления и адаптации к его неизбежным последствиям для сохранения экосистем и обеспечения устойчивого развития.

СУТОЧНЫЙ ВИТАМИННЫЙ БАЛАНС ПИЩЕВОГО РАЦИОНА СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ВУЗА

М.С.Косимова, Г.Р.Фаттохова
Студенты 2 курса лечебного факультета-,
Руководитель - ***И.Ш.Садыков***
доцент кафедры «доклинические предметы»
Бухарский университет Зармед,

Аннотация. Работу по изучению суточного количества витаминов поступающих в организм студентов проводили методом анкетирования и опроса, обучающихся на трёх факультетах ребят с первого по третий курс. Результаты указывают на отсутствие корреляции уровня поступающих витаминов от значения факультета. Рацион питания исследуемых групп содержал низкий уровень витаминов по отношению к нормированному количеству, за исключением витамина С. Витаминный баланс в пищевом рационе студентов начальных курсов был выше, чем у старших курсов. Гендерное сопоставление по содержанию витаминов показал низкий уровень их в рационе девушек чем у юношей.

Ключевые слова: пищевой рацион студентов, витамины, недостаточность питания.

Введение

Пребывание человека в условиях влияния социальных и экономических потрясений в обществе приводящих к обострению нервно – психического тонуса, гиподинамическому бездействию, стрессовой нагрузки различного характера, экологической проблематики и огромного информационного поля может неблагоприятно сказываться на здоровье человека. Профилактика и предотвращение этого в большей мере зависит от рационального питания организма. Образ жизни ведущий к сохранению здоровья включает множество факторов, но одним из значимых является питание. Студенты, как одна из групп городского и сельского населения также испытывает воздействие различных факторов окружающей и социальной сред. В сохранении их здоровья и трудоспособности основную роль играет их рациональное питание. Исследования многих учённых указывает на то, что студенты в большинстве учебного времени не придерживаются принципов рационального питания. Авторы отмечают, что витаминный состав рациона является главенствующим показателем рационального питания от которого зависит не только функционирование систем организма, но и его полноценное физическое развитие. Суточный пищевой рацион с недостаточным содержанием витаминов проявляется нарушением жизнедеятельности, снижением адаптационных возможностей и здоровья, а также на успеваемости студентов.

Целью нашей работы являлось изучение и гигиеническая оценка содержания в пищевом рационе студентов различных факультетов и курсов технического университета некоторых витаминов.

Материалы и методы.

В проведении исследовательских работ принимали участие студенты факультетов архитектуры, машиностроения и текстильной промышленности Бухарского технического вуза. Привлечены были студенты (юноши и девушки) первых, вторых и четвёртых курсов. В исследовании объёма поступления витаминов в организм студента, первоначально проводили определение состава пищи суточного рациона методом анкетного опроса. Используя таблицу химического состава пищевых продуктов находили содержание витаминов А, B_1, B_2, РР и С. Статобработку проводили учитывая половую принадлежность, факультет и курс, используя программу Statistica.

Результаты.

Сопоставление полученных результатов по содержанию суточного количества витаминов в рационе питания студентов трёх факультетов большой разницы не имеют. У юношей всех трёх факультетов по содержанию витамина А в рационе находилось в пределах от 1009 до 843 мкг. Это характеризует отклонение от нормы на 112% (на факультете архитектуры), 92% (на машиностроительном факультете) и 95% (на факультете текстильной промышленности) диаграмма 1, 2, 3.

Диаграмма 1



Сравнение показателей содержания витамина С в пищевом среднесуточном рационе девушек и юношей всех трёх факультетов с гигиеническими нормативами, свидетельствует о том , что он находится в пределах нормы с небольшим статотклонением (у юношей 96,65% - 111,3% от нормы; у девушек 97,4 – 101,74% от нормы). Гигиеническим нормативам также соответствует содержание в рационе юношей всех трёх факультетов вуза витамина А. Витамин РР в норме рациона у юношей факультета текстильной промышленности, однако у юношей остальных факультетов он находится ниже нормы. Количественные отклонения от гигиенических нормативных величин других витаминов в рационе студенов более заметны и имею низкий показатель.

Статистически значимые гендерные различия по содержанию витаминов прослеживается почти во всех видах витаминов. К примеру содержания витамина А у юношей больше чем в рационе девушек.

Также гендерные различия в содержании витаминов в суточном пищевом рационе прослеживаются у студентов различных курсов. Результатом наших исследований было установлено направленность на снижение содержания витаминов по мере повышения курса обучения как в рационе юношей, так и в рационе девушек.

Диаграмма 2



Здесь можно указать на содержание витамина B_2 , у юношей его количество в пределах от 44,9 – 71,8% от нормы, у девушек 33,3 – 42,2% от нормы во всех исследуемых факультетах.

Диаграмма 3



Выводы.

1. Установлен низкий уровень по отношению к гигиенической норме содержания витамина А в суточном пищевом рационе девушек. По наличию витамина B_1, и B_2 в рационе и юношей и девушек всех наблюдаемых факультетов не соответствовал гигиенической норме.
2. Выявлено снижение содержания витаминов в суточном рационе питания студентов по мере повышения курса обучения.

Литература

1. Вржесинская О.А., Бекетова Н.А., Коденцова В.М. и соавт. Витаминный статус студентов Северного государственного медицинского университета// Профилактическая медицина. 2018. №21 (1). С. 39–43.

2. Бацукова Н.Л., Борисова Т.С. Гигиеническая оценка статуса питания: Учеб.-метод. пособие. 2-е изд. Минск: БГМУ, 2010. 24 с.
3. Скурихин И.М., Тутельян В.А. Таблицы химического состава и калорийности российских продуктов питания: Справочник. М.: ДеЛи принт, 2007. 276 с.
4.Sadykov, I. S., Allayorova, D. S., Bekhbudov, O. (2024). Picture Of Hematological Blood Parameters Characterizing The Development Of Health Disorders In Workers Of Oil Refineries In Central Asia. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(2), 304-311.
5. Садыков, И. Ш., Аллаёрова, Д. С., Хамидов, Ё. Ё. (2024). Микроклимат И Биохимический Анализ Крови Работников Нефтеперерабатывающего Производства Среднеазиатского Региона. Miasto Przyszłości, 46, 1130-1133.
6. Садыков, И. Ш. (2023). Динамика Изменений Микроэлементарного Состава Эритроцитов Крови У Спортсменов С Различной Физической Нагрузкой. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 2(2), 113-119.
7. Авизов, С. Р., Садыков, И. Ш., Саломов, Б. Х. (2023). ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ HLORELLA VULGARIS В РАЦИОНЕ ПИТАНИЯ ПРИ РЕАБИЛИТАЦИИ И ПРОФИЛАКТИКИ СПРОТСМЕНОВ С ТРАВМАМИ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 252-257.
8. Садыков, И. Ш., Камалова, Ф. Р. (2021). ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЙ НЕКОТОРЫХ ФАКТОРОВ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ОРГАНИЗМА ЖИВОТНЫХ ОТРАВЛЕННЫХ БИДЕРОНОМ. Актуальные вопросы и перспективы развития науки, техники и технологии, 11.
9. Садыков И.Ш. (2023). ABOUT THE USE OF HLORELLA VULGARIS IN THE DIET FOR REHABILITATION AND PREVENTION OF ATHLETS WITH MUSCULATORY INJURIES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(12), 33-38.
10. Садыков И.Ш. (2023). DYNAMICS OF CHANGES IN THE MICROELEMENTARY COMPOSITION OF BLOOD ERYTHROCYTES IN ATHLETES WITH DIFFERENT PHYSICAL LOAD. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(12), 27-32.
11. Садыков И.Ш., I. S. (2023). HEAT TRANSFER PROCESS IN SMALL POWER BIOGAS DEVICE. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(12), 18-26.
12. Sadykov, I. S., Allayorova, D. S., Bekhbudov, O. (2024). Picture Of Hematological Blood Parameters Characterizing The Development Of Health Disorders In Workers Of Oil Refineries In Central Asia. Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(2), 304-311
13. Садыков И.Ш., Фаттахова Г.Р., Касимова М.С., Хамидов Ё.Ё. Картина крови у рабочих газоперерабатывающих предприятий среднеазиатского региона. Vol. 54 (2024): Miasto Przyszłości

EYXORNIYA SUV O‘TINING ECHKILAR MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI

Nahalboyev Alisher.Aliboyevich.
Samarqand Zarmed universiteti assistenti.

Anotatsiya: Maqolada echkilar ratsioniga eyxorniya suv o‘tini qo’shib berilganda, echkilar mahsuldorligiga hamda sutning miqdoriga ta’siri haqida, malumot berilgan.

Kalit so‘zlar: aminokislota, fiziologik holat , yog‘ kislotalari, mineral moddalar, vitaminlar, qand, organizm, koeffitsiyent Eichornia crassipes, ratsion, sut irsiylik, oqsil,

Kirish; Echkilar juda ko‘plab yillardan beri o‘rganib kelinayotgan hayvonlar qatoriga kirib ulardan olinayotgan mahsulotlar hozirgi kunda asosiy muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Echki suti dunyo bo‘yicha shifobaxsh sutlar qatoriga kirib odamlar orasida ehtiyoji yuqori bo‘lgan mahsulod bo‘lib hisoblanadi. Echki suti murakkab tarkibga ega bo‘lgan biologik suyuqlikdir. Echki sutining tarkibiga 100 ortiq turli moddalar kiradi. Echkilardan sog‘ib olinadigan sutning tarkibi doimiy bo‘lmasdan, qator omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Bunday asosiy omillar qatoriga echkilarning zoti, sut mahsuldorligining turli ko‘rsatkichlarining irsiyligi, fiziologik holatlari tirik massa, yoshi, va h.k larkiradi. Tashqi muhit omillariga esa (oziqlantirish, saqlash va parvarishlash sharoitlari, yil fasllari va h.ozalar) kiradi.[1.3]

Echkilardan sut olish uchun echkilarning maxsus ixtisoslashtirilgan zotlari urchitiladi. Ammo, echki zotlarining ahamiyatlilik darajasiga qaramasdan bu jabhada olib boriladigan naslchilik ishlarining darajasi, hayvonlarni tanlash, oziqlantirish va saqlash sharoitlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.[1]

Material va metodlar; Sut berish davrida yani laktasiya davrida sog‘iladigan echkilarning bir kunlik energetik oziqa birligi 1,05 birlikgacha pasaytirilgan bo‘lib, bu kunlik sarflanayotgan energetik oziqa birligining 7,62 % ga kamayganligidan dalolat beradi.

Xorijdan keltirilgan Zanen zotli echkilarning xo‘jalik sharoitida mavjud bo‘lgan oziqalardan shakllantirilgan ratsion tarkibiga kiruvchi to‘yimli moddalar va uning to‘yimlilik qiymati 1-jadvalda keltirilgan.

Ratsion tarkibiga kiritilgan oziqalarning asosiy qismini dag‘al oziqalar tashkil qiladi, jumladan dag‘al oziqalar 78% va konsentrat oziqalar 22% ni tashkil qildi.Tajriba guruhi echkilari ratsionidagi quruq moddaning 10% eyxorniya suv o‘ti bilan almashtirildi.

Ratsionga kiritilgan oziqalarning kimyoviy tarkibi (VIJ usuli bo‘yicha); -iste’mol qilingan oziqalarning miqdori (kunlik berilgan va qoldiqda qolgan oziqalar miqdorlarini torozilarda o‘lchash yo‘li bilan); - ratsion tarkibidagi oziqalar tarkibidagi to‘yimli moddalarning hazmlanishi va o‘zlashtirilishi (qiyosiy tajribalarda, VIJ usuli bo‘yicha); -azot, kalsiy, fosfor va oltingugurt miqdorlari (VIJ usuli bo‘yicha); -echkilarning sut mahsuldorligi, tarkibi va uning fizik-kimyoviy xususiyatlari (umum qabul qilingan usullar bo‘yicha);

Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirishda an’anaviy bo‘lmagan oqsilga boy bo‘lgan Eyxorniya suv o‘tidan foydalanish hisobiga oziqlantirish darajasining oshirilishining sog‘iladigan echkilarda o‘rganilishi 2 ta analog tartibda shakllantirilgan guruh echkilarida olib borildi. Nazorat hamda tajriba guruhlari echkilari bir xildagi sharoitda ya’ni kunduz kuni dalada, kechqurun esa sog‘ib olingandan keyin alohida zagonlarga qamalgan holda omixta yem bilan oziqlantirildi. Bu yerdagi farq tajriba guruhi echkilari ratsionidagi omixta yem Eyxorniya oziqa qo‘shimchasi bilan aralashtirilgan edi.

Nazorat guruhi echkilari kunduz kuni yaylovdagi ko‘k o‘tlar bilan oziqlantirilib kechqurun 300 g dan omixta yem bilan oziqlantirilgan bo‘lsa, tajriba guruhi echkilari dastlab 3,0 kg beda pichani va laktatsiyaning 2 oyidan boshlab 4 kg dan ko‘k beda massasi bilan oziqlantirildi. Qo‘ldan berilgan oziqalarning asosiy qismini dukkaklilar (to‘yimliligi bo‘yicha 78%) tashkil qilgan bo‘lsa,

konsentrat oziqalar 22% ni tashkil qildi. Eyxorniya suv o‘ti hisobiga ushbu guruhning ratsioni tarkibidagi quruq moddaning miqdori 10% ga va uning to‘yimlilik qiymati ham 10% ga ortishi ta’minlandi.

Tadqiqot ishining ilmiy ishlab chiqarish qismi 6 oy mobaynida qiyosiy tajribalarda olingan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan ratsionlar bilan oziqlantirish yo‘li bilan davom ettirildi.

Natijalar va ularning tahlili; Sog‘in echkilar ratsioniga Eyxorniya suv o‘tidan qo‘shimcha oziqa sifatida foydalanilganda ularning sut mahsuldorligining 240 kunlik laktatsiya davomida 43,13 kg (4,99%, P>0,999); yog‘ning massali ulushining 0,30% (P>0,999); oqsilning massali ulushining 0,08 %; sut yog‘lilik darajasining12,4% (P>0,999); sut oqsilining 9,10% (P>0,95); echkilar tirik massasining 3,17% (P>0,99)ga oshishi kuzatildi.

Xulosa: xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki echkilar ratsionning quruq moddasi nisbatiga eyxorniya yuksak suv o‘tining biotexnolok ishlov berib qo‘shilishi echkilar sut mahsuldorligiga yetarli miqdorda tasir ko‘rsatishini aniqlandi. Tajriba guruhidagi echkilar nazorat guruhi echkilaridan sezilarli darajada sut miqdorini ko‘paytirishi yoki sutdagi quruq modda, umumiy oqsil, keziyin, fosfor ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatdan ustunlik qilishi, ratsion tarkibiga qo‘shilhan oqsilga boy oziqadaligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi. .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Naxalboyev A. et al. Hayvonlarni spiroulina bilan oziqlantirish tarixi //Збірник наукових праць SCIENTIA. – 2021.
2. Aliboyevich N. A., Jumanazarovich S. O. Effects on the Microflora of the Gastrointestinal Tract When Feeding Goats with High Algae //Central asian journal of social sciences and history. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 30-34.
3. Иванов А. Изучение микробиоты рубса коров методом Т-РФЛП. Современные нормативы // Дайджест Селское хозяйство. Наука и Практика. 2017. – № 4. – С. 1-6.Naxalboyev A. A. Yuksak suv o‘tlari va ularni o‘rganish tarixi (adabiyot tahlili bo‘yicha) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 999-1002.
4. **Азаубаева, Г.С. Продуктивность по анализу крови / Г.С. Азаубаева //Животноводство России. – 2004. – №11. – С. 21.**
5. 67.Мастерских, Д.Г. Свойства молока коз зааненской породы разного возраста / Д.Г. Мастерских, А.С.Шувариков // Овцы, козы, шерстяное дело. -2004.-№3.-С. 39-40.
6. 68.Маркин Ю.В. Развитие исследований по физиологии пищеварения// Ю.В.Маркин.// Зоотехния.-1999.-№ 8.- С.19-21.
7. 77.Мустафина Г.Н.«Продуктивные ибиоморфологические качества помесей коз русской белой и зааненской пород»,Автореф. дисс. на соиск. уч. степени канд. с.-х. наук. Йошкар-Ола, 2008. 147 с.

BOLALAR O‘RTASIDA QANDLI DIABET KASALLIGINI KELIB CHIQISHINI SABABLARINI O‘RGANISH

Ismatova Umida Foziljon qizi
Samarqand Zarmed Universiteti Davolsh ishi yo‘nalishi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi
Shayqulov Hamza Shodievich

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Endokrinologiya ilmiy-tadqiqot institutida o‘tkazilgan tadqiqotlarda qandli diabet bilan kasallanish holatlari 1,88-1,90% oralig‘ida aniqlangan bo‘lsa, hozirgi tadqiqotlarda O‘zbekistonda qandli diabetning yashirin va ochiq shakllariga chalinganlarni hisobga olgan holda bu ko‘rsatkich 10 foizga ortgan. Qandli diabet etiologik jihatdan geterogen bo‘lgan metabolik kasalliklar guruhiga kirib, sekresiyasi yoki insulin ta’sirining buzilishi yoki bu kasalliklarning kombinatsiyasi tufayli surunkali giperglikemiya bilan tavsiflanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda qandli diabet 1-toifaning tarqalishi, bolalarda qandli diabetning 35,7 foizga (100 ming bolalar aholisiga 59,4 dan 80,6 gacha), o‘smirlarda 68,9 foizga (100 ming o‘smirga 108,5 dan 183,5 gacha) o‘sgan.

Tadqiqot maqsadi. Bolalar o‘rtasida orttirilgan 1-toifali qandli diabet kasalligining kelib chiqish sabablarini o‘rganish.

Materiallar va usllar. Samarqand shahri va Qo‘shrabot tumanida istiqomat qilayotgan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 145 nafar bolalarda 1-toifali qandli diabet kasalligining kelib chiqishini retrospektiv o‘rganish va kasallik kelib chiqish sababini taxlil qilish. Buning uchun so‘nggi 4 yiilik arxivdagi kasallik tarixi o‘rganilib chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Qandli diabet kasalligi tashxisi tasdiqlangan bolalarning kasllik tarixi o‘rganilganda va ularning emlanish taqvimi tahlil qilinganda nafari (35%) bola epidemik tepki virusiga qarshu 1- emlanishi biror bir sabab bilan kechikkanligi; nafari (33%) 2-emlanishi kechikanligi va nafari 32% bola Tepki kasalligi bilan og‘ir kasallanganligi aniqlandi. O‘lardan nafari o‘g‘il bolalar nafari qiz bolalar ekanligi aniqlandi. 1-turdagi qandli diabet bilan kasallanganlar quyidagicha aniqlandi: 2020 yilda — 25,3 %, 2021 yilda — 34,0 %, 2022 yilda — 22,0 %, 2023 yilda — 18,0 %. Kasallik staji 1 yilgacha bo‘lganlar — 22,5 %, 12,0 %, 21 %, 18 %, 2 yilgacha bo‘lganlar — 22,5 %, 11,8 %, 22 %, 24 %, 3 yilgacha bo‘lganlar — 8,1 %, 9,0 %, 10 %, 11,2 %, 4 yilgacha bo‘lganlar — mos ravishda 8,3 %, 8,8 %, 8,2 %, 5,1 % bolani tashkil qiladi. Tepki viruslari oshqozon osti bezi Langergans orolchalarini zararlanishini inobatga olsa 3-5% holatlarda 1-toifadagi qandli diabetga olib kelishi barcha adabiyotlarda ko‘rsatilgan. Boshqa holatlarda 8% bola 2-toifali qandli diabet bilan kasallanganligi aniqlandi. Bolalarda qandli diabet kasalligining kelib chiqishiga ko‘p shirinlik ite’mol qilish, kam harakatlilik, ortiqcha tana vaznining oshishi, virtual olam (telefon, kampyuter,planshet) dan haddan ziyot ko‘p foydalanish, sog‘lom turmush tarziga rioya etmasligi aniqlandi.

Xulosa. Bolalar o‘rtasida 83% holatda 1-toifali qandli diabetning kelib chiqishida epidemik parotit virusilari keltirib chiqargan kasallik va xuddi shunday bolalarni o‘z vaqtida emlanmaganligi ahamiyatli o‘rinni egallaydi deb qarash mumkin. 2-toifali qandli diabet 17% ni tashkil etib , ularning kasallik tarixi (anamnezi) da sog‘lom turmush tarziga rioya qilmasligi aniqlandi.

Shunday qilib, virus infeksiyalari va 1-tur qandli diabet o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqarishi uning eng muhim funksiyalaridan biridir, u bolaning hayotining beshinchi yiliga kelib to‘liq shakllanadi. Aynan shu yoshdan va taxminan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar 1-tur qandli diabet bilan kasallanishga ayniqsa moyildirlar.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ - ЭТО ПОТРЕБНОСТЬ ВРЕМЕНИ

Олимова Дилдора Абдурасуловна
Преподавательница университета Зармед
Хамрокулова Шахзода Сухробовна
Студентка Самаркандского медицинского университета

Аннотация. Экологическое образование и воспитание - это потребность времени. В настоящее время экологическая проблема взаимодействия человека и природы воздействия человеческого общества на окружающую среду стала очень острой и приняла огромные масштабы. Планету может спасти лищ деятельность людей на основе глубоко понимание законов природы и также обучить каждом человеке экологической культуры, формирование которых начинается в с детства и продолжается всю жизнь. В своевременных условиях громадное значение приобретает экологическое образование и воспитание людей всех возрастов.

Ключевые слова. Экологическое образование, воспитание, экологическая культура, экологические просвещение.

ENVIRONMENTAL EDUCATION AND TRAINING AS A DEMAND OF THE TIME

Abstract. Environmental education and upbringing have become imperative in today’s world. The ecological crisis arising from the interaction between humans and nature, along with the widespread impact of human activities on the environment, has reached a critical level. Sustainable preservation of the planet is only possible through human actions grounded in a profound understanding of natural laws, coupled with the cultivation of ecological culture. This process must begin in early childhood and continue throughout an individual’s life. In the current global context, environmental education and training across all age groups play a pivotal role in fostering ecological responsibility and sustainable development.

Keywords: Environmental education, upbringing, ecological culture, ecological awareness, sustainability.

EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA – ZAMON TALABIDIR

Annotasiya. Ekologik ta’lim va tarbiya davr talabidir. Hozirgi vaqtda inson va tabiatning o'zaro ta'siri va inson jamiyatining atrof-muhitga ta'sirining ekologik muammosi juda keskinlashdi va juda katta miqyosda. Tabiat qonuniyatlarini chuqur anglash asosidagi inson faoliyati, shuningdek, har bir insonga ekologik madaniyatni o'rgatish orqaligina sayyorani saqlab qolish mumkin, uning shakllanishi bolalikdan boshlanadi va butun umr davom etadi. Zamonaviy sharoitda barcha yoshdagi odamlarni ekologik ta'lim va tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Ekologik ta’lim, tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ma’rifat.

В последние года решения вопросов охраны окружающей среды становится все более актуальным на глобальном уровне. В связи с этим, экологическое образование и обучение становятся важными аспектами образовательных программ в высших учебных заведениях. Экологическое обучение дошкольного, среднего и высшего образования студентов не только способствует формированию собственной грамотности, но и помогает развивать ответственное отношение к окружающей среде в будущем.

Текущий год Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев предложил объявить: «Годом охраны окружающей среды и зеленой экономики». Об этом Президент сообщил на заседании Законодательной палаты Олий Мажлиса, посвящённом рассмотрению кандидатуры на должность Премьер-министра и обсуждению программы деятельности Кабинета Министров на ближайшую и долгосрочную перспективу. В своем выступлении он отметил, что не только Узбекистан, но и многие страны мира отчётливо ощущают на себе негативные последствия изменения климата.

3-4 апреля этого года в городе Самарканде Первый саммит «Центральной Азии-Евросоюза. Президентом Шавкатом Мирзиёевым в нём прозвучал, экологические вызовы, стоящие перед Центральной Азией, которые требуют коллективных действий.

ключевые инициативы были выдвинуты следующие, объявленные. На Форуме:

*проведения Региональной акции по высадке деревьев «Зелёный пояс Центральной Азии»;

*доведение в ближайшие пять лет долю энергии, получаемой от возобновляемых источников, до 54 процентов;

*создание в Ташкенте Секретариата инициативы Евросоюза: «Вода – Энергия – Изменение климата»;

*запустить Региональную программу по внедрению водосберегающих технологий в Центральной Азии;

*провести в регионе Приаралья Международный форум по водосберегающим технологиям [4].

Следует особо отметить, что, загрязнение воздуха и воды, эрозия почв, опустынивание и неконтролируемое использование ископаемого топлива приводят к глобальному потеплению, увеличению стихийных бедствий и наносят вред окружающей среде и здоровью населения. В ответ на это три года назад в стране был запущен общенациональный проект «Зеленая зона». Началась реализация Региональной климатической стратегии совместно с соседними странами. В Ташкенте создан Центральноазиатский университет по изучению окружающей среды и изменения климата. В программе подчеркивалась необходимость уделения первоочередного внимания таким вопросам, как внедрение «зеленых» технологий, экономия воды, кардинальное увеличение площадей зеленых насаждений, смягчение последствий катастрофы Аральского моря, решение проблемы отходов и, самое главное, улучшение здоровья населения.

Сегодня экологическая образования и воспитания дошкольного, школьного, студенческого так или иначе пронизывает все стороны учебновоспитательного процесса, прежде всего по мере изучения окружающей среды, родной природы, особенно как национально - эстетической ценности. Поэтому насущным и закономерным является взаимосвязь эстетики природы с экологией, эстетической культуры с экологической [1].

Значение экологического образования. Экологическое обучение в высшей школе играет ключевую роль в подготовке студентов к жизни и работе в условиях воздействия экологических вызовов. В условиях резкого изменения климата, роста загрязнения и сокращения ресурсов необходимо осознавать необходимость использования альтернативных ресурсов, источников выбросов и других аспектов деятельности.

Обучение людей принятию экологически сознательных решений составляет основное содержание экологического образования и грамотности и учит их осознавать и

понимать, что каждый человек играет свою роль в возникновении экологических проблем и нанесении экологического ущерба.

Экологические знания должны быть неотъемлемой частью подготовки специалистов не только естественнонаучного профиля, но и всех специальностей. Также важно, чтобы работники системы образования понимали «экологическое содержание» своей педагогической деятельности и добивались интеграции и гармонизации экологических знаний в преподавании всех предметов образовательного процесса [2].

На наш взгляд, наиболее актуальными задачами, стоящими перед образовательными учреждениями, являются уделение большого внимания не только профессиональной подготовке будущих специалистов, но и формированию у них экологической культуры. Повышение творческой активности учащихся в определении отношения учащихся к окружающей природной среде; научить решать экологические проблемы на человеческом уровне в любой ситуаций; важно обеспечить достаточные знания о мерах, направленных на защиту и улучшению окружающей среды, а также научить соблюдать экологические стандарты в повседневной деятельности [3].

Наряду с экологическим просвещением необходимо организовывать регулярные массовые прогулки на природу, экскурсии, лагеря, экологические дни в образовательных учреждениях, активно участвовать в экспедициях, в экологических кружках, студенческих конференциях и семинарах, организации экологические уголков и в каждом учреждении, привлекать молодёжь к экологическому волонтерству.

Таким образом, по нашему мнению, экологическое мировоззрение и отношение к природе у молодежи формируется при использовании следующих методов, форм и способов воспитания:

- поощирение учащихся к постоянному приобретению экологических знаний (при ролевых и практических занятиях, участиях конференций, дискуссионных занятиях, написание студенческих рефератов и проведении викторин, организация общих и волонтерских групп).

- способствовать развитию творческого мышления молодёжи, формированию представлений человека об охране природы, рациональном использовании отходов, охране растительного и животного мира, посадке деревьев, предотвращении загрязнения воды, почвы, воздуха (в семье, обществе, дворе).

Использованная литература.

1. Жабборов А.Р. Экологическое воспитание и образование студенческой молодёжи. Ташкент:// - 2018. 321 с.
2. Иззатуллаев З.И., Олимова Д. Экологик таълим-тарбия, экологик маданиятни юксалтириш меъзони// Ўзбекистонинг биоэкологик муаммолари. Республика илмий ва илмий-техник анжумани материаллари. Термиз: ТДУ 2016. 15 март. 59 б.
3. Сафарова Д.С. Ёшларда экологик тафаккурни шакллантириш муаммолари// Текст научной статьи по специальности «Гуманитарные науки». 2024.
4. https://www.gazeta.uz/uz/2024/11/20/yil/

BIOSFERA VA AVTOTRANSPORT

Sherqo’zieva G.F, Salomova F.I., Bahriddinova M.N. Sayfiddin Hoji Q. SH.
Toshkent tibbiyot akademiyasi,O’zbekiston

Dolzarbligi. Avtomobillar biosferaning har xil zaharli gazlar bilan ifloslashidan tashqari dunyo aholisining nafas olishiga ketadigan kisloroddan 3-4 marta ko’p kislorodni sarflaydi. 2022 yilgi dastlabki hisob-kitoblar bo’yicha atmosferaga tashlamalar miqdori 2,057 mln tonnani tashkil qilib, shundan, 1,296 mln tonnasi (63,0 foiz) transport vositalari hamda 762,4 ming tonnasi (37,0 foiz) sanoat korxonalari hissasiga to’g’ri kelmoqda. Bir avtomobil dvigateli bir yilda 20-30 kishining yil davomida nafas oladigan kislorodni sarflaydi. Har yili 1 ta avtomobil o’rtacha 4 tonna oksigenni havodan olib, tashqi muhitga 800 kg is gazi, 40 kg azot oksidi va 200 kg atrofida turli zaharli moddalar, shu jumladan uglevodorodlar chiqarib tashlaydi. Transport vositalarining kundan kunga ko’payib borishi, qudratli mexanizmlarning yaratilishi va undan keng ko’lamda foydalanish saxovatli tabiatga, shu jumladan atmosfera havosiga salbiy ta’sir ko’rsatib, uning buzilishiga sabab bo’lmoqda. Avtomobillar hozirgi kunda shaharlarning havosini ifloslantiruvchi asosiy sababchilaridan biridir. Dunyo avtomobil parki soni ortib borishi natijasida atmosfera ifloslanishida transport vositalari salomg’i ortib bormoqda. Ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, AQSh va Yaponiyada atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar ichida avtotransport vositalari oldingi o’rinda turadi. Xorijiy mamlakatlar atmosfera havosini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi, uglevodorodlar, shuningdek, azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60% ini tashkil qilsa, bizda 14% ini tashkil qiladi. Avtomashina, teplovoz, samolyot, traktorlar katta miqdorda O2ni sarflab atmosferaga uglerod oksidi – 260 mln. t, uchuvchi uglevodorodlar - 40 mln. t, azot okisdi - 20 mln. t va qurg’oshinning zararli birikmalarini chiqaradi.

So’nggi 10 yilda poytaxtda avtomobillar soni ikki baravardan ziyodroqqa oshgani, jamoat transporti yo’nalish tarmoqlari o’tgan asrning 80-yillarida tuzilgani, ammo shu vaqtga qadar mukammal tarzda qayta ko’rib chiqilmagani, oqibatda shahar jamoat transporti tizimida jiddiy muammolar yig’ilib qolgani mavjud vaziyatni tobora murakkablashtirmoqda. Shu sababli biosferani muhofaza qilish quyidagi O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solingan: “Atmosfera havosini muhofaza qilish to’g’risida”gi (26.12.1996y.) Qonun (29 ta modda); “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi (09.12.1992y.) Qonun (1-2, 11, 20, 30-moddalari); “Ekologik nazorat to’g’risida”gi (12.12.2013y.) Qonun (7, 11-moddalari). Inson salomatligiga zararli ta’sir ko’rsatishi sababli atmosfera havosining ifloslanishi har doim tashvish uyg’otgan. Biosferaning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun biz nafas olayotgan havoning sifatli bo’lishi juda muhim. Deyarli har bir yirik shahar atmosferasida yuqori miqdorda ifloslantiruvchi moddalar kuzatiladi, ular ekotizim va aholi salomatligiga salbiy ta’sir etadi.

Tadqiqotning usullari va materiallari: Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz aholi turar joylari atmosfera havosining ekologo-gigienik xolatini yillar dinamikasida retrospektiv taxlil qilishni maqsad qildik. Ishni bajarishda qonuniy me’yoriy hujjat SanQ va M “O’zbekiston Respublikasi aholi yashash joylari atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning REK ro’yxati” dan foydalanildi.

Biz aholi yashash joylari biosferaning ekologo-gigienik xolatini 2017-2020 yillar dinamikasida retrospektiv taxlil qildik va quyidagi natijalarni oldik: 2017 yil umumiy olingan namunalar soni - 1902 ta (100%), ulardan - 263 tasi (13,8%), 2018 yil umumiy olingan namunalar soni - 1950 ta (100%), ulardan -323 tasi (16,5%), 2019 yil umumiy olingan namunalar soni - 1677

ta (100%), ulardan - 198 tasi (11,8%), 2020 yil umumiy olingan namunalar soni - 973 ta (100%), ulardan - 130 tasi (13,3%) gigienik talablarga javob bermagan.

Xulosa: Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkin 2018 yildagi namunalar boshqa yillarga nisbatan ko’p gigienik talablarga javob bermagan.Bu esa biosferaning ifloslanish xolatini doimiy monitoringni olib borish ahamiyatini ko’rsatadi.

YUQUMLI KASALLIKLARDA AXOLINING TIBBIY SAVODXONLIGINING AXAMIYATI

Sherqo’zieva G.F.,Toshpulatov B.M
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Dolzarbligi. Yuqumli kasalliklar tibbiyotning dolzarb muammolaridan biridir. BJSST ma’lumotlariga ko’ra dunyoda har yili meningokokkli meningit bilan og‘rgan 300 ming xolat qayd etilsa, shundan 30 ming nafari o’lim bilan tugaydi. O‘zbekiston Respublikasida kompleks profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning maqsadli amalga oshirilishi natijasida yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda katta yutuqlarga erishildi. 1991 yildan boshlab qator yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ko’rsatkichlarining izchil kamayib borishi kuzatilmoqda, shu jumladan «A» virusli gepatit bilan kasallanish 4,5 baravar, o’tkir ichak infektsiyalari bilan kasallanish 4,6 baravar, o’tkir respirator kasalliklar bilan kasallanish 7,9 baravar kamaydi.Bu asosan sohada kuchli qonunchilik yaratilganligidan dalolat beradi,xususan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining”O‘zbekiston respublikasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori.

Yuqumli kasalliklar (infektsion kasalliklar) - bu mikroorganizmlar, bakteriyalar, viruslar, zamburug’lar yoki parazitlar tomonidan kelib chiqadigan kasalliklardir. Ushbu mikroorganizmlar inson tanasiga kirib, unda ko’payib, turli simptomlar va asoratlarni keltirib chiqaradi. Yuqumli kasalliklar odamdan odamga, hayvonlardan odamga, oziq-ovqat, suv yoki havo orqali yuqishi mumkin. Yuqumli kasalliklarning belgilari kasallik turi va sababi bo’yicha farq qiladi. Umumiy simptomlarga quyidagilar kiradi:isitma,yallig’lanish, og’riq, yo’tal, tomoq og’rig’i,charchoq, bosh og’rig’i, teri toshmalari yoki yaralar. Yuqumli kasalliklarni aniqlash usullari kasallikning turi, simptomlari va uni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarga bog’liq. O’zbekistonda 2024-yil yanvar–sentyabr oylarida yuqumli va parazitar kasalliklardan vafot yetganlar soni 1,2 foizi tashkil etdi.

Tadqiqotning maqsadi: Mavsumiy yuqumli kaslliklarda profilaktikasida aholini tibbiy savodhonligini oshirish va axoli o’rtasida yuqumli kasalikalr tarqalishini oldini olish.

Tadqiqotning usullari va materiallari: Anketa-so’rov, dalillarga asoslangan tibbiyotning tasodifiy tanlov usullari (asosiy sohani qamrab olish usuli), statistik epidemiologik, ijtimoiy - gigienik usullaridan foydalanilgan.

Natija va muhokamalar: Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz axolining turli guruxlar o’rtasida so’rovnoma o’tkazdik va ularning yuqumli kasalliklar to’g’risidagi qay darajada ma’lumotlarga ega ekanliklarini aniqladik. So’rovnomada ishtirok etganlardan quyidagi natijalar olindi: 23 nafari kasalliklar bilan kurashishning eng samarali usuli ,,kasalliklarni profilaktika qilish, 47 nafari ,,kasalliklarni dori bilan davolash, 29 nafari ,,aholini tibbiy savodxonligini oshirish variantini ko‘rsatishgan. Yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni parvarish qilish haqida malumotga egamisiz degan savolimizga 33 nafar kishi ,,ha, 41 nafari ,,yo‘q, 46 nafari esa ,,malumotga ega emasman deb javob berishgan. Qanday holatlarda yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni uy sharoitida davolash mumkin degan savolimizga 22 nafari ,,bemorni hohishiga ko‘ra, 18 nafari ,,barcha holatlarda, 80 nafari ,,shifokor maslahati bilan deb javob berishgan.

Xulosa. Olingan natijalar asosida axoli o’rtasida turli yuqumli kasalliklarning profilaktikasida ayniqsa quyidagilar muxim xisoblanadi:axolining tibbiy savodxonligini oshirish,axoli o’rtasida qo’llarni to’g’ri yuvish va dezinfeksiya qilish;ovqatni to’g’ri pishirish va saqlash;vaksinalarni qabul qilish;jamoat joylarida niqob taqish va ijtimoiy masofani saqlash;toza suv va oziq-ovqat manbalaridan foydalanish,shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish:kasallanganlar bilan aloqani cheklash: kasallik belgilari bo’lgan shaxslar bilan muloqotni minimallashtirish lozim;xonalarni muntazam shamollatish va nam tozalash kasallikning

profilaktikasida muxim ekanligini tushuntirish.Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar mavsumiy yuqumli kasalliklarning oldini olishda samarali hisoblanadi.

OQSIL VA VITAMIN ALMASHIINUVI KO’RSATGICHLARI BO’YICHA PROFESSIONAL SPORTCHILARNING OVQATLANISHINI KORREKSIYA QILISH

Pardayev Musobek O’ktamovich
tibbiy profilaktika jamoat salomatligi va tibbiy biologiyta fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: ***Tuxtarov Bahrom Eshnazarovich***
Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti Umumiy gigiyena va tibbiy ekologiya kafedrasi mudiri t.f.d professor.

Tadqiqot maqsadi: Oqsil va vitamin almashinuvi ko'rsatkichlari bo'yicha professional sportchilarning ovqatlanishini korreksiya qilish samaradorligini baholash.

Material va metodlar. Tadqiqotlar sport inshootida mashg'ulot paytida professional yakkakurash sportchilari ustida o'tkazildi. Sportchilarning mashg'ulot-sog'lomlashtirish bazasida kecha-kunduz bo'lishlari va ularning energiya sarfining nisbatan teng darajasi turli xil ovqatlanish fonida sportchilarning metabolizm holati to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlarni olishga imkon berdi.

Ovqatlanishni korreksiya qilish vaqtida metabolizm holatini aks ettiruvchi oqsil almashinuvining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblangan siydikning azotli tarkibiy qismlarini o'rganish hisoblanadi: ammiak, siydikchil va Waterlooy indeksining kunlik chiqarilishi shaklida. Siydikning azotli fraktsiyalari og'ir jismoniy mashqlar paytida oqsil metabolizmining tabiatini baholashga imkon beradi, chunki metabolizmning yakuniy mahsulotlari asosan buyraklar tomonidan chiqariladi [1,2,5].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Haqiqiy ovqatlanishning o'rtacha kunlik ratsiondagi umumiy oqsillarning energiya intensivligi har ikki jinsdagi sportchilarning barcha sport turlari bo'yicha fiziologik ehtiyojlariga mos keladi. Shu bilan birga, umumiy oqsillar tarkibida hayvon oqsillari darajasi barcha sport turlari uchun yetarli emasligi aniqlandi, fiziologik daraja kamida 55,0% bo’lishi lozim, bu yakkakurash sportchilari va yengil atletikachilarda 51,0±1,1% ni, bokschilar va og‘ir atletikachilar uchun 53,0±1,1% ni tashkil etdi. Qish-bahor mavsumida haqiqiy ovqatlanish fonida (1-guruh) erkak va ayol yakkakurash sportchilari 135,4 ± 4,8 g oqsil qabul qilish hisobiga siydikdagi o'rtacha kunlik azot miqdori 12,2 ± 0,1 g/kunni tashkil etdi. Yoz-kuz mavsumida erkaklarda bu qiymat 147,3 ± 5,3 g oqsil qabul qilganda 12,6 ± 0,1 g/kunni tashkil etdi; ayollarda esa - mos ravishda 11,8±0,1 va 12,1±0,1 g/kun, 132,1±3,0 va oqsil iste'moli 138,8±2,5 g tashkil etdi.

Oqsil almashinuvining holatini to'liqroq tavsiflash uchun nafaqat umumiy azotning chiqarilishini, balki uning alohida fraktsiyalarini ham o'rganish kerak. Ularning orasida yetakchi o'rinni siydikchil egallaydi, uning azoti siydikdagi sutkalik azotning eng muhim qismini tashkil qiladi.

Bizning tadqiqotlarimizda, haqiqiy ovqatlanish asosida siydikchil indeksi erkaklarda 66,7±0,4 - 67,8±0,3% va ayollarda 66,6±0,4 - 67,1±0,3% ni tashkil etdi. 2-guruh tekshiriluvchilarda ovqatlanish ratsioni o'zgartirilganda, Waterlooy indeksi erkaklarda 82,1±0,4 - 87,2±0,5% va ayollarda 82,0±0,3 - 87,4±0,4% ni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat bilan iste'mol qilinadigan oqsil miqdorida ba'zi farqlar mavjud bo`lsada, o'zgartirilgan ratsionda erkaklar va ayollardagi siydikchil indeksining qiymatlari sezilarli darajada farq qilmadi. Shunday qilib, 2-

guruh tekshiriluvchilarda o'zgartirilgan ovqatlanish ratsioni fonida siydikda azot ajralishining ortishi 10-15% ni tashkil etdi, Vaterlooy indeksining o'sishi haqiqiy ovqatlanish foniga nisbatan 18-20% ni tashkil etdi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sportchilarning peshobi bilan ammiakning kunlik ajralishi haqiqiy ovqatlanish fonida: erkaklarda 795,0±7,0 - 812,0±8,0 mg, ayollarda - 791,0±8,0-796,0±8,8 mg. O'zgargan ovqatlanish ratsioni fonida 2-guruh tekshiriluvchilarida bu ko'rsatkichning erkaklarda 682,0±7,0 - 674,0±5,0 mg va ayollarda 672,0±6,0-668,0±5,0 mg ishonchli darajada pasayishini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar o'zgargan ratsion fonida tekshiriluvchilarda oqsil almashinuvining normallashishini ko'rsatadi.

Xulosa: Aniqlangan umumiy azot va siydikchilning ajralishining pasayishi, sutkalik siydikdagi umumiy azotga nisbatan ammiak miqdorining yuqoriligi, haqiqiy ovqatlanish fonidagi yakka kurash turi bilan shug`ullanadigan sportchilarda siydikchil indeksining pastligi bu ratsionning biologik qiymati pastligi va sportchilarning fiziologik ehtiyojlariga mos kelmasligidan dalolat beradi.

1. Tadqiqot natijasiga ko’ra umumiy azot va siydikchilning kam ajralishi, sutkalik siydikdagi umumiy azotga nisbatan ammiakning yuqori miqdori, haqiqiy ovqatlanish fonida tadqiqotda ishtirok etgan yakkakurash sportchilarida past siydikchil indeksi ushbu ratsionlarning qo’yi biologik qiymatga ega ekanligi va ular sportchilarning fiziologik ehtiyojlariga mos kelmasligini ko'rsatadi.

2. Ratsionning sifat tarkibini o'zgartirish sportchilarda siydikning azotli tarkibiy qismlarining biokimyoviy ko'rsatkichlarini normallashtirish va oqsillarning so`rilishini yaxshilash imkonini berdi. Oqsil almashinuvining holatini tavsiflovchi eng yaxshi ko'rsatkichlar 3-guruh tekshiriluvchilarda, ya’ni o'zgartirilgan ratsionga qo'shimcha ravishda "Quvatin", "Bioferron" BFQ va sutkasiga 2 litr sun'iy mineralizatsiyalangan "Bonaqua" suvini qabul qilganlarda olindi.

3. Tekshiriluvchilarning kundalik ratsioni tarkibidagi C vitamini laboratoriya tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, uning haqiqiy ratsionda miqdori (112-128 mg) C vitaminining mg/soat ajralishining kerakli darajasini ta'minlamaydi.

4. C vitaminining mg/soat ajralishini normallashtirish ovqatlanishni korrektsiya qilish orqali erishish mumkin: sutkasiga 15 g hajmda "Bioferron" BFQ qo'shilishi erkaklarda ham, ayollarda ham C vitamini iste'molini 7,5 mg ga oshirish imkonini berdi. Natijada C vitaminining mg/soatlik ajralishi normal darajaga yetdi (1,1-1,3 mg/soat).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. А. А. Покровского Биохимические методы исследования в клинике // Под ред.- М.,1969.
2. Высоцкий В.Г., Михайлов Н.А., Млодик Е.Я. Экспериментальное обоснование рациональных уровней потребления белка для различных групп взрослого населения СССР //Вопросы питания, 1991, №2,- С.6-13
3. Методы оценки и контроля витаминной обеспеченности населения /Под ред. В.В.Спиричева- М.: Наука, 1984.- С. 103-111.
4. Тутельян В. А., Спиричев В. Б., Шатнюк Л. Н. Коррекция микронутриентного дефицита. //Ж. Вопросы питания–1999. - № 6. – С. 3-11.
5. Черемин Ю.А. Влияние рационов с избыточным содержанием белка на азотистый обмен у мужчин //Ж. Вопросы питания,1985, - № 6.- С.16-21
6. Walser M. Urea metabolism. In: Waterlow J.C., Stephen J.M.L., ed. Nitrogen etabolism in men. London, applied Science Publishers, 1981, pp.229-246.
7. Тухтаров, Б. Э. (2008). Белковая обеспеченность профессиональных спортсменов, занимающихся борьбой кураш. Вопросы питания, 77(1), 46-47.
8. Tuhtarov, B. (2011). estimation of the importance of biological value of nutrition allowances of sportsmen of weightlifting in the conditions of the hot climate. Medical Health and Science Journal, 8(4), 107-110.

ТАЛАБАЛАРИНИНГ ОВҚАТ ҲАЗМ ҚИЛИШ ТРАКТИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ СКРИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ

Шайқулов Ҳамза Шодиевич
Биология, физика, информатика, микробиология ва гистология кафедраси катта ўқитувчиси
Расулова Мухсина Розиқовна
PhD, клиник фанлар кафедраси доценти
Зармед университети Самарқанд кампуси.

Аннотация. Мазкур тадқиқот ОЎЮ талабаларида овқат ҳазм қилиш тракти (ОҲҚТ) касалликларининг учраш частотаси ва клиник кўринишларини ўрганишга бағишланган. Тадқиқот давомида талабалар анкетаси ёрдамида ОҲҚТ касалликлари симптомлари ва хавф омиллари аниқланган. Натижада талабаларнинг 46,3%ида турли хил ОҲҚТ симптомлари, 35,7%ида эса аввал қўйилган гастроэнтерологик ташхислар аниқланди. Тадқиқот талабалар ўртасида ОҲҚТ касалликлари скринингини такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади.

Мавзунинг долзарблиги. Олий ўқув юртларида ёш мутахассисларни тайёрлаш сифати бошқа омиллар қаторида талаба ёшларнинг саломатлик ҳолати билан ҳам кўп жиҳатдан белгиланади [1, 2]. Дарсларни узоқ муддатга қолдириш, касаллик туфайли академик таътил бериш ўқиш жараёнини узайтиради, иқтисодий харажатларни оширади, ўқиш сифатига ва умуман мутахассис тайёрлаш сифатига таъсир қилади. Талабалар, ўрта махсус касб-ҳунар таълими муассасалари талабалари ва олий ўқув юртлари талабалари касалланиши структурасида овқат ҳазм қилиш органлари касалликлари етакчи ўринлардан бирини эгаллайди [3, 4]. Ҳозирги вақтда ёшлар орасида овқат ҳазм қилиш тизими касалликлари, жумладан, яра касаллигининг ўсиши кузатилмоқда [5, 6].

Шу муносабат билан олий ўқув юртларида таълим олаётган талабаларни ўз вақтида тиббий назоратдан ўткизиш, улардаги функционал бузилишларни, яширин кечувчи сурункали овқат ҳазм қилиш тракти касалликларини ўз вақтида аниқлаш тиббий ҳамда ижтимоий аҳамиятдаги муҳим масаладир [5]. Тиббий кўриклар вақтида сўровнома ўтказиш [11] алоҳида ўрин тутади. Бироқ, бугунги кунда ОЎЮ ўтказилаётган талабаларнинг тиббий кўриклари етарлича эмаслиги аниқланган [12, 13]. Шу сабабли талаба ёшларда овқат ҳазм қилиш тракти патологиясини ўз вақтида ва тўлиқ аниқламаслик ҳолатлари ортиб бормоқда [14, 15].

Тадқиқотимизнинг мақсади. ОЎЮларида таҳсил олаётган талабаларда овқат ҳазм қилиш тракти (ОҲҚТ) касалликларининг учраш частотаси ва клиник манзараси хусусиятларини ўрганиш, тиббий кўриклар вақтида талаба ёшларда овқат ҳазм қилиш тракти касалликлари скринингининг самарадорлигини ошириш ҳамда шаҳар талабалар поликлиникасида ОҲҚТнинг эрозив-ярали касалликлари билан касалланган беморларни ўчраш даражасини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот материали ва усуллари. Бунинг учун талабалар томонидан мустақил тўлдириш учун сўровномалар «талаба анкетаси» ишлаб чиқилди. «Талаба анкетаси» соматик патология аломатларини (жумладан, овқат ҳазм қилиш органлари касалликлари симптомлари) ва касалликлар ривожланиш хавф омилларини аниқлаш учун мўлжалланган. У 47 та саволни ўз ичига олади. «Талаба анкетаси» аввал қўйилган гастроэнтерологик ташхисларни, овқат ҳазм қилиш органлари касалликлари симптомларини ва уларнинг ривожланиш хавф омилларини аниқлаш учун мўлжалланган (17 та саволни ўз ичига олади).

Анкеталарни тўлдириш осон — респондент таклиф этилган рўйхатдан ўзида мавжуд бўлган аломатлар, ҳолатларни қидиради. Синалувчининг характери хусусиятларини, унинг турмуш тарзини, умумий маданият ва овқатланиш маданияти даражасини, шикоятларини, агар шикоятлар бўлмаса — талабада патологик ҳолатларнинг мавжудлигини аниқлаш — буларнинг барчаси шифокор ва бемор ўртасида конструктив муносабатларни қуриш, дастлабки ташхисни қўйиш, текширув ва маслаҳатлашув режасини белгилаш, хавф омиллари бўйича бирламчи тавсиялар бериш учун катта аҳамиятга эга.

Сўровномамиз рақамлаштирилди ва Google Forms платформасига жойлаштирилди ва кейинчалик таҳлил қилинди, унда 16 ёшдан 27 ёшгача бўлган Самарқанд Зармед университети, СамДТУ, KIUT Самарқанд кампусининг 1, 2, 3-курс талабаларидан 865 нафари (онлайн) ихтиёрий иштрок этишди.

Тадқиқот натижалари

Ўтказилган тадқиқотлар натижасида аниқланишича, талабаларнинг 26,6%ида (50 киши) аввал қўйилган гастроэнтерологик ташхислар мавжуд бўлиб, шундан 1,6%ида яра касаллиги, 20,2%ида гастродуоденал зона касалликлари, жумладан 17,6%ида яллиғланиш касалликлари, 2,7%ида ОҲҚТэрозив-ярали шикастланишлари аниқланган.

1-жадвал ва 1-расм маълумотларидан кўриниб турибдики, қизларга гастроэнтерологик ташхислар кўпроқ қўйилган (1-расм).

1-расм

Сўровномада қатнашган талабаларнинг овқат ҳазм қилиш тракти патологияси структураси



Талабалар ўртасида ўтказилган сўровномада 87 нафар (46,3%) одамда овқат ҳазм қилиш тракти касалликларида кузатилиши мумкин бўлган турли хил (кўпинча бир-бири билан қўшилиб келадиган) симптомлар аниқланди (қорин оғриғи — 40,1%, эпигастрийда ноқулайлик — 31,4%, жиғилдон қайнаши — 32,1%, кўнгил айниши ва қусиш — 13,9%, ҳаво ва нордон кекириш — 2,9%). Ташхис қўйиш учун уларнинг барчаси қўшимча текширувга муҳтож эдилар. Талабалар учун ишлаб чиқилган анкетанинг афзалликларидан бири — ўтказилган овқат ҳазм қилиш тракти касалликлари ҳақида маълумот олиш, овқат ҳазм қилиш тракти касалликларининг келиб чиқиши ва зўрайишига мойил қилувчи омилларни (алиментар омиллар, шахс хусусиятлари, зарарли одатларнинг мавжудлиги) аниқлаш имкониятидир.

Талабаларнинг аксарияти II ва III курс 199 нафар ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларига кўра, 71 нафарида (сўровномада қатнашганларнинг 35,7%) аввал қўйилган гастроэнтерологик ташхислар мавжуд бўлиб, шундан 4 нафарида (2%) яра касаллиги, 60 нафарида (30,2%) гастродуоденал зона касалликлари, жумладан 54 нафарида (27,1%) яллиғланиш касалликлари, 6 нафарида (3%) ОҲҚТэрозив-ярали шикастланишлари аниқланган. Қизларда ОҲҚТяллиғланиш касалликлари кўпроқ аниқланган.

Сўровнома вақтида ҚБМнинг 105 нафар ўқувчисида (52,8%) овқат ҳазм қилиш тракти касалликларининг турли хил (кўпинча бир-бири билан қўшилиб келадиган) симптомлари аниқланди. Респондентлар кўпинча қорин оғриғи ва дам бўлиш ҳисси,

жиғилдон қайнаши, оғизда ёқимсиз таъм, камроқ кўнгил айниши (қусиш), ҳаво кекириши, нордон кекиришни қайд этдилар. Ташхис қўйиш учун уларнинг барчаси қўшимча текширувга муҳтож эдилар.

«Талаба анкетаси» бўйича 180 нафар ҚБМ ўқувчиси сўровнома қилинди (2-жадвал).

2-жадвал

Сўровномада аниқланган фаол шикоятлар ва касаллик белгиларининг мавжудлиги ўртасидаги боғлиқлик

Касаллик белгиларининг намоён бўлиши / Шикоятлар	Йўқ	Бор
	Ўғил (Эркак)	Қиз (Аёл)
Бор	34	71
Йўқ	7	10

«Талаба анкетаси» бўйича фаол шикоят қилмаган талабаларининг 58,3%ида овқат ҳазм қилиш тракти касалликлари белгилари аниқланди. Уларнинг барчасига қўшимча текширув ва хавф омиллари бўйича бирламчи тавсиялар берилди.

865 нафар талабаси ўртасида ўтказилган сўровномада 108 нафар талабада, яъни ҳар саккизинчисида (12,5%) аввал қўйилган овқат ҳазм қилиш тракти касалликлари аниқланган, шу жумладан 12 нафарида (1,4%) яра касаллиги.

«Талаба анкетаси» бўйича иш олиб борар эканмиз, биз 332 нафар талаба (38,4%) оғриқли ёки диспептик синдромларни бошдан кечирганлигини аниқладик, яъни деярли ҳар учинчиси. Уларнинг барчаси турмуш тарзини, хусусан овқатланишни тўғрилашга, терапевт, гастроэнтеролог кўригидан ўтишга, инструментал текширув усулларини ўтказишга муҳтож бўлганлар.

Улар орасида гастроэнтерологик ташхисга эга бўлганларнинг (108 киши) 105 нафарида (97,2%) оғриқ синдроми мавжудлиги қайд этилган.

Қайта сўровнома ўтказилганда 14 нафар талабада (5%) ўтган вақт давомида турли хил овқат ҳазм қилиш бузилишларига шикоятлар пайдо бўлганлиги аниқланди. Талабаларнинг бу қисмида олий ўқув юртида ўқиш овқат ҳазм қилиш тракти патологияси бўйича хавф омилларини (нотўғри, мувозанатсиз овқатланиш, адаптация ва сессия стресси) ва шахсий хавф омилларини (зарарли одатлар, гастрономик иштиёқлар, шахснинг психологик хусусиятлари) кучайтирди. Бирламчи кўрикда шикоят қилган талабаларнинг 21 нафарида (23%) шикоятлар бўлмаган (12 киши) ёки ўзини ҳис қилиш ҳолати сезиларли даражада яхшиланган (9 киши), уларнинг барчаси дори-дармон билан даволанмаган. Бу ҳатто аниқ бир талабанинг анкетасида аниқланган хавф омиллари бўйича иш олиб боришнинг ўзи ҳам самарали бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Шикоят қилишда давом этаётган талабаларнинг (70 киши) 65 нафари (92,8%) текширувдан ўтмаган. 2 нафар талаба (2,9%) текширувдан тўлиқ ўтмаган.

ОҲҚТ эрозив-ярали шикастланишлари билан касалланган ёш беморларнинг 31,2%ида узоқ муддатли ремиссия (2+0,2 йил), 15,6%ида 2 йилда 1 марта зўрайиш, 32,8%ида йилига 1 марта зўрайиш, 3,1%ида кузатувнинг биринчи йилида 2 марта зўрайиш, сўнгра йилига 1 марта зўрайиш кузатилди.

Талабалар саломатлигининг назоратидаги энг муҳим йўналишларидан бири — юқори хавф гуруҳларини аниқлаш, мавжуд касалликларни эрта ташхислаш, маълум касалликлари бўлган беморларни рўйхатга олиш, олий ўқув юртида ўқишнинг биринчи кунидан бошлаб бирламчи ва иккиламчи профилактика бўйича фаол чора-тадбирларни ўтказишдир. Тиббий кўриклар вақтида биз ишлаб чиққан талаба ва талаба анкеталарини қўллаш индивидуал хавф омилларини, касаллик устидан назорат даражасини аниқлаш, текширув, даволаш, профилактика бўйича асосланган тавсиялар бериш, динамик кузатув учун гуруҳларни ажратиш имконини беради. Анкеталарни таҳлил қилишда шифокорнинг эътибори нафақат шикоят қилаётганларга, балки камдан-кам ҳолларда ноқулайлик, диспепсияни бошдан кечираётган ва шикоят қилмайдиганларга ҳам қаратилади.

Хулоса. Аниқланишича, талабаларнинг 52,8 фоизида ҳеч бўлмаганда бир марта, 46,3 фоизи мутахассис маслаҳатига муҳтожлиги, ва 38,4 фоизи имкон бўлса шифокорнинг маслаҳати билан даволаниш истаги борлиги аниқланди.

Шундай қилиб, биз ишлаб чиққан анкеталарни қўллаш овқат ҳазм қилиш тракти патологиясини аниқлашда оддий ва кам харажатли, самарали усул бўлиб, уларни йиллик тиббий кўрикларда талабаларни текшириш учун тавсия этиш имконини беради.

Адабиётлар.

1. Hamzaevna S. J. et al. OLIY O ‘QUV YURTLARINING ILK KURSLARIGA QABUL QILINGAN TALABALAR RUHIY HOLATIGA BIOLOGIK RITM O ‘ZGARISHINING SALBIY TA’SIRLARI //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 201-203.
2. Naimova Z. S. Shayqulov HS Kimyo zavodiga yaqin hududlarida yashovchi bolalar va o ‘smirlardagi antropometrik ko ‘rsatgichlar //Golden brain. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 59-64.
3. Roziqovna R. M., Shamuradovna B. R. KAMQONLIKNI BARTARAF ETISHDA MILLIY TAOMLARNING O ‘RNI //INDEXING. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 126-129.
4. Sh B. R. et al. THE SIGNIFICANCE OF GIAMBLIAsis IN THE ETIOPATOGENESIS OF DISEASES IN CHILDREN //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2022. – T. 8. – №. 6. – C. 62-65.
5. Shamuradovna B. R., Roziqovna R. M. KAMQONLIK PARHEZIDAGI O ‘ZBEK MILLIY TAOMLARI TARKIBIDA MIS VA TEMIR MIQDORINI ANIQLASH //INDEXING. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 140-143.
6. Shamuradovna B. R., Shodievich S. H. TVOROGLAR TURLI HARORATDAGI SHAROITLARIDA SAQLANGANDA ENTEROBAKTERIYALAR VA STAFILOKOKKLARNING SAQLANIB QOLISHI //INDEXING. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 121-125.
7. Shomuratovna B. R. The development and course of chronic pyelonephritis against the background of dysmetabolic nephropathy in children //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 115-122.

BIOLOGIK VA TIBBIY FIZIKA

***

BIOLOGICAL AND MEDICAL PHYSICS

***

БИОЛОГИЧЕСКАЯ И МЕДИЦИНСКАЯ ФИЗИКА

УДК 613-956. 613-37.06

ОСОБЕННОСТИ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЗАВИСИМОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Мухидова Гульмира Хасановна
Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, Бухара, Узбекистан.
Муаззамов Бобир Баходирович
Заведующий кафедрой доклинических дисциплин университета Zarmed г.Бухары, кандидат медицинских наук, доцент

Резюме: Термин «компьютерная зависимость» определяет патологическое пристрастие человека к работе или проведению времени за компьютером. Эта новая болезнь поражает молодую часть населения, преимущественно подросткового возраста. Хоть это заболевание не имеет ничего общего с инфекцией, но распространяется по миру со скоростью эпидемии.

Ключевые слова: компьютерная зависимость, подросток, патофизиологические и психологические особенности.

FEATURES OF COMPUTER ADDICTION IN ADOLESCENTS

Mukhidova Gulmira Khasanovna
Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, Bukhara, Uzbekistan.
Muazzamov Bobir Bakhodirovich
Head of the department of pre-clinical sciences of Zarmed University, candidate of medical sciences, associate professor

Resume: The term "computer dependence" defines the pathological addiction of a person to work or conducting time at a computer. This new disease is striking the young part of the population, mainly adolescence. Although this disease has nothing to do with infection, but spreads the world at the speed of the epidemic.

Keywords: computer addiction, teenager, pathophysiological and psychological features.

Актуальность.В настоящее время мы живём в эре современных технологий. Необходимо отметить, что реализация государственной программы и системы мер по реформированию здравоохранения и проведение сильной социальной политики по защите населения имеет важное значение в деле обеспечения интересов человека, являющегося для нас высшей ценностьюх[1,4].

Человек сейчас не просто физическое тело со своими собственными представлениями, чувствами, желаниями и страстями, он самый настоящий участник интенсивного коммуникационного процесса[5,7].

Последние два десятилетия все более возрастает значимость Интернета как информационного, смыслового и игрового пространства, что приводит к широкому внедрению интернет-ресурсов практически во все сферы человеческой деятельности. Вместе с тем, наряду с позитивным влиянием, обусловленным удобством использования

ресурсов Интернета, становится всё более оформленной проблема интернет-зависимого поведения [3].

Компьютеры стали незаменимой частью повседневной жизни, при этом создавая новые проблемы связанные с воспитанием здорового ребёнка.

Интернет стал мощным средовым фактором, под влиянием которого происходит формирование личности современных детей и подростков. Согласно данным социологических опросов, проводимых фондом общественного мнения, именно лица подросткового и юношеского возраста являются наиболее активными интернет-пользователями[2,5].

С этой точки зрения появилась новая болезнь «компьютерная зависимость» которая не имеет ничего общего с инфекцией, но распространяется по миру со скоростью эпидемии. Термин «компьютерная зависимость» определяет патологическое пристрастие человека к работе или проведению времени за компьютером. Впервые о компьютерной зависимости заговорили в начале 80-х годов американские ученые. День за днём феномен формирования патологической связи между человеком и компьютером становиться очевидным [5,7].

Врачи классифицируют доминирующие симптомы компьютерной зависимости на психологические и физические [6,9].

Психические признаки компьютерной зависимости, в общем, схожи с психическими признаками зависимостей другого типа.

Среди основных психологических признаков нарушения:

-возникновение чувства эйфории во время использования компьютера;
-постепенное увеличение количества времени, проводимого за смартфоном;
-проявление агрессии, если любимая «игрушка» оказывается под запретом;
-постоянно приходящие уведомления от различных интернет-приложений и игр;
-отказ от выполнения уроков;
-пренебрежение необходимостью общаться с родными, друзьями;
-ощущение пустоты, когда приходится сталкиваться с реальным миром.

Подростки в силу возрастной незрелости личности и неустойчивости её структуры наиболее уязвимы для разного рода негативных воздействий[1,6]. Негативные последствия чрезмерной увлеченности подростков Интернетом, охватывают все сферы его жизни. Возникают трудности в учебной деятельности, проблемы общения со сверстниками, возрастает конфликтность в семье, отмечается общая инфантилизация личности[8,9].

Описываемое состояние возникает из-за дефицита общения со значимыми взрослыми и сверстниками. Имеются в виду:

- Неудовлетворительные отношения с родителями. Если подросток чувствует, что он никому не нужен, то пытается погрузиться в виртуальный мир. Здесь на помощь приходит смартфон либо компьютер. Но ясно, что первый проще везде носить с собой.
- Недобросовестное отношение взрослых к своим родительским обязанностям. Многие мамы и папы дают своим детям ноутбуки чуть ли не с первого года жизни. Так им проще отвлечь малыша, когда он капризничает. При этом никто не задумывается, чем чреваты такие действия. А оборачиваются они всегда компьютерной зависимостью, бороться с которой очень непросто.
- Неумение выстраивать здоровые отношения с ровесниками. Очень часто дети хотят занять позицию лидера, но сложившаяся ситуация или определенные природные качества не позволяют им этого сделать. Тогда они начинают постоянно «сидеть» на компьютере. Так ребенок переключает внимание, забывает о своих проигрышах. Более того, в мире интернета он может стать лидером за считанные минуты — игровые персонажи никогда не будут против этого.
- Стремление стать более популярным в кругах сверстников. Чтобы расширить круг друзей, подросток регистрируется в различных социальных сетях, постоянно переписывается с новыми виртуальными знакомыми. Отсюда тоже возникает привычка все время проводить с компьютером.

Стадии и последствия зависимости. Возникновение и развитие компьютерной зависимости у подростков можно разделить на три этапа:

Стадия лёгкой увлеченности

Это начальная стадия, когда у подростка присутствует легкий интерес к играм и интернету. В основном она начинается после того, как ребёнок в первый раз пробует поиграть в компьютерную игру. Ему начинают нравиться компьютерная графика, яркие цвета, сопровождающие звуки, которые имитируют реальную жизнь или популярные фантастические сюжеты. При отсутствии доступа к компьютеру у ребёнка не возникает выраженных негативных эмоций.

Стадия увлеченности

Подросток переходит в эту стадию, когда его увлеченность компьютером постепенно нарастает, и он хочет проводить больше времени в интернете. Можно заметить значительное увеличение времяпровождения в сети (более 3 часов в день).

У подростка снижается уровень мотивации к учёбе, падает успеваемость и повышается эмоциональный тонус во время игры. При отсутствии постоянного доступа к компьютеру, у ребёнка возникают выраженные негативные эмоциональные реакции, которые обычно длятся недолго. В этой стадии ему можно помочь самостоятельно, без помощи психологов или психотерапевтов.

Стадия зависимости

В этой стадии подросток полностью привязан к компьютеру и не контролирует время, проведённое за ним. Желание использовать компьютер становится настолько сильным, что ребёнок перестаёт замечать окружающих людей, включая членов семьи. Появляются более заметные проблемы с учёбой, нерегулярным питанием, пренебрежением личной гигиены и бессонницей. При отсутствии постоянного доступа к компьютеру, ребёнок начинает сильно нервничать, проявляется агрессия, тревога и депрессия.

Если вовремя не заметить изменения в поведение вашего ребёнка, то длительное времяпровождение перед компьютером может привести его к компьютерной зависимости. Физические признаки компьютерной зависимости представлены нарушениями со стороны глаз (ухудшение зрения, дисплейный синдром, синдром «сухого глаза»), опорно-двигательного аппарата (искривление позвоночника, нарушения осанки, болевые ощущения в спине; карпальный синдром, частые головные боли, бессонница, изменение режима сна,вялость в дневное время, пренебрежение правилами личной гигиены),пищеварительной системы (нарушение питания, хронические запоры, геморрой) движениями, такими как чрезмерное использование клавиатуры[5,8]. Компьютерная зависимость не только поражает функциональные системы человека, но и приводит к отставанию в физическом развитии молодого организма. Из-за нерегулярного питания, пропуска приемов пищи у них появляются признаки отставания в физическом развитии.

У компьютерно-зависимых подростков отмечаются асимметрия туловища из-за вынужденной позы перед компьютером с последующим переходом к сколиозу.

У компьютерно-зависимых подростков наблюдаются морфометрические изменение верхней конечности, особенно правой кисти из-за управления компьютерной мышкой (вследствие длительного перенапряжения мышцы кисти приобретают вынужденную форму) и с правой стороны отмечается «куполообразная» кисть с отведением мизинца в сторону.

Таким образом стало понятно, что при компьютерной зависимости бывает не только психологические нарушение или формирование аддиктивного поведения но и патофизиологические процессы которые приводять к патологии.

Литература:

1. Балонов И.М. Компьютер и подросток. М., 2002: 32-58.
2. Мухидова, Г. Х., & Тешаев, Ш. Ж. (2016). Морфометрические особенности параметров физического развития и антропометрических параметров верхней

конечности 13 летных компьютерно-зависимых подростков мальчиков. Problems of biology and medicine (89) 2016г. стр, 52-56.

3. Мухидова, Г. Х. (2021). Сравнительная характеристика компютерно-зависимых компютерно-независимых подростков по антропометрическим показателям. Тиббиётда янги кун, 5, 37.
4. Khasanovna, M. G. (2021). Features of Computer Dependence Comparative Characteristics of Computer-Dependent and Computer-Independent Adolescents by Anthropometric Indicators. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(6), 213-217.
5. Мухидова, Г. Х. (2021). Comparative Characteristics of morphometric parameters of physical development and anthropo extremities of healthy and computer. Research. Jet Journal of Analysis and Inventions-RJAI, 2(9), 14-17.
6. Khasanovna, M. G. (2021). Comparative characteristics of morphometric parameters of physical development and anthropometric data of the upper extremities of healthy and computer-dependent children. Research Jet Journal of Analysis and Inventions, 2(09), 14-17.
7. Мухидова, Г. Х. (2021). Феномен «компьютерной зависимости: особенности интернет зависимости у подростков». Eurasian journal of medical and natural sciences, 22-26.
8. Мухидова Г.Х. “Zamonaviy ta’lim: muammo va yechimlari”. Особенности антропометрических параметров компьютерно-зависимых подростков мальчиков. 2021г стр 49-50.

RADIOAKTIV NURLARNING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Abdullayev Abdurashid Rasulberdi o`g`li,
davolash yo`nalishining 103-gurux talabasi
Ilmiy raxbar: ***Xamroyev Jobir Xolmurodovich***
“Zarmed” Universiteti, Samarqand.

Radioaktiv nurlar, inson organizimiga zararli ta'sir ko'rsatishi, hujayralarga zarar yetkazishi va jiddiy muammolarga olib kelishi bilan birga potentsial xavfini tushunish va inson salomatligi va farovonligini himoya qilish uchun ta'sir qilishni cheklash uchun ehtiyot choralarini ko'rish muhimdir. Bu nurlarning ta'sir qilishi organizmda saraton, genetik mutatsiyalar va boshqa uzoq muddatli nojo`ya ta`sirlar xavfini keltirib chiqaradi hamda ta'sir qilish turi va darajasiga qarab inson tanasiga turli xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Radioaktiv nurlarning uchta asosiy turi mavjud α, β va γ nurlaridir.

2. Lien Ai Pham-Huy, Hua He, Chuong Pham-Huy. Free Radicals, Antioxidants in Disease and Health. // InternatIonal journal of BIomedIcal science. Int J Biomed Sci vol. 4 no. 2 June2008
3. Lobo V., Patil A., Phatak A., Chandra N. Free radicals, antioxidants and functional foods: Impact on human health. // Pharmacognosy Reviews. July-December 2010. Vol 4. Issue 8. DOI:10.4103/0973-7847.70902

QORA SEDANA KUKUNI ASOSIDA MARMELAD TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Sattorova L.H[1], Turayeva S.S[2]

1. *Samarqand sh. Zarmed Universiteti farmatsiya fakulteti 104-guruh talabasi.*
2. *Samarqand sh. Zarmed Universiteti Klinik oldi fanlar kafedrasi o’qituvchisi*
3.

Annotatsiya. Bolalarda immunitet tanqisligi - bu organizmning immun tizimi infeksiyalarga qarshi yetarli darajada javob bera olmaydigan holat. Ushbu kasallik birlamchi va ikkilamchi shakllarda namoyon bo‘ladi. Birlamchi immunitet tanqisligi genetik buzilishlar tufayli tug‘ma shaklda bo‘ladi, bunda immun tizimi rivojlanmagan yoki noto‘g‘ri ishlaydi. Ikkilamchi immunitet tanqisligi esa atrof-muhit omillari, yomon ovqatlanish, surunkali kasalliklar yoki OIV kabi yuqumli kasalliklar tufayli orttiriladi.

Kalit so’zlar: qora sedana, immun tanqisligi, marmelad, texnologiya.

Immunitet tanqisligi bolalarda turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladigan muhim tibbiy holatlardan biridir. Bu holat bolalarning infeksiyalarga nisbatan zaiflashishiga olib keladi, natijada ular tez-tez kasallanishlari yoki uzoq davom etuvchi infektsiyalarni boshdan kechirishlari mumkin. Immun tizimi organizmni turli viruslar, bakteriyalar va zamburug’lardan himoya qiluvchi murakkab mexanizm bo‘lib, uning ishdan chiqishi yoki yetarlicha faoliyat ko‘rsatmasligi turli jiddiy asoratlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Qora sedana immunitet uchun javobgar bo’lgan ayrisimon bezga rag’batlantiruvchi ta’sir ko’rsatadi. Immunitetni mustahkamlash uchun qora sedanani ham terapevtik, ham profilaktik maqsadlarda qo’llash mumkin.

Umumiy mustahkamlovchi ta’siri bilan bir qatorda, qora sedana balg’am ko’chiruvchi, isitma tushiruvchi, yallig’lanishga qarshi, antibakterial va antivirus xususiyatlarga ega bo’lib, shamollash, bronxit, pnevmoniyaga qarshi kurashda samarali bo’ladi.

Bundan tashqari qora sedana bolalarda eng ko’p uchraydigan gelmintlarga qarshi ham qo’llaniladi. Tanani tanani toksinlardan tozalab, ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi bolalarda immunitet tanqisligiga qarshi marmelad texnologiyasini ishlab chiqish.

Natija: Dastlab 4 gr qora sedana kukuni infundir apparatiga solinib, yaxshilab maydalandi. 5 g jelatin 4-10 barobar ko‘p suvda bo‘ktirildi. 30-40 daqiqadan so‘ng qolgan suv solinib 60-70°C da suv hammomida erib ketguncha qizdirildi. Jelatinli aralashmaga qora sedana kukuni eritildi. So‘ngra shisha idishga suzildi. Tayyor aralashmaga asal qo’shib aralashtirildi. Qoliplar moylanib, tayyor aralashma quyilib muzlatgichga qo’yildi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida qora-qo’ng’ir rangli, o’ziga xos ta’mli to’q qo’ng’ir rangli jelesimon marmelad hosil bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimov D; Usmanova N- Bolalarda immunitet tanqisligi; https://doi.org/10.5281/zenodo.14185673.
2. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo’llanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004.
3. Chapel, H., & Haeney, M. (2006). Essentials of Clinical Immunology. Wiley-Blackwell

TONZILIT VA BALG’AM KO’CHIRISHGA QARSHI PASTILKA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Sayfullayeva X.A[1], Turayeva S.S[2].,
Samarqand sh. Zarmed Universiteti farmatsiya fakulteti 103-guruh talabasi.
Samarqand sh. Zarmed Universiteti Klinik oldi fanlar kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya. Tadqiqot natijasida grek yong’og’i va anor po’stlog’i qaynatmasi asosida tonzilit, balg’am ko’chirishga qarshi karamelli pastilkaning tarkibi ishlab chiqildi. Shu bilan birgalikda karamel massasini tayyorlash, uni dori vositasiga qo’shish usuli va pastilkaning texnologik sxemasi taklif qilindi.

Kalit so’zlar. Pastilka, grek yong’og’i, anor po’stlog’i, qaynatma, tanin, oshlovchi moddalar.

Kirish. Yuqori nafas yo‘llari kasalligiga kiruvchi tomoqning bakterologik va virusli yallig‘lanishi, tonzillit, faringit, gripp (o‘tkir respirator yuqumli kasalliklari), allergik yo‘tal kabi kasalliklarning asorati kuchli og‘riqli surunkali yo‘tal hisoblanib, aholi o‘rtasida hozirgi kunda ko‘p tarqalgan.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga qaraganda tonzilit, tomoqning yalig‘lanishi natijasida yer yuzining 10-15% aholisi, shu qatorda 20-25% yosh bolalarning kasallanishi kuzatiladi. Bunday xastalikka yaxshi e'tibor berilmaslik oqibatida 99% rivojlanayotgan davlatlarda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yuqori nafas yo‘llarining o‘tkir yallig‘lanishi natijasida pastki nafas yo‘llariga tasir qilib o‘lim holatlari kuzatilgan [1].

Hozirgi kunda dorivor vositalarni ishlab chiqarishda o‘simlik xom ashyolaridan foydalanish sintetik dori vositalarga alternativ vosita sifatida ko‘p uchraydi. O‘simlik xom ashyolari asosida preparatlarining farmakologik ta'siri sintetik dori vositalarnikidan qolishmaydi va salbiy ta'siri nisbatan kam hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 112 turdagi dorivor o‘simliklar o‘sadi, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida qo‘llaniladi [2].

Pastilka dori shakli qadim zamonlardan beri (miloddan avvalgi 1000 yil) tomoq infeksiyalarini davolash uchun qo‘llanilgan. Bu vositaning dastlabki ko‘rinishi Misrda asal, dorivor o‘tlar, sitrus mevalari va ziravorlar kabi turli xil mahsulotlardan foydalangan holda tayyorlangan. Ushbu pastilkalar 1852 yilda Smith Brothers va 1879 yilda Luden tomonidan o‘zgartirilgan. Pastilkalarining samaradorligini oshirish uchun ularning tarkibiga oz miqdorda geroin va morfin qo‘shilgan [3].

Tadqiqot materiallari va usullari. Anor po’stlog’i va grek yong’og’i bargidan 1:10 nisbatda qaynatma olish uchun AU-3 (Rossiya) infundir apparatidan foydalanildi. Pastilkaning o‘rtacha og‘irligini aniqlash uchun VK-300.1 elektron tarozidan foydalanildi. Pastilkalarning tanin miqdori permangonatometriya usulida, tayyor mahsulotning namligi Xitoyning “MB35” Ohaus Corp. uskunasida aniqlandi.

Natijalar. Tadqiqotning dastlabki bosqichida anor po‘stlog‘i (Punica Granatum L.) xom ashyosini tayyorlashdan boshlandi. Anorning nordon ta'mli qattiq po‘stlog‘li “tuya tish” navida tanin miqdori ko‘p bo‘lganligi sababli, shu nav tanlab olindi. Ikkala o’simlik po‘stlog‘i ajratib olinib, xona xaroratida quritilgandan so‘ng, infundir apparatida 1:10 nisbatda qaynatma tayyorlandi. Qaynatma asosida karamelli pastilka tayyorlandi. Shakar qiyomining qovishqoqligi ortib ketmasligi maqsadida tarkibiga olma sirkasi qo‘shildi. Karamelli pastilkamiz qoliplarga quyish usulida tayyorlandi. Qoliplar tozalandi va pastilkalarni qolibdan yaxshi ajralishi uchun o‘simlik moyi bilan moylandi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida anor po‘stlog‘i va grek yong’og’i qaynatmasidan karamelli pastilkaning ortimal tarkibi tanlandi, hamda texnologiyasi ishlab chiqildi. Olingan pastilkaning sifati baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Iskandarova Sh.F, Zohidova N.F. Oddiy anor (Punica granatum L.) po’stlog’i asosida yo’talga qarshi karamelli pastilka tarkibini va texnologiyasini ishlab chiqish. Farmatsiya va farmakologiya №1 (7) - 2024
2. S. M. Aliqulov, I. M. Rasulov, F. X. Abdullaev, X. Yu. Nazarmetov. Dorivor o‘simliklar xalqimizning tabiiy boyligidir. Multidisciplinary Scientific Journal. Volume 3 | Issue 5 | 2022 984- 990 b.
3. R. Axmedova Sredstva vozdeystviya na tannin v granatovom soke i kojure. Pishevaya promishlennost\\ 2\\ 2016. – S. 36-38

BO’ZNOCH O’SIMLIGI ASOSIDA ASAB TIZIMI KASALLIKLARIDA QO’LLANILUVCHI QURUQ EKSTRAKT TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Suvonova D.P[1], Turayeva S.S[2]
Samarqand sh. Zarmed Universiteti farmatsiya fakulteti 102-guruh talabasi.
Samarqand sh. Zarmed Universiteti Klinik oldi fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda asab tizimi bilan bog'liq kasalliklar soni ortib bormoqda. Asab kasalliklari inson salomatligi va hayoti uchun juda xavflidir. Ko’pincha bu kasallik yurak bilan bog’liq bo’lgan boshqa alomatlarini ham olib kelishi mumkin. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, nevrologiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu insult va asab tufayli kelib chiqadigan boshqa yurak kasalliklarining oldini olishdir.

Kalit so’zlar. Stress, asab, etil spirti, bo’znoch guli, ekstrakt.

Qumloq bo’znochi (Helichrysum arenarium L.) gullari tibbiyotda juda ko’p maqsadlarda ishlatiladi. Gullari tarkibida flavonoidlar (naringenin, apigenin, kempferol) kumarinlar, organik kislotalar, polisaxaridlar, efir moyi, vitamin K, oshlovchi moddalari, vitamin C va hok. bor.

Gulining dorivor preparatlari (qaynatma, tabletka holidagi quruq kontsentrati-flamin quruq ektsrakti va o‘t xaydovchi yig‘ma –choy tarkibida) jigar (sariq) kasalligi, xronik xoletsitsit va boshqalarda o‘t-tosh, o‘t yo‘llari kasalliklarida o‘t xaydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Gulining flavonoidlar –arinarindan tayyorlangan surtmasi ko‘z kasalliklari (ko‘z shikatslanishi, ko‘z shox pardasining yarasi, kuyish) va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Ilmiy ishning maqsadi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi- Bo'znoch (Helichrysum arenarium) asosida quruq ekstrakt olishning optimal texnologiyasini ishlab chiqish.

Natija. Bo’znoch gullari maydalandi. So’ngra 30 gr tortib olinib, ajratuvchi quyildi (etil spirti 40-60% li, tozalangan suv). Bu jarayon oynasimon yuza hosil bo’lguncha olib borildi. Shunda birinchi jarayonda 245 ml ajratuvchi, ikkinchi jarayonda 190 ml ajratuvchi, uchinchi jarayonda 160 ml ajratuvchi ketgani ma’lum bo’ldi. Perkolyatordagi ajratuvchi quyilgan xom ashyo 24 soatga qoldirildi. So’ngra suyuq ajratma qurutildi. Buning uchun ajratmani suv hammomida bug’latildi. Qurigan kukunsimon modda idishdan qirib olinib, miqdoriy tahlil uchun olib qo’yildi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida to’q sariq rangli, o’ziga xos hidga va ta’mga ega bo’lgan quruq ekstrakt olindi. Ekstrakt olish uchun ajratuvchi sifatida 60 % li etil spirtdan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shodmonova D.B; Namozov I.F; Sayitqulova X.F- Qumloq bo’znochi (Helichrysum arenarium L) o’simligi morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo’llanilishi. ISSN: 2181-4554. Volume II, Issue-4, (April) 2024Journal homepage: https://inashr.uz/index.php/bocs.
2. H.Xolmatov, O‘.Ahmedov. Farmakagnoziya.Farmasevtika bilim yurti talabalari uchun o‘quv adabiyoti (III nashri). Toshkent Abu Ali ibn Sibo nomidagi tibbiyot nashiryoti 1997 yil. (349-350-bet)
3. M.M. Mirolimov, X.Q. Abdullayeva, Z.Ya. Mamatmusayeva, N.A. Azimova. Farmatsevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo’llanma. Toshkent.:Abu Ali ibn Sino, 2004

JIGAR SIRROZINI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUV

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2-son Davolash ishi fakultetining 5-bosqich talabasi.
doctorfazliddinov1@gmail.com
Ilmiy rahbar: ***Islamova Kamola Akramovna.***
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 1-son ichki kasalliklar kafedrasi dotsenti, PhD
Samarqand, O‘zbekiston

Ishning maqsadi: Jigar sirrozi kasalligida oshqozon-ichak trakti o‘zgarishlari va hazm buzilishlarini aniqlash, hamda bu o‘zgarishlarning davolashda dori vositalarning ahamiyatini o‘rganish.

Tekshirish materiali va usullari: Tadqiqotlardan virus etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan 59 bemor o‘tkazildi. Ko‘zatuvlarimizda 59 bemordan 41 nafari virusli gepatitning V shaklini, 8 nafari A shaklini o‘tkazganlarini ta’kidlasalar, 10 bemor - virusli gepatitning qaysi shakli bilan kasallanganligi aniq bilmadilar. O‘tkazilgan virusli gepatitdan keyin jigar sirrozining kelib chiqish davomiyligi 7,6±0,6 yilni, kasalligining o‘rtacha davomiyligi esa 1,3±0,2 yilni tashkil etdi. Tekshiruvlarimizda erkaklar ko‘p bo‘lib, ular 33 kishidan (56,0%), ayollar esa 26 kishidan (44,0%) iborat edilar. Bemorlar yoshiga ko‘ra, 6 (10,1%) bemor - 14-20 yoshda, 36 (61,0%) bemor - 21-50 yoshda, 17 (28,9%) bemor - 51-68 yoshda edilar. Jins va yoshga ko‘ra, ayollar va erkaklar orasida kasallik eng ko‘p 31-50 yoshda aniqlandi va bemorlarning o‘rtacha yoshi - 40,5±1,9 yilga yilga teng bo‘ldi. CHayld (1979) mezonlariga ko‘ra, 22,0% bemorda kasallikning dastlabki (A) bosqichi, 45,8% bemorda - ifodalangan sirroz (V) bosqichi va 32,2% bemorda - kechki sirroz (S) bosqichi kuzatildi.

Barcha bemorlar qabul qilingan standartlar asosida klinik, laborator va instrumental tekshiruvlardan o‘tkazildi. Jigar sirrozi tashxisi dispepsik, sitolitik, gemorragik, xolestatik, gepato- va splenomegaliya, portal gipertenziya, assitik, asteno-vegetativ sindromlarning klinik, laborator va instrumental belgilari asosida qo‘yildi.

Olingan natijalar: Tekshiruvlarimizda jigar sirrozi kasalligida eng ko‘p rivojlanadigan belgilaridan biri – dispeptik sindrom (74,6%) ekanligi aniqlandi. Qorin sohasida diskomfort bo‘lishi (23,7%), o‘ng qovurg‘a sohasida og‘riq (16,9%), yog‘liq ovqatlarni hazm qila olmaslik (38,9%), qabziyat (16,9%), kungil aynishi (59,3%), kekirish (54,2%), qo‘sish (10,1%), meteorizm (74,6%) kabi shikoyatlar dispetik sindromga xos bo‘ldi. Hazm jarayoniga aloqador boshqa belgilardan kasallik 28,8% bemorlarda malabsorbsiya, 32,2% - ichak ta’sirlanishi, 23,7% - anorektal sindrom va 15,3% - vitamin etishmovchiligi sindromi belgilari bilan ham kechdi. Hazm jarayonning aniq ifodalangan buzilishi (maldigestiya) belgilari 15,3% - engil darajada (bir sindrom), 11,8% - o‘rta darajada (ikki sindrom), 8,5% – og‘ir darajada (uchta sindrom) va 5,1% - o‘ta og‘ir darajadagi kechishigaga ega bo‘ldi.

Jigar sirrozi kasalligini davolash prinsiplari jigar metabolizmini yaxshilash, assit va shishni kamaytirish, portal gipertenziya darajasini pasaytirish, ichak funksional holatini yaxshilash va yo‘ldosh kasalliklarni davolashni o‘z ichiga oldi. Bizning ko‘zatuvimizdagi bemorlarni davolashda bemorlarga 5-parhez stoli tayinlanib, medikamentoz davo muolajalaridan – gepatoprotektorlar, vitaminlar, oqsil preparatlari, detoksikatsion moddalar, beta-blokatorlar, diuretiklar va «jigar damlamalari» ishlatildi.

Hazm jarayonini yaxshilash maqsadida ko‘rsatmaga ko‘ra, fermentativ preparatlar, disaxaridlar, biologik bakterial preparatlar - laktobakterin, baktisubtil, lineks va probiotik – xilak forte qo‘llanildi. Biologik bakterial preparatlar, probiotiklar, fermentativ preparatlar qo‘llanishiga

ko‘ra bemorlar 2 guruhga bo‘lindi: I gurux (31 bemor) tekshiruvchilariga bu preparatlar tegishli ko‘rsatmalarga ko‘ra, qabul qilingan dozalarda tavsiya etildi. II gurux tekshiriluvchilarga (28 bemor) bakterial preparatlar, probiotiklar va fermentlar tavsiya etilmadi. Davo natijalari 10-15 kunlar oralig‘ida baholandi. Davolash natijalari «yaxshi» (simptomlar yo‘qolib, axlatda hazm bo‘lmagan mushak va biriktiruvchi to‘qima elementlari topilmaganda), «qoniqarli» (simptomlar va axlatda hazm bo‘lmagan elementlar kamayganda) va «qoniqarsiz» (klinik va laborator o‘zgarishlar ijobiy o‘zgarmaganda) tarzda baholandi.

Jigar sirrozini kompleks davolashda bakterial preparatlar, probiotiklar va fermentlar qo‘shish (I guruxda) dispeptik sindromning klinik va laborator belgilarining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ldi. Davolash natijasida qorin qo‘ldirashi belgilari 4-6 kun, meteorizm belgisi - 7-8 kun, kindik va chambar ichak sohalarida og‘riq simptomi - 8-9 kun, qabziyat belgilari - 10-11 kun, diareya - 3-4 davomida kamayib, aksariyat bemorlarda bu belgilar tekshiruv oxirida ko‘zatilmadi. Asosiy guruxdagi 31 bemor axlatining tahlili, ulardan 21 nafar bemorda hazm bo‘lmagan mushak, qo‘shuvchi tola, hamda steatoreya belgilarini aniqlashga imkon berdi. Ushbu 21 bemordan 14 bemor axlatining davolashdan keyingi qayta tekshiruvida hazm bo‘lmagan elementlar aniqlanmadi, 4 bemorda – qisman aniqlandi va 3 bemorda – hazm bo‘lmagan elementlar saqlanib qoldi. Koprologik tekshiruvda – 87,5% ijobiy natija aniqlandi. Umuman, I guruxda klinik va koprologik «yaxshi» natija 31 bemordan 18 bemorda (58,0%), «qoniqarli» natija – 9 bemorda (29,0%),«qoniqarsiz» natija – 4 bemorda (13,0%) qayd etildi.

Nazorat guruxida (II gurux) dispeptik belgilarning kamayishi sekinlik bilan bordi va aksariyat bemorlarda ushbu belgilar tekshiruv oxirida ham ko‘zatildi. Nazorat guruxdagi 28 bemor axlatining tahlili, ulardan 7 nafar bemorda hazm bo‘lmagan mushak, qo‘shuvchi tola, hamda steatoreya belgilarini aniqlashga imkon berdi. Davolashdan keyingi dinamik tekshiruvda faqat 2 bemor axlatida hazm bo‘lmagan elementlar aniqlanmadi va 1 bemorda – hazm bo‘lmagan elementlar qisman saqlanib qoldi. Davodan keyin 4 bemorda – hazm bo‘lmagan elementlar umuman yo‘qolmadi va bu guruxda 42,9% koprologik ijobiy natija aniqlandi. Davolash natijalari nazorat guruhida 28 bemordan 12 (43,0%) bemorda «yaxshi», 7 (25,0%) bemorda – «qoniqarli» va 9 (32,1%) bemorda –«qoniqarsiz» sifatida baholandi. Jigar, o‘t yo‘llari, oshqozon osti bezi, ovqat hazm qilish trakti uzviy ravishda funksional bog‘liqligi sababli, ushbu tizimdagi biror organning o‘zgarishi boshqalarining faoliyatiga ham ta’sir etadi. Oshqozon-ichak trakti jigar sirrozida eng ko‘p va chuqur o‘zgarishga uchrovchi tizim hisoblanadi. Portal gipertenziya, dimlanish, assit, jigar etishmovchiligi tufayli hazm jarayoni chuqur izdan chiqadi, hazm trakti shilliq qavatida distrofik va atrofik o‘zgarishlar rivojlanadi va bu o‘zgarishlar o‘z navbatida jigar faoliyati buzilishlarini yanada chuqurlashuviga olib keladi.

Xulosalar:

1. Jigar sirrozi kasalligida bemorlarni tekshirish standartlariga oshqozon-ichak trakti funksional holati va hazm buzilishlarini o‘rganishga qaratilgan anketa savollari, proktologik surovnoma, axlatning makroskopik, mikroskopik tekshiruvlari va mikrobiologik ekish usullarini qo‘shish lozim.
2. Hazm va defekatsiya buzilishlari, maldegistiya va disbakterioz darajalari kasallikda CHayld buyicha og‘irlik darajasiga mos keladi va kasallikning oqibatlarini aniqlovchi omil bo‘lishi mumkin.
3. Kasallikda traditsion terapiya bilan birgalikda hazm jarayonini yaxshilash maqsadida fermentativ preparatlar - mezim, festal, kreon, pankreatin, panzinorm, disaxaridlar – dyufalak, laktuloza, floralek, hazm trakti batsillalari aralashmalari, probiotiklar – laktobaktrim, xilak forte kabi dori vositalarini keng qo‘llash lozim.

FARMASIVTIK KIMYO VA TIBBIYOTDA YANGI ANTIMIKROBIAL BIRIKMALAR SINTEZ QILISHNING BIOLOGIK YO`LLARI

Annayeva Dilobar G`iyos qizi,
Mamadoliyev Ikromjon Ilxomidinovich
Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Samarqand filiali.
ikromjon.mamadoliev@mail.ru

Annatotsiya: Ushbu maqola biologik yo‘llar orqali yangi antimikrobial birikmalarni sintez qilishning afzalliklari va metodlarini tahlil qiladi. Fermentativ sintez va bakteriyalarni genetik modifikatsiya qilish kabi metodlar orqali samarali antimikrobial moddalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlar biologik sintezning mikroorganizmlarga qarshi chidamlilikni kamaytirishga yordam berishini va yangi antimikrobial moddalarning yaratish zaruratini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar. Atimikrobial birikmalar, biologik sintez, fermentativ sintez, genetik modifikatsiya, antibiotiklar, bioteknologiya, bakteriyalar, zamburug‘lar.

Antimikrobial birikmalar sintezi tibbiyot sohasida muhim tadqiqotlar ob’ekti bo‘lib, ular infeksiyalarni davolashda keng qo‘llaniladi. Bugungi kunda mikroorganizmlar, xususan bakteriyalar va zamburug‘lar, antimikrobial preparatlarga nisbatan chidamlilikni rivojlantirib bormoqda, bu esa yangi, samarali antimikrobial birikmalarni sintez qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Biologik yo‘llar orqali antimikrobial birikmalarni sintez qilish, tabiiy manbalarni va biologik jarayonlarni asos qilib olib, samarali va yangi moddalarning yaratilishiga imkon beradi. 1. Biologik yo‘llar orqali antimikrobial birikmalarni sintez qilishning afzalliklari. Biologik sintez metodlari ko‘plab afzalliklarga ega, jumladan: Tabiatga yaqinligi: Biologik jarayonlar ko‘pincha atrof-muhitga zarar yetkazmaydi va tabiiy resurslardan foydalanadi. Selektivlik: Biologik tizimlar yuqori darajadagi selektivlikka ega bo‘lib, faqat kerakli birikmalarni sintezlaydi.Yuqori hosildorlik: Biologik tizimlar tez va samarali tarzda antimikrobial birikmalarni ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘p qirrali yondashuv: Biologik sintez orqali bir nechta birikmalarni parallel tarzda olish mumkin. 2. Antimikrobial birikmalarni biologik yo‘l bilan sintez qilish metodlari. Biologik yo‘llar orqali antimikrobial birikmalarni sintez qilish uchun bir nechta metodlardan foydalaniladi. Ulardan ba'zilari quyidagilar: 2.1. Fermentativ sintez. Fermentativ sintezda, mikroorganizmlar yoki fermentlar yordamida antimikrobial birikmalar ishlab chiqariladi. Bu jarayonda mikroorganizm yoki ferment birikmaning sintezini katalizlaydi, bu esa uni iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza qiladi. Masalan, Penicillium turdagi zamburug‘lar antibiotiklar, masalan, penitsillin ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. 2.2. Bakteriyalarni genetik modifikatsiya qilish. Genetik modifikatsiya yordamida, ba'zi bakteriyalarga antimikrobial birikmalar ishlab chiqarish uchun kerakli genlar kiritiladi. Bu jarayon yangi birikmalarni yaratish imkonini beradi va ularni samarali tarzda ishlab chiqarish imkoniyatini oshiradi. Masalan, genetik modifikatsiya yordamida Streptomyces turidagi bakteriyalarni antibakterial birikmalarni ko‘paytirishga moslashtirish mumkin. 3. Yangi antimikrobial birikmalarni biologik yo‘llar bilan yaratishdagi tendensiyalar. Hozirgi vaqtda biologik yo‘llar bilan yangi antimikrobial birikmalarni sintez qilish bo‘yicha bir nechta muhim yo‘nalishlar mavjud: Biotexnologik yondashuvlar: Yangi fermentlar, genetik modifikatsiya qilingan mikroorganizmlar va sintetik biologiya yordamida yangi antimikrobial birikmalar ishlab chiqarish. Turli tadqiqotlar va maqolalarda biologik yo‘llar orqali antimikrobial birikmalarni sintez qilishning samaradorligi va imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan. Misol uchun, Nagasaki va boshqalar (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda fermentativ sintezning antibakterial va antifungal ta'sirga ega yangi birikmalar ishlab chiqarishga qaratilgan

usullari o‘rganilgan. Shuningdek, Kumar va hamkasblari (2021) o‘z tadqiqotlarida genetik modifikatsiyalangan bakteriyalar orqali yangi antibiotiklarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishgan.

5. Xulosa

Biologik yo‘llar orqali antimikrobial birikmalarni sintez qilish zamonaviy farmatsevtika va tibbiyot sohasida muhim o‘rin tutadi. Bu metodlar orqali samarali va tabiiy antimikrobial moddalarning ishlab chiqarilishi, mikroorganizm va zamburug‘larning dorilarga qarshi chidamliligini engishga yordam beradi. Tadqiqotlar, shuningdek, yangi bioteknologik yondashuvlar orqali antimikrobial moddalarning sintezini takomillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatmoqda.

Adabiyotlar ro`yxati.

1. Nagasaki, Y., et al. (2022). *Fermentative production of novel antimicrobial compounds: A biotechnological approach*. Journal of Microbial Biotechnology.
2. Kumar, S., et al. (2021). *Genetically modified bacteria for enhanced antimicrobial production*. Journal of Antibiotics.
3. Smith, T., & Allen, C. (2019). *Biological synthesis of antimicrobial peptides and their therapeutic applications*. International Journal of Antimicrobial Agents.

TABOBATDA GIDROFIL O’SIMLIKLARNING, JUMLADAN QAMISHNING AHAMIYATI

Muminov S.R[1], Azzamov U.A[2]
1. Zarmed Universiteti Tibbiy biologiya, biologik fizika, mikrobiologiya va tibbiyotda IT kafedrasi o'qituvchisi:
2. Zarmed Universiteti Tibbiy biologiya, biologik fizika, mikrobiologiya va tibbiyotda IT kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Tabobatda ham qamishdan keng foydalaniladi. Qamish yara-chaqalarni tuzatishda, bakteriyalarni o‘ldirishda, peshob haydashda, qon to‘xtatishda va terlashga qarshi kurashishda samarali vosita.

Kalit so'zlar: Sellyuloza, lignin, ksilans, peshob, zararkunanda, organik

Par yoki qaynoq suvdan kuygan joylarga qamish poyasi qo‘yilsa, tezda yaxshi qiladi. Bunda qamish poyasi yaxshi qurigan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga o‘zidan tabiiy hid chiqarib, asablarni tinchlantiradi. Zararkunandalardan himoyalaydi. Buning uchun qamishning kulrang donli meva poyasini olib tutatiladi. Uning tutuni pashsha va shu turdagi hasharotlardan himoya qiladi. Qamishdan yasalgan bo‘yra esa burga va kanalardan asraydi. Qamish bo‘yra sifatida to‘qilganda ham o‘zidan hid chiqarib turadi va zararkunandalarni haydaydi.Qamishning tabiiy shifobaxsh xususiyatlari ham e'tiborga loyiqdir, masalan, oyoq kasalliklarini davolashda, terlashga qarshi kurashishda va yaralarni tezda tuzatishda foydalaniladi.Qamishning kimyoviy tarkibi asosan uning o'sish sharoitiga va turi turlicha bo'lishi mumkin, ammo umumiy ravishda uning asosiy kimyoviy komponentlari quyidagilarni tashkil etadi. Qamishning poyalari va barglari asosida katta miqdorda sellyuloza mavjud. Bu o'simlik materialining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning mustahkamligini ta'minlaydi. Sellyuloza, odatda, o'simliklar tomonidan ishlab chiqarilgan va ularning hujayra devorlarini tashkil etuvchi asosiy organik birikmadir. Qamishda sellyuloza tarkibi odatda 35-45% atrofida bo'ladi.

Lignin qamishning ikkinchi eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu moddalar o'simlikning mexanik mustahkamligini ta'minlaydi va uning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Lignin o'simliklar va daraxtlarning tuzilishiga kuchli qarshilik ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Qamishdagi lignin miqdori taxminan 10-20% bo'lishi mumkin. Ksilans - bu boshqa bir polisakkarid turidir, u qamishning poya va ildizlarida mavjud. Ksilans o'simlik hujayralarining elastikligini oshiradi. U tarkibida oligosakkaridlar mavjud bo'lib, ular o'simliklarning strukturasini mustahkamlashga yordam beradi. Qamishning o'simliklarida silitsiy moddasi ham mavjud. Bu modda o'simlik hujayralarida ko'p miqdorda bo'lib, ular kuchli va bardoshli bo'lishini ta'minlaydi. Silitsiyning miqdori o'simlikning turiga qarab o'zgaradi, ammo u o'simlikni kasalliklar va zararkunandalar bilan kurashishda yordam berishi mumkin. Qamishda turli minerallar ham mavjud. Ular o'simlikning rivojlanishi uchun zarurdir. Bularning eng muhimi — kaliy, kalsiy, magniy, natriy va fosfor. Bu elementlar o'simlikning metabolizmida, suv va oziqa moddalarining harakati va so'rilishida muhim rol o'ynaydi.

XXI ASR BIOTIBBIYOTI: YUTUQLAR VA RIVOJLANISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

***

BIOMEDICINE OF THE XXI CENTURY: ACHIEVEMENTS AND PERSPECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT

***

БИОМЕДИЦИНА XXI ВЕКА: ДОСТИЖЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

ZAHM (SIFILIS) KASALLIGINGING DIAGNOSTIKASI: TO'LIQ TIBBIY YONDASHUV

Kamalov Furqat Qodirovich
O'zbekiston Resbublikasi Quroli Kuchlar
Harbiy Tibbiy Akademyasi dermatologiya fani 2- bosqich ordinatori

Kirish. Sifilis Treponema pallidum nomli spiroxe turkumiga mansub sababli yuzaga keluvchi, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan (JYYUK) surnkali yuqumli kasallikdir. Agar o'z vaqtida yordam yilga yordam davolanmasa, ko'p vaqt davomida inson organizmiga jiddiy zarar etkazishi. Diagnostika bu qurilmada qanday yordam beradi. Bemor zaxm tarqatadigan manbadir; u sog‘lom kishi bilan o‘pishganda, jinsiy aloqa qilganda yoki uning idish tovoqlaridan foydalanganda kasallik yuqadi. Keyingi yillarda qon quyish yo‘li bilan ham (transfuzion) zaxm yuqish hollari ahyonda kuzatiladi. Oqish treponema teriga yoki shilliq pardaga kirgach, tez ko‘payadi va limfa tomirlari orqali butun organizmga tarqaladi.

Zaxm bilan kasallangan odam avval o‘zini mutlaqo sog‘lom sezadi, 3—4 haftadan keyin (yashirin – inkubatsion davr tugagach) oqish treponemalar kirgan joyda zaxmning birinchi belgisi – og‘rimaydigan birlamchi sifiloma (qattiq shankr) paydo bo‘ladi. Bemor furunkulyoz, o‘pka yallig‘lanishi, angina, so‘lak va boshqa kasalliklar sababli biror antibiotik bilan davolangan bo‘lsa, zaxmning yashirin davri ancha cho‘zilishi mumkin. Bunday hollarda antibiotikning tegishli dozasi treponemalarni yo‘q qila olmay, ularning rivojlanishini bir oz to‘xtatib qo‘yadi, natijada yashirin davr ancha cho‘zilib ketishidan tashqari, kasallik boshqacha kechishi mumkin.

Qattiq shankr paydo bo‘lishi bilan zaxmning birinchi davri boshlanadi: yara (shankr)ga yaqin limfa tugunlari yallig‘lanib shishadi, kattalashadi va bir oz qattiqlashadi; ko‘pincha darmon quriydi, isitma chiqadi, bosh og‘riydi, ayniqsa kechasi suyaklar qaqshab og‘riydi, uyqusizlik kuzatiladi. Bu davr 6-9 hafta davom etadi va o‘z vaqtida davo qilinmasa, ikkinchi davriga o‘tib ketadi: og‘iz shilliq qavati, jinsiy a’zolar, qo‘l, oyoq va badanda dog‘, tuguncha va hakozo ko‘rinishida katta-kichik, rang-barang toshmalar (yiringli tugunchali) paydo bo‘ladi; ko‘pchilik bemorlarning sochi to‘kila boshlaydi, suyak, bo‘g‘im, muskul, qon tomirlar, yurak, ko‘z, quloq, ichki a’zolar va nerv sistemasi zararlanishi mumkin.

Bu davrda bemor atrofdagilar uchun o‘ta xavfli hisoblanadi. Ikkinchi davr boshida paydo bo‘lgan toshma hech qanday davo qilinmasa ham, bir qancha vaqtdan keyin butunlay yo‘qolib ketadi; bemor o‘zini sog‘lom sezib, hech narsadan shikoyat qilmaydi, lekin bu bemorning dardi aridi va u atrofdagilarga kasallik yuqtirmaydi, degan gap emas. Bu faqat zaxmning latent yoki yashirin davri, xolos. Bemor qunt bilan davolansa, sog‘ayib ketadi.

Davo qilmay qo‘ysa, kasallik to‘satdan qaytalanib (retsidiv), ikkinchi davrning hamma belgilari namoyon bo‘ladi va bir qancha vaqtdan keyin ular yana yo‘qoladi. Bu jarayon bir necha marta takrorlanishi mumkin. Har galgi qaytalanish oldingisidan faqat kam toshma toshishi bilan farq qiladi. Bemor vrach aytganlarini qilmasa, spirtli ichimliklar iste’mol qilsa, taxminan 3-5 yildan keyin ikkinchi davr zaxmning oxirgi, uchinchi davriga o‘tadi: olcha danagidek do‘mboqchalar yoki tuxumdek, ba’zan undan kattaroq gummalar paydo bo‘lib, to‘qimalarni yemiradi, yaraga aylanadi va chandiqlanib bitadi. Kasallik oqibati gummalar o‘rnashgan joyga bog‘liq.

Miya, yurak, tomir, jigar kabi hayot uchun muhim a’zolar zararlansa, bemor hayoti xavf ostida qoladi; yuz zararlangan bo‘lsa, burun skeleti yemirilib, bemor badbashara, burni egarsimon bo‘lib

qoladi. Harakat, ko‘ruv, eshituv a’zolari, nerv sistemasining zararlanishi kishini umrbod mayib qilib qo‘yadi.

Zaxm hamma vaqt ham uchinchi davrga o‘tavermaydi. Bemor kasallikning birinchi davrida davolana boshlasa, ikkinchi davri paydo bo‘lmay tuzalib ketadi. Bemor vaqtida davolanmay, kasalligini o‘tkazib yuborsa, zaxmning uchchala davri birin-ketin ro‘y beradi. Zaxmning birinchi davridayoq nerv sistemasi zararlanadi, lekin bu uchinchi davrda juda og‘ir o‘tadi – orqa miya so‘xtasi va avj oluvchi falajga sabab bo‘ladi; bunda yangi davo vositalari ham bemorga foyda bermay qo‘yadi.

Xulosa. Zahm kasalligi yukori xavfga ega infektsion kasallik bo'lib, erta va yordam qo'yish jamiyat va individual sog'ligi uchun sizga kerak. Serologik testlarni tanlash va interpretatsiya qilish shifokorlar uchun professional kompetentsiya bo'lib, davolash yaralarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

KO‘KYO‘TAL (KOKLYUSH) KASALLIGINING MIKROBIOLOGIK DIAGNOSTIKASI

Gaybullayeva F.I.
Klinik oldi fanlar kafedrasi
SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI

Ko‘kyo‘tal (lat. Pertussis) — juda yuqumli bakterial nafas yo‘llari infeksiyasi bo‘lib, uning sababchisi Bordetella pertussis nomli bakteriyadir. Asosan bolalar orasida keng tarqalgan bo‘lib, kuchi shiddatli yo‘tal xurujlari bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu kasallikning barvaqt va aniq diagnostikasi epidemiologik nazorat hamda samarali davolash uchun juda muhim.

Etiologiya Ko‘kyo‘talni keltirib chiqaradigan asosiy mikroorganizm:

Bordetella pertussis – grammanfiy, aerob, juda kichik tayaqchasimon bakteriya. Fakultativ patogen hisoblanadi va nafas yo‘llarida parenximal to‘qimalarga joylashadi. Mikrobiologik diagnostika usullari

1. Bakteriologik (kultura) usul

Mahsuli: burun-tomoq soha va traxeyadan olingan shilliq namunalar.

Olib borish usuli: Petri chashkasida maxsus selektiv muhit — Borde-Jangu muhitida yoki Rigan-Lou muhitida 5-7 kun inkubasiya qilinadi.

Natija: B. pertussis koloniyalari mayda, mahin, nuqtasimon ko‘rinishda bo‘ladi.

E'tiborga olish kerak: bakteriya tashqi muhitga juda nozik, tez halok bo‘ladi. Namunalarni tezlik bilan laboratoriyaga etkazish lozim.

2. Serologik usullar

Ajratiladigan modda: bemor qonidagi antigen yoki antitanachalar.

Qo‘llaniladigan testlar:

IFA (immunoferment tahlil)

RNGA (rezusiya neytralizasiya qilish analizi)

LAT (lateks-agglyutinasiya test)

Ahamiyati: kechikkan bosqichlarda ham infeksiya aniqlanishi mumkin.

3. Molekulyar-genetik diagnostika

PCR (Polimeraz zanjir reaksiyasi) — hozirgi kunda eng ishonchli va tezkor usul hisoblanadi.

Afzalligi: B. pertussis DNK fragmentlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri namunada aniqlash imkonini beradi.Qisqa vaqtda natija: 24-48 soat ichida natija olish mumkin.

4. Immunofluoressent usullar (IFU) Maxsus fluoressent antidenalar yordamida bakteriyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishi. Kamroq ishlatiladi, ammo tezkor usul sifatida ahamiyatli.

Diagnostika uchun namunalar olish usuli

Nozofaringeal tampon — standart namuna olish usuli.

Tampon alginat yoki dakronli bo‘lishi kerak (paxta – B. pertussis ni yo‘q qiladi).

Namunani sovuq zanjirda laboratoriyaga etkazish zarur.

Xulosa: Ko‘kyo‘tal kasalligining aniq va barvaqt mikrobiologik diagnostikasi infeksiyani erta aniqlash, bemorni izolyasiya qilish va epidemiologik choralarni ko‘rish uchun juda muhim. Klassik bakteriologik usullar bilan birga, zamonaviy PCR va serologik testlardan foydalanish tavsiya etiladi.

HAVO-TOMCHI YO‘LI ORQALI TARQALADIGAN MIKROBLAR: ULARNING AHAMIYATI VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Kurbanova F.N.
Klinik oldi fanlar kafedrasi
SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI

Mikrobiologiya fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri — inson organizmiga ta'sir qiluvchi patogen mikroorganizmlarni o‘rganishdir. Havo-tomchi yo‘li orqali tarqaladigan mikroblar infeksiya kasalliklarining keng tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Bu mikroorganizmlar nafas olish orqali inson organizmiga kirib, turli xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Havo-tomchi yo‘li — bu mikroorganizmlar inson yoki hayvon nafas olish, yo‘talish yoki aksirash paytida havoga chiqariladigan mayda tomchilar orqali tarqalish yo‘lidir. Bu tomchilar boshqa insonlar tomonidan nafas orqali yutiladi va infeksiya yuqishiga sabab bo‘ladi.

Asosiy patogenlar

Havo-tomchi yo‘li orqali tarqaladigan asosiy patogen mikroorganizmlarga quyidagilar kiradi:

- Streptococcus pneumoniae – o‘pka yallig‘lanishi (pnevmoniya) sababchisi.
- Mycobacterium tuberculosis – sil kasalligi sababchisi.
- Influenza virus – gripp virusi.
- SARS-CoV-2 – COVID-19 kasalligini keltirib chiqaruvchi virus

Infeksiya tarqalish omillari

Infeksiya tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- Jamiyatdagi yuqori aholi zichligi.
- Gigiena qoidalariga rioya qilinmasligi.
- Vaksinasiya darajasining pastligi.
- Yopiq va shamollanmaydigan binolarda uzoq vaqt bo‘lish.

Profilaktika choralari

- Shaxsiy gigienaga amal qilish (qo‘l yuvish, himoya niqoblari).
- Jamoat joylarida masofani saqlash.
- Vaksinasiya qilish.
- Binolarni shamollatib turish va havo tozalash uskunalaridan foydalanish.

Xulosa. Havo-tomchi yo‘li orqali tarqaladigan mikroorganizmlar inson salomatligi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Bu mikroorganizmlarni o‘rganish va ularga qarshi kurashish mikrobiologiya fanining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, samarali profilaktik tadbirlar orqali infeksiya kasalliklarining oldini olish mumkin.

SON SUYAGI BOSHCHASI COVID-19 INFEKSIYASIDAN KEYINGI ASEPTIK NEKROZINI DIAGNOSTIKASI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULI

Xayrullayev M.N., Muazzamov B.B.
ZARMED UNIVERSITETI

Mavzuning dolzarbligi: Son suyagi boshchasining aseptik nekrozi mushak-skelet tizimining barcha kasalliklarini 4.8 % tashkil qiladi. Bu kasallik asosan 35 yoshdan 55 yoshgacha bo’lgan erkaklarda ko’p uchraydi. Son suyagi boshchasining aseptik nekrozining asosiy xususiyati uning yosh, ishga yaroqli aholi qatlamini zararlashidir. Son suyagi boshchasining aseptik nekrozi kasalligi erta yoshda son – chanoq bo’g’imini endoprotezlashga sabab bo’ladi. Kasallikning dastlabki bosqichlarida aniqlashning diagnostik algoritmi MRT va KTga asoslangan. Kasallik eng mehnatga layoqatli odamlarga ta’sir qiladi. Bu esa nogironlikning kelib chiqishi va bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytirganligi sababli bu jiddiy muammoga aylanmoqda. Covid-19 infeksiyasi boshlangandan keyin 4 oydan 1 yilgacha bo’lgan davrda son suyagi boshchasining aseptik nekroz rivojlanib ko’payib ketmoqda. Bu holat kasallikning gormonal davolanishi va kasalikning o’zi xos kechishi bilan bog’liqdir.

Ishning maqsadi:
COVID-19 infeksiyasini o’tkazgan bemorlarda son suyagi boshchasining aseptik nekrozini erta aniqlash, konservativ va xirurgik davalosh usulini tanlash.

Material va tekshirish usullari:
Tadqiqot Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Ko’p Tarmoqli klinikasi “ Bo’g’imlar va qo’l - barmoq jarrohligi” bo’limida olib borildi.Tadqiqot o’tkazishda anamnestik, klinik –labarator, rentgenologik va MRT tekshirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot uchun Son suyagi boshchasining aseptik nekrozi bilan kasallangan, anamnezidan COVID- 19 infeksiyasini o’tkazgan 35-yoshdan 75- yoshgacha bo’lgan 40 ta bemor tanlab olindi. Tekshirish uchun olingan bemorlarning 60 % ini erkaklar, 40% ini ayollar tashkil qiladi. Tekshirish natijasida 6 ta bemorda (15%) son suyagi boshchasi aseptik nekrozining I -darajasi,22 ta bemorda (55%) son suyagi boshchasi aseptik nekrozining II –darajasi, 6 ta bemorda (15%) son suyagi boshchasi aseptik nekrozining III –darajasi, 6 ta bemorda (15%) son suyagi boshchasi aseptik nekrozining IV –darajasi (Ficat klasifikatsiyasi bo’yicha) aniqlandi.

Natija: Son suyagi boshchasining aseptik nekroziga chalingan bemorlarni klinik-rentgenologik tekshirilib, kasallik darajasiga qarab davolash sxemasi ishlab chiqildi. Bunda kasallikning I-II dralarida konservativ davolash,III-darajasida Xelmut bo’yicha fnestratsiya va tunelizatsiyalash operatsiyasi,IV –darajada chanoq-son bo’g’imini total endoprotezlash amaliyoti amalga oshiriladi. Tadqiqot uchun olingan bemorlardan son suyagi boshchasi aseptik nekrozining I-II darajalari bilan kasallanganlari (70%) konservativ davolandi. Konservativ davo maqsadida qon aylanishi yaxshilovchi va qonning qovushqoqligini pasaytiruvchi preparatlar (antikoagulyatlar, antiagregant), suyak to’qimasi rezorbsiyasiyasi ingibitorlari (bifosfanatlar) va vitamin D preparatlari qo’llanildi. Son suyagi boshchasi aseptik nekrozi III-IV darajasi bilan kasallangan bemorlar (30%) jarrohlik yo’li bilan davolandi.

Xulosa: Son suyagi boshchasi aseptik nekrozi bilan kasallangan bemorlar konservativ yo’l bilan(70%) davolanganda ular og’riq sindromi yo’qolib, bo’g’imlarda harakat hajmi to’liq tiklandi. Operativ yo’l bilan davolanganlarga (30%) Xelmut bo’yicha fnestratsiya-tunelizatsiyalash operatsiyasi va chanoq –son bog’imini total endoprotezlash amaliyoti o’tkazildi. Son suyagi boshchasi aseptik nekrozi bilan kasallangan bemorlar doimiy ravishda

travmotolog-ortoped nazoratida bo’ladilar. Bemorlarga konservativ va operativ davodan so’ng samarali reabilitatsiya usuli ishlab chiqildi.Bemorlarni ushbu tashxis bilan erta kompleks davolash boshlansa, kelajakda ularni nogironlikdan saqlab qolamiz.

Telefon raqam: (93) 067-89-99
E-mail manzili: mxayrullayev72@gmail.com

SUVCHECHAK, QIZAMIQ VA SKARLATINA BILAN OG‘RIGAN BEMORLARNI DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

Almardonova Zulxumor Jalilovna.
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya,
jamoat salomatligi gigiyena va menejment kafedrasi assistenti.
almardanovazulxumor1965@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Suvchechak (varicella), qizamiq (kor) va skarlatina (yo‘tal toshmasi) — bolalik davrida keng tarqalgan, yuqori yuqumli infeksion kasalliklar bo‘lib, ular asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Ushbu kasalliklar kechishi vaqtida yuzaga keladigan asoratlar (meningit, pnevmoniya, otit, nefrit va boshqalar) bolalar salomatligi uchun katta xavf tug‘diradi. Ayni paytda bolalar va o‘smirlar orasida ushbu infeksiyalarning qayta ko‘tarilishi ushbu mavzuni o‘ta dolzarb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Suvchechak, qizamiq va skarlatina bilan og‘rigan bemorlarning klinik belgilari, diagnostika usullari va samarali profilaktika choralarini o‘rganish, kasalliklarning oldini olish va ularni erta aniqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Material va usullar. Tadqiqot 2022–2024 yillar davomida tuman bolalar poliklinikalari va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida kuzatilgan 90 nafar (30 nafardan) suvchechak, qizamiq va skarlatina bilan og‘rigan bolalar misolida olib borildi. Bemorlarning klinik ko‘rinishlari, laborator tekshiruvlar (qon, siydik, virusologik testlar), epidemiologik anamnezlar asosida baholandi. Profilaktika choralarining samaradorligi statistik jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar

1. Suvchechak holatlarida tana harorati ko‘tarilishi, qichishuvchi toshmalar va umumiy intoksikatsiya belgilari ustun bo‘ldi.
2. Qizamiqda burun oqishi, kon’yunktivit, yo‘tal bilan boshlanib, 3–5 kun ichida xos toshmalar paydo bo‘lishi kuzatildi.
3. Skarlatinada esa yuqori harorat, tillarning “malinali” tus olishi, tonzillit va mayda nuqtali toshmalar asosiy diagnostik belgi bo‘ldi.
4. Laborator tekshiruvlar (serologik testlar, PZR) orqali aniqlik kiritilgan holatlar 65%ni tashkil etdi.
5. Profilaktika sifatida qizamiqqa qarshi emlash samaradorligi yuqori bo‘lib, emlangan bolalar orasida kasallanish holatlari 8 barobar kam kuzatildi.
6. Suvchechak va skarlatina bilan og‘rigan bolalar uchun uyda alohida parvarish, gigiena, dezinfeksiya va izolyatsiya choralarining to‘liq bajarilishi ikkilamchi yuqtirish holatlarini kamaytirishga yordam berdi.

Xulosa. Suvchechak, qizamiq va skarlatina bolalar orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar bo‘lib, ularni erta aniqlash, to‘g‘ri davolash va samarali profilaktika choralarini qo‘llash orqali sog‘liq uchun xavfli asoratlarning oldini olish mumkin. Ayniqsa, emlash, gigiena talablariga rioya qilish va bemorlarni o‘z vaqtida izolyatsiya qilish kasalliklar tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

VABO QO‘ZG‘ATUVCHISI O‘CHOG‘IDA JORIY VA YAKUNIY DEZINFEKSIYA ISHLARINI O‘TKAZISH

Axmedova Saodat Tashboltayevna.
TTA Termiz filiali Mikrobiologiya,jamoat salomatligi gigiyena va menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi.
saodat140284@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Vabo (cholera) — Vibrio cholerae tomonidan chaqiriladigan o’ta yuqumli infeksion kasallik bo‘lib, suv va oziq-ovqat orqali yuqadi. Yuqori darajadagi yuqumlilik va tez tarqalish xavfi tufayli kasallik o‘chog‘ida sanitariya-epidemiologik choralarni, ayniqsa joriy va yakuniy dezinfeksiyani to‘g‘ri tashkil qilish, kasallikni bartaraf etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun vabo o‘chog‘ida dezinfeksiyaga oid ishlanmalar, aniq va samarali usullarni qo‘llash bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Vabo infeksiyasi aniqlangan o‘choqlarda joriy va yakuniy dezinfeksiya choralarini samarali o‘tkazish usullarini o‘rganish, ulardan foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Material va usullar: Tadqiqot O‘zbekistonning bir necha viloyatlarida kuzatilgan vabo holatlari yuzasidan o‘rganilgan 12 ta o‘choq misolida olib borildi. Har bir o‘choqda amalga oshirilgan dezinfeksiya ishlari kuzatildi, ishlatilgan dezinfektantlar, ularning konsentratsiyasi, ta’sir muddati, ishlov berilgan yuzalar tahlil qilindi. Natijalar mikrobiologik tekshiruvlar asosida baholandi.

Natijalar

O‘rganilgan vabo o‘choqlarida amalga oshirilgan dezinfeksiya ishlari natijasida:

1. Joriy dezinfeksiya har kuni va kasallik manbai mavjud bo‘lgan davr mobaynida olib borilgan hollarda, atrof-muhitdagi patogen vibrionlar soni keskin kamaygani mikrobiologik tahlillar bilan tasdiqlandi.
2. Joriy dezinfeksiyada 2–3% li xlorli ohak eritmasi, 0.5% li xloramin, va kationli antiseptiklar (katamin AB, septol va boshqalar) eng samarali vosita sifatida qayd etildi.
3. Yakuniy dezinfeksiya to‘liq, ya’ni bemor yotgan xona, hojatxona, hammom, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, chiqindilar, ichimlik suvi manbalari va havo muhitini tozalash orqali amalga oshirilgan hollarda kasallikning qo‘shni xonadonlarga tarqalishi aniqlanmagan.
4. Dezinfeksiya choralariga mahalliy aholini jalb qilish, tushuntirish ishlari olib borish samaradorlikni oshirgan.
5. O‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilgan joriy va yakuniy dezinfeksiya orqali 83% holatda kasallik tarqalishining oldi olingani kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot davomida vabo o‘chog‘ida joriy dezinfeksiya bemor bo‘lgan davr mobaynida har kunlik tartibda amalga oshirilgan bo‘lib, ichak ajratmalari, qusindi, ifloslangan buyum va yuzalarga xlorli eritmalar bilan ishlov berish katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yakuniy dezinfeksiya esa bemor kasalxonaga yotqizilgach yoki vafot etganidan keyin, turar-joy, sanitariya-texnik inshootlar, ichki havoga to‘liq dezinfeksiya o’tkazilgan. Samarali natijalar 3%li xlorli ohak va kationli antiseptiklar bilan qayta ishlov berilganda kuzatildi. Vabo o‘chog‘ini bartaraf etishda dezinfeksiya ishlari mutaxassislar tomonidan, mahalliy aholining ishtiroki va xabardorligi bilan olib borilishi kasallik tarqalishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

HOMILADORLIK DAVRIDA GEPATITNING KECHISH XUSUSIYATLARI, UNING HOMILAGA TA’SIRI

Jurayeva Muxabbat Ergashevna.
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi gigiyena va menejment kafedrasi assistenti.
muhabatjoraeva078@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda gepatit viruslari, xususan, gepatit B va C turlari dunyo bo‘yicha keng tarqalgan bo‘lib, homilador ayollar salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi chunki hozirgi kunda gepatit homilador ayollar orasida uchraydigan xavfli infeksiyalardan biri hisoblanadi. Gepatit virusining homiladorlik davrida faol kechishi homilada intrauterin infeksiya, erta tug‘ruq, past tana vaznli tug‘ilish va hatto homila nobud bo‘lishi kabi asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, gepatitni erta aniqlash, to‘g‘ri boshqarish va ona-homila juftligini xavfsiz saqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Homiladorlik davrida gepatit (asosan B va C) infeksiyasining klinik kechishini o‘rganish, uning homila va tug‘ilish jarayoniga bo‘lgan ta’sirini perinatal davrdagi asoratlarga ta’sirini aniqlash, shuningdek, profilaktika va boshqaruv choralarini takomillashtirish.

Material va usullar: Tadqiqotda 2022–2024 yillar oralig‘ida hepatit B yoki C tashxisi qo‘yilgan 80 nafar homilador ayol kuzatuvga olingan. Ular klinik, laborator tahlillar (ALT, AST, HBsAg, anti-HCV), ultratovush tekshiruvlari tekshiruvlari asosida tahlil qilindi. Nazorat guruhi sifatida gepatit aniqlanmagan 80 nafar homilador ayol ma’lumotlari bilan solishtirildi. Ma’lumotlar statistik tahlillar uchun SPSS dasturidan foydalanildi, homila holati, tug‘ruq yoshi, bola vazni va asoratlar bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gepatit B va C bilan kasallangan homilador ayollarda tug‘ruq asoratlari, shu jumladan, erta tug‘ruq, homila gipotrofiya holatlari va perinatal infeksiya xavfi yuqori bo‘lishi aniqlangan. Ayniqsa, virusli yuklama yuqori bo‘lgan ayollarda xavf yanada ortadi. Shu sababli, homiladorlikning ilk bosqichidanoq gepatitga skrining o‘tkazish, faol monitoring va kerakli antiviral terapiyani, individual yondashuv asosida nazorat va davolash choralarini qo‘llash ona va bola salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ПАТОГЕННЫЕ И ВИРУЛЕНТНЫЕ СВОЙСТВА БАКТЕРИЙ

Ахмедова Саодат Ташболтаевна
ТМА Термезский филиал Микробиология,
кафедра гигиены и менеджмента общественного здоровья.
saodat1402847@gmail.com
Абдурахманов Зухриддин Алишерович
Студент ТМА Термезского филиала
zuhriddinabduraxmanov197@gmail.com

Патогенные и вирулентные свойства бактерий являются основными факторами, определяющими их способность вызывать инфекционные заболевания. Патогенность, как характеристика микроорганизма, определяется его потенциалом вызывать заболевание, а вирулентность является её более точным отражением, определяя степень тяжести и скорости проявления заболевания. Эти два параметра тесно связаны, но имеют различия в выраженности. Понимание этих различий и их взаимосвязи играет ключевую роль в микробиологии и инфекционной патологии, поскольку это позволяет не только выявлять опасные штаммы, но и разрабатывать эффективные методы диагностики, лечения и профилактики бактериальных инфекций.

Цель работы. Изучить патогенные и вирулентные свойства патогенный бактерий.

Материалы и методы исследования. Проведен ретроспективный анализ литературных источников и историй болезней больных.

Результаты. Одним из важнейших аспектов, влияющих на патогенность и вирулентность бактерий, является наличие у них так называемых факторов вирулентности — структурных и молекулярных компонентов, которые способствуют успешному заражению организма хозяина. К ним относятся токсины, ферменты агрессии, капсула, адгезивные структуры и механизмы уклонения от иммунного ответа. Например, экзотоксины, такие как ботулинический токсин у Clostridium botulinum или дифтерийный токсин у Corynebacterium diphtheriae, обладают высокой токсичностью и специфичностью, направленной на определённые ткани организма. В то же время, эндотоксины грамотрицательных бактерий, например, липополисахариды у Salmonella, могут вызвать системные воспалительные реакции, включая сепсис.

Ферменты агрессии, такие как гиалуронидаза и стрептокиназа, разрушают межклеточные связи и способствуют распространению бактерий по организму. Капсула, которая имеется у таких бактерий, как Streptococcus pneumoniae, защищает их от фагоцитоза и помогает избегать иммунного ответа. Кроме того, адгезины и фимбрии бактерий, таких как Escherichia coli, играют важную роль в прикреплении бактерий к клеткам эпителия, что является первым шагом в процессе инвазии и колонизации тканей.

XX asrning o’rtalarigacha Daun sindromi sabablari noma’lumligicha qolardi, ammo ushbu sindrom va ona yoshi o’rtasidagi bog’liqlik va sindromga barcha irq vakillar teng ehtimollik bilan chalinishi mumkinligi fanga ma’lum edi. O’sha davrlarda sindrom genetik va nasliy omillarning kombinatsiyasi tufayli kelib chiqadi degan nazariya hukm surardi. Boshqa nazariyalar esa sindrom tug’ruq vaqtida jarohatlanish tufayli rivojlanadi degan tushunchani ilgari surgan. 1975-yilda AQSh Milliy sog’liqni saqlash instituti nomenklaturani standartlashtirish bo’yicha konferentsiya o’tkazdi. Ular noto’g’ri atalishni bekor qilishni tavsiya qildilar. Buning sababi sindromning kashfiyotchisi bu kasallikdan aziyat chekmaganligi edi.Shunga qaramay, Daun sindromi nomi hali ham barcha mamlakatlarda ishlatiladi.

Daun sindromi kamdan-kam uchraydigan patologiya emas — u o’rtacha 700 ta tug’ilishdan bitta holatda kuzatiladi. Hozirgi vaqtda prenatal tashxis tufayli, Daun sindromi bo’lgan bolalar tug’ilishining chastotasi har 1100 holatdan 1 tagacha kamaygan, chunki homila kasalligi haqida xabar topgach, abortga murojaat qilinadi. Har ikki jinsdagi homilada ham anomaliya uchrashi ehtimoli bir xil bo’ladi. Daun sindromi bilan tug’iladigan bolalar soni har 800 yoki 1000 chaqaloq uchun 1 tani tashkil etadi. 2006-yilda kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi buni Qo’shma Shtatlarda 733 ta tirik tug’ilish uchun bitta holat deb baholadi (yiliga 5 422 yangi holat). Ularning 95%ga yaqini 21-xromosoma trisomiyasidir. Daun sindromi barcha etnik guruhlarda va barcha iqtisodiy tabaqalarda uchrashi mumkin.

Onaning yoshi Daun sindromi bo’lgan bolaga homilador bo’lish ehtimoliga ta’sir qiladi:
Agar onalar

- 20 dan 24 yoshgacha bo’lsa, bu ehtimollik 1562 ga 1;
- 30 yoshgacha bo’lsa — 1000 ga 1;
- 35 yoshdan 39 yoshgacha — 214 ga 1;
- 45 yoshdan oshganda esa ehtimol 19 ga 1 nisbatida bo’ladi.

Ehtimollik onaning yoshi o’tgani sayin oshishiga qaramay, ushbu sindromli bolalarning 80 foizi 35 yoshgacha bo’lgan ayollarda tug’iladi. Bu holat mazkur yosh guruhida umumiy tug’ilishning yuqoriligi bilan bog’liq. Oxirgi ma’lumotlarga ko’ra, otaning yoshi, ayniqsa, u 42 yoshdan oshgan bo’lsa ham bolada sindrom rivojlanishi xavfini oshiradi. 2008-yilgi tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, Daun sindromi shuningdek jinsiy hujayra shakllanishi va / yoki homiladorlik jarayonida tasodifiy hodisalarga ham bog’liq. Ota-onalarning xattiharakati va atrof-muhit omillari bunga ta’sir qilmaydi.1987-yil yanvar oyida Daun sindromi qayd etilishi noodatiy tarzda ko’payib ketdi, ammo keyinchalik bunday tendentsiyalar kuzatilmadi.

Bugungi kunda Daun sindromi bo’lgan shaxslarning umr ko’rish davomiyligi uzaygan bo’lib, bu muddat 50 yildan oshadi. Ushbu sindromga ega bo’lgan ko’p odamlar turmush quradilar. Erkaklarda cheklangan miqdordagi spermatozoidlar bo’ladi, Daun sindromi bo’lgan erkaklarning ko’pchiligi bepushtdir. Ayollarda muntazam hayz sikli kuzatiladi. Daun sindromi bo’lgan ayollarning kamida 50% farzandli bo’lishlari mumkin. Ushbu sindromga chalingan onalardan tug’ilgan bolalarning 35-50% da Daun sindromi yoki boshqa nogironlik aniqlanadi.Daun sindromi bo’lgan bemorlarda saraton o’smasi kamroq uchrashi haqida ma’lumotlar mavjud. Biroq, bunday kishilar kardiologik kasalliklar (odatda tug’ma yurak nuqsonlari), Altsgeymer kasalligi va o’tkir mieloid leykozlarga chalinishi ehtimoli ko’proq. Mazkur sindromli odamlarning immuniteti zaif bo’ladi, shuning uchun bolalar (ayniqsa, erta yoshda) ko’pincha pnevmoniyaga chalinadi, ular bolalarda uchraydigan infektsiyalarni qiyin boshdan o’tkazadi, tez-tez oshqozon buzilishi qayd qilinadi.

Turli hollarda Daun sindromi bo’lgan bolalarning kognitiv rivojlanishi sezilarli darajada farq qiladi. Hozirgi kunda tug’ilishdan oldin bolaning o’zlashtirishi va jismoniy rivojlanishi qanchalik yaxshi bo’lishini oldindan aniqlab bo’lmaydi. Optimal usullarni aniqlash erta aralashuv yordamida tug’ilgandan keyin amalga oshiriladi. Har bir bola keng imkoniyatlarga ekanligi bois, maktabda ularning standartlashtirilgan ta’lim dasturidagi muvaffaqiyatlari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Daun sindromi bo’lgan bolalarda mavjud bo’lgan o’zlashtirish muammolari sog’lom bo’lalarda bo’lishi ham mumkin, shuning uchun ota-onalar farzandlarini oddiy maktablarga berishga harakat qilishsa bo’ladi. Ko’p hollarda bolalar nutq bilan bog’liq muammolarga duch kelishadi. So’zni anglash va uning talaffuz etish orasida ma’lum bir kechikish kuzatiladi. Shuning uchun, ota-onalar bolani logopedga olib borishi tavsiya etiladi. Nozik harakat qobiliyatlari rivojlanishda kechikadi va boshqa harakat qobiliyatlaridan sezilarli darajada ortda qoladi. Ba’zi bolalar ikki yoshdan boshlab, ba’zilari esa 4 yoshligida yurishni boshlashlari mumkin. Odatda ushbu jarayonni tezlashtirish uchun fizioterapiya buyuriladi.

Ko’pincha nutq va kommunikativ ko’nikmalarning rivojlanish tezligi kechikadi va bu eshitish muammolarini aniqlashga yordam beradi. Agar ular mavjud bo’lsa, bu erta aralashuv yoki eshitish asboblari belgilash orqali tuzatiladi. Daun sindromi bo’lgan bolalar maktabda odatda maxsus sinflarga bo’linadi. Buning sababi ularda o’rganish qobiliyatining pastligi va tengdoshlaridan ortda qolish ehtimoli. Germaniya va Daniya kabi ayrim Yevropa mamlakatlarida «ikki o’qituvchi» tizimi mavjud bo’lib, ikkinchi o’qituvchi kommunikativ qiyinchiliklarga ega bolalar uchun dars o’tadi. Ahamiyatli tomoni barchasi bitta sinfxonada o’tiladi, bu bolalarning boshqalar bilan kelishib ketishni osonlashtiradi.

XULOSA

Daun sindromi bo’lgan odamlarning o’rtacha umr davomiyligi standart xromosoma to’plami bo’lgan odamlarning o’rtacha umr davomiyligidan kamligi ularning yuqori kasallanuvchanligi bilan tushuntiriladi. 2002-yilda Qo’shma Shtatlarda o’tkazilgan bir tadqiqot, Daun sindromi bo’lgan odamlarning o’rtacha umr ko’rish davomiyligi 49 yil ekanligini ko’rsatdi. Biroq, hozirgi kundagi hayot davomiyligi 1980-yillarda 25 yilga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Vaqt o’tishi bilan o’lim sabablari ham o’zgargan, surunkali neyrodegenerativ kasalliklar aholi yoshiga nisbatan keng tarqalgan. 40-50 yoshda ushbu sindromi bo’lgan odamlarning aksariyati Altsgeymer kasalligi — dementsiyadan aziyat chekadi. Daun kasalligi, perinatal ensefalopatiya, bolalar serebral falajligi va boshqa barqaror nevrologik holatlar emlash uchun qarshi ko’rsatma hisoblanmaydi.

ҚУЁНЛАР САЛЬМОНЕЛЛЁЗИНИНГ ПАТОМОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИ

Ассистент: (PhD) ***Султанова И.Ю.****, (PhD)* ***Худоярова Г.Н.***
Кафедра мудири: б.ф.н. доцент ***Вохидова А.М.***
Зармед университети

Аннотация: Фермер хўжаликларида парваришланаётган қуёнлар сальмонеллёзнинг кечиши, паталогоанатомик ҳамда паренхиматоз органларидан тайёрланган гистокесмаларини марфологик ўрганиш тўғрисида келтирилган.

Калит сўзлар: сальмонеллёз, десквамация, индурация, некроз, дистрофия, ядролар лизиси.

Мавзунинг долзарблиги. Қуёнчилик тармоғида насилчилик селекция ишлари, қуёнларда учрайдиган турли касалликлар, уни парваришлаш ва кўпайтиришда айнан ошқозон –ичак касалликлари 90 % ташкил этмоқда. Жумладан ҳозирги кунда сальмонеллёз касаллиги бизнинг республикамизда кенг тарқалган бўлиб, Enterobacteria оиласига мансуб бўлиб, фермер хўжаликларида кенг тарқалганлиги, ошқозон-ичак дисфункцияси ва энтеротоксиген симптомлари билан намоён бўлиб қуёнлар орасида 18-20 фоизни ташкил этмоқда.

Сальмонеллёз касаллиги нафақат қуёнлар касаллиги бўлиб балким қишлоқ хўжалик ҳайвонлари (йирик шохли ҳайвонлар, майда шохли ҳайвонлар), паррандалар ҳаттоки инсонлар организмида кечадиган бактериал, инфекцион касалликлардан бири ҳисобланади. Ҳозирги кунда кўп ҳолларда salmonella enteritidis тури кенг тарқалган бўлиб, чала пиширилган қуён, мол гўштини истеъмол қилган инсонларда сурункали ич кетиш, кўнгил айниш каби ўзгаришларни келтириб чиқаради.

Мавзунинг мақсади. Айни дамда баъзи аҳоли ва шахсий қуёнчилик фермер хўжаликларида инфекцион касалликларидан бири сальмонеллёзнинг авж олиши иқтисодий самарадорликнинг пасайишига олиб келмоқда. Шундан келиб чиқиб қуёнлар сальмонеллёзининг тарқалишини олдини олиш мақсадида Ветеринария илмий тадқиқот институти, микробиология лабораториясида олиб борилган илмий изланишлар ушбу касалликларнинг организимдаги патоморфологик, гистологик кўрсаткичларини ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Тадқиқот усуллари: Тадқиқотлар давомида микробиология ва ёш моллар касалликларини ўрганиш лабораторияси виварясида “Қуёнлар колибактериоз ва сальмонеллёз касалликларининг патоморфологияси ва дифференциал диагностикаси” мавзусини ижро этиш мақсадида олиб борилган тадқиқотлар давомида 16 (ўн олти) бош қуён боласида тажрибалар олиб борилди. Бунда 4 бош 1-гуруҳ қуённинг қорин бўшлиғига 1,5 милиард $ЛД_{50}$ микроб таначасининг 0,5 мл миқдорда E.coli қўзғатувчисини, 4 бош 2-гуруҳ қуённинг қорин бўшлиғига 1,5 милиард $ЛД_{50}$ микроб таначасининг 0,5 мл миқдорда S.enteritidis қўзғатувчисини, 4 бош 3- гуруҳ қуённинг қорин бўшлиғига иккала қўзғатувчиларнинг биргаликда (0,75+0,75) 1,5 милиард $ЛД_{50}$ микроб таначасининг 0,5 мл (0,25+0,25) миқдорда юқтирилди. 4 бош 4-назорат гуруҳи қуёнларига қўзғатувчи юқтирилмасдан 0,5 миқдорида физиологик эритма қорин бўшлиғига жўнатилди. Ушбу тадқиқотлар давомида қуёнлар организмида қўзғатувчилар юқтирилгандан сўнг улар кунлик клиник текширилди.

Қўзғатувчилар юқтирилган қуёнлар 4-кундан бошлаб қуёнлар бирин кетин ўла бошлади. Иккинчи гуруҳдаги S. enteritidis юқтирилган қуёнлар паталогоанатомик ёриб кўрилганда, аксарият қуёнларнинг кўкрак қафасида 15-20 мл сув тўпланиши, ўпканинг икки томонлама бронхопневмонияси, трахея ва бронхларда нуқтали қон қуйилишлар, юрак


кўйлакчасида сарғиш суюқлик тўпланиши, юрак қулоқчаларида геморрагик қон қуйилишлар кузатилди. Ошқозон ва кириш жойи (сфинктр) да нуқтали қон қуйилишлар, ичакларда газ тўпланиши, йўғон ичакларнинг масса билан тўлиши, ингичка ва ўн икки бармоқли ичак сероз пардаларининг экссудатив ялиғланиши, деворларининг қалинлашуви, баъзи жойларининг шишганлиги аниқланди. Талоқнинг дистрофик ўзгаришлари ва талоқнинг яллиғланиши (спленит)кузатилди. Буйраклар ҳажмининг катталашуви, нуқтали қон қуйилишлар, сийдик пуфагининг сийдик билан тўлиши, сийдик пуфагида оқсил чўкмаларининг кўпайиши, баъзиларида жинсий аъзоларининг яллиғланиши кузатилди.

Ўлган қуёнлар жасади паталогоанатамик ёриб кўрилгандан кейин барча паренхиматоз (юрак, ўпка, жигар, буйрак, талоқ) ва қўшимча органлар (ошқозон-ичаклар, лимфа тугунлари) дан гистологик препаратлар тайёрланди.

Гитологик текширишлар натижасига кўра ўпкадаги гемостаз ва алвеолаларда плазма фибринли ипчаларнинг мавжудлиги, қон томирларининг тўлақонлилиги, гемосидероз ҳолатлари ривожланган. Алвеолалардаги ҳужайралар вакуолаларининг дистрофияси, некрози, десквамацияси, шунингдек сероз-геморрагик яллиғланиш ва эмфизематоз майдончалар аниқланди. Буйраклардаги эгри-бугри найчаларнинг умумий некрози, коптокчалар ҳужайраларининг пикнози, капсуласи емирилиши ва лизисга учраши, қон томирлари чигалларининг зичлашганлиги аниқланди. Эгри-бугри найчалар эпителиоцитлаларининг аксарияти некроз ва дескваматив ўзгаришларга, баъзи жойларида эса гидропик ҳамда гиалин томчили дистрофияга учраганлиги аниқланди. Буйрак таначалари атрофида перицелюляр шиш кўзга яққол ташланди. Йиғувчи найчалар эпителиоцитлари атрофида донадор дистрофия ва пикноз ҳамда кариолизис каби некротик ўзгаришлар кўринади. Оралиқ тўқимада лимфогистиоцитар инфильтрацияси аниқланди. Юрак миокардининг гистокесмасида мушак толаларининг толаланган ва шишган ҳолатдалиги, капилярларда гемостаз кузатилди. Кардиомиоцитлар ядроси бўккан, овал шаклида бўлиб, баъзи жойларида кариорексисга учраган.

Айрим соҳаларида эса лимфо-гистиоцитар инфильтрация ҳамда ҳужайраларнинг гиперплазияси кўринади. Юрак миокард қаватидаги мушак толаларининг толаланганлиги ва оралиқ пластинкалар структурасининг бузилиши, дистрофик ўзгаришлар, миофибриллаларнинг лизисга учраши. Жигар бўлакчаларида марказий веналарнинг тўлақонлилиги, периваскуляр шишиш, бўшлиқларида эса гемолизланган эритроцитлар кўринади. Артериолалар деворларининг лимфо-гистоцитар инфильтрацияси натижасида қалинлашуви ва бўкиши, ҳужайралар некрози, гепотоцитлар ядросининг лизисга учраши, ўт йўллари ўтказувчанлигининг деструкцияланиш оқибатида бузилиши ифодаланган.

Марказий веналар атрофидаги жигар пластинкаларида гиалинтомчили ва вакуол дистрофия, гепатоцитларнинг цитоплазмасида киритма таначаларнинг мавжудлиги, айрим жойларида эса тарқоқ, майда ўчоқли гемосидероз ҳамда гепатоцитларининг некрози аниқланди. Бундан ташқари, перицеллюлар шишиш, жигар бўлакчалари орасида ёш грануляцион тўқиманинг ҳосил бўлиши аниқланиб, ва унинг лимфо-гистоцитар инфильтрацияланганлиги кузатилди. Талоқдан тайёрланган гистокесмаларда унинг паренхимаси оқ ва қизил пульпалар кўринишида ифодаланган. Оқ пульпадаги лимфоид фолликулалар доира шаклидаги лимфоцитларнинг тўпламларидан ташкил топган бўлиб, улардаги қон томирларининг қалинлашган девори мушак ҳужайраларидан иборат. Айрим лимфофолликулаларда яққол сезиладиган оралиқ бириктирувчи тўқима мавжуд.



11-расм. Лимфа тугунларининг инфилтрацияси, десквамотив ўзгаришлари.

Хулоса: 1 Хулоса қилиб айтадиган бўлсак қуёнларнинг сальмонеллёзи ўткир кечувчи бактериологик касаллик бўлиб паталогоанатамик ёриб кўрилганда кўкрак қафасида 15-20 мл сув тўпланиши, ўпканинг икки томонлама бронхопневмонияси ингичка ва ўн икки бармоқли ичак деворларининг қалинлашуви, шишганлиги билан иккита гуруҳдан ажралиб туриши аниқланди.

2. Гистологик текширишлар натижасига кўра аксарият органларда инфильтратив ўзгаришлар ҳамда ўпканинг эмфиземотози, талоқнинг гиперплазияси, ичаклар ва лимфа тугунларининг десквамацияси кузатилиши билан фарқланади.

РАЦИОНИ “ОЛИН” ПРОБИОТИГИ БИЛАН БОЙИТИЛГАН ҚУЁНЛАР ҚОНИДАГИ МОРФОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР

Н.Б. Рахматова, М.Г.Сафин
Самарқанд Давлат Университети, Биокимё институти.
nigorarahmatova120@gmail.com

Маълумки, мустақил республикамиз аҳолисини тўла қимматли оқсилга бой гўшт маҳсулотлари билан таъминлашга эришишнинг осонроқ йўли чорвачиликнинг қуёнчилик соҳасини саноат миқёсида ривожлантириш ҳисобланади. Қуёнчилик фермаларидаги ишларни самарадорлигига эришиш қуёнларнинг рационини озиқавий компонентлар бўйича мувофиқлаштириш асосида физиологик соғлом ва етиштириладиган маҳсулотларнинг миқдор ва сифатини ошириш билан боғлиқ. Кейинги йилларда бу ишни йўлга қўйиш учун озиқавий компонентларни ҳазмланиш жарёнида мувофиқлашувида бевосита иштирок этувчи микрофлорадан фойдаланишга эътибор берила бошланди [3]. Хусусан,“ОЛИН” пробиотигидан фойдаланиш амилаза, липаза, протеиназа ферментларини синтезлаш орқали алмашинадиган аминокислоталар ва ёғ кислоталарини алмашинмайдиган хилларига айлантириш, патоген микрофлорага антогонистик таъсир кўрсатиш хусусиятларидан фойдаланишга, иммун статусни оширишга оид татқиқотлар амалга оширилмоқда [1,2]. Ушбу мақолада қуёнлар рационини таркибига “ОЛИН” пробиотигини қўшиб бериш йўли билан бойитганда уларнинг қонидаги айрим морфологик ўзгаришларни таҳлилига оид дастлабки изланишларимиз натижалари тўғрисидаги маълумотлар келтирилган.

Тажрибаларни ўтказишда қуёнларни: назорат, 1-,2- ва 3-нчи тажриба гуруҳларига бўлинди ва бунда назорат гуруҳи қуёнлар учун анъанавий бўлган асосий рацион асосида озиқлантирилган бўлса, тажриба гуруҳлари қуёнларига ўзаро мос ҳолда уларнинг ҳар кг оғирлига нисбатан 0.01;0.03 ва 0.05г дан пробиотик қўшиб озиқлантирилди. Қуёнларни парваришлашнинг 60, 90, 120 ва 150 кунлари оралиғида уларнинг қонини айрим морфологик кўрсаткичлари аниқланди[4,5]. Бу таҳлиллар Самарқанд Давлат Университети Биокимё институти қошидаги “Виварий (биофизиологик ва биокимёвий тадқиқотлар)” илмий лабораторияси базасидаги Mindray BC-5000 гематологик анализаторида амалга оширилди. Бунда парваришлашнинг ҳар хил муддатларида қон таркибидаги эритроцитлар, лейкоцитларнинг сони, шунингдек эритроцитларнинг чўкиш тезлигини ўзгариш кўрсаткичларини таҳлилига оид маълумотлар бўйича мулоҳазалар юритилди.Таҳлил натижалари жадвал-1 да келтирилган.

Жадвал 1

Рацион таркиби “Олин” пробиотиги билан бойитилган қуёнлар қонининг айрим морфологик кўрсаткичларини ўзгариши (M±m).

Кўрсаткичлар	Гуруҳлар			
	назорат (n=5)	1- тажриба (n=5)	2- тажриба (n=5)	3- тажриба (n=5)
Парваришлашнинг 60куни				
Эритроцитлар(10^{12}/л)	5,2±0,15	5,2±0,14	5,4±0,17	5,2±0,15

Лейкоцитлар (10^9/л)	6,7±0,12	6,8±0,24	6,3±0,17	6,8±0,17
ЭЧТ(мм/соат)	1,5±0,09	1,5±0,09	1,6±0,07	1,4±0,09
Парваришлашнинг 90 куни				
Эритроцитлар(10^{12}/л)	5,0±0,18	5,5±0,6	5,5±0,29	5,5±0,6
Лейкоцитлар (10^9/л)	6,8±0,16	6,2±0,18	6,2±0,19	6,4±0,18
ЭЧТ(мм/соат)	1,9±0,09	1,4±0,09	1,5±0,10	1,5±0,09
Парваришлашнинг 120 куни				
Эритроцитлар(10^{12}/л)	5,2±0,15	5,8±0,25	5,8±0,25	5,7±0,2
Лейкоцитлар(10^9/л)	6,9±0,16	6,3±0,17	6,1±0,16	6,5±0,17
ЭЧТ(мм/соат)	1,9±0,12	1,2±0,07	1,4±0,10	1,5±0,10
Парваришлашнинг 150 куни				
Эритроцитлар(10^{12}/л)	5,3±0,17	5,8±0,25	5,7±0,2	5,8±0,25
Лейкоцитлар (10^9/л)	6,9±0,16	6,7±0,12	6,0±0,13	6,3±0,18
ЭЧТ(мм/соат)	1,8±0,07	1,3±0,10	1,3±0,09	1,6±0,09

Жадвал 1 маълумотларидан кўриниб турибдики, назорат гуруҳи қуёнларида тажрибанинг 60-,90-,120- ва 150 кунлари оралиғида эритроцитлар, лейкоцитлар сонлари кўрсаткичлари бўйича унчалик ўзгаришлар кузатилмай($P>0,05$), эритроцитларнинг чўкиш тезлиги кўрсаткичи эса, бироз ошабориш тенденциясига эгалиги кўзга ташланади ($P<0,05$). Бу кўрсаткичлар парваришлаш даврларининг 90-,120- ва 150-нчи кунлари 60-нчи кундагига нисбатан ўзаро мос ҳолда 1- тажрибада 5,76%; 11,53% ва 11,53%га ошганлиги, лейкоцитлар сони эса-8,82%; 7,35% ва 1,47% камайиши,ЭЧТ-6,67%, 20,0% ва13,3%га камайиши кузатилди. Бу хилдаги кўрсаткичлар 2-нчи тажриба вариантида юқоридаги тартибга биноан ўзаро мос ҳолда эритроцитлар сони бўйича: 10,18%, 7,4% ва 5,6% га ошганлиги, лейкоцитлар сони эса, ўзаро мос ҳолда 1,58%, 3.17% ва 4,76% га камайганлиги маълум бўлди. Эритроцитларнинг чўкиш тезлигига оид ўзгаришлар 6,25%,12,5% ва 18,75% камайиш тенденциясига эга бўлди. Тажрибаларимизнинг 4-нчи вариантида эритроцитлар сони юқорида келтирилган тартибдаги парваришлаш муддатлари бўйича 60-кундагига нисбатан 5,76%, 9,61% ва 11,53%га ошганлиги, лейкоцитлар сони 5,88%, 4,41% ва 7,35% камайиши, ЭЧТ эса-7,14%,7,14% ва 14,28% ошганлиги қайд қилинди. Тажриба натижалари асосида мулоҳаза юритганда, рациони ҳарбир кг тирик вазн ҳисобига 0,3г “Олин” пробиотиги билан бойитилган қуёнларнинг гематологик кўрсаткичлари энг оптималлиги кўзга ташланади. Шундай қилиб, айтиш мумкинки, айнан тажрибанинг шу варианти экспериментал ҳайвонлар рационини тўлароқ ўзлаштирилишига, уларнинг умумий физиологик ҳолатини яхшиланишига, стресс ҳолатларда эса, ҳимоявий омилларини кучайишига ва натижада уларнинг маҳсулдорлигини оширишга сабабчи бўлади.

Хулоса: Гематологик таҳлил натижалари қуёнларнинг анъанавий рациони “ОЛИН” пробиотигидан ҳар кг тирик вазн ҳисобига, таркибига 0,3 г қўшиб бериш рацион компонентларини тўлароқ ўзлаштирилишига, уларнинг умумий физиологик ҳолатини яхшиланишига, стресс ҳолатларда эса, ҳимоявий омилларини кучайишига ва натижада уларнинг маҳсулдорлигини оширишга сабабчи бўлади.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Александров С.Н. Кролики: разведение, выращивание, корм- ление/С.Н. Александров, Т.И. Косова.-М., 2005.-61 с.

2. Учасов Д. С. Морфо-биохимический состав крови у поросят при применении пробиотика «Интестевит» / Д.С. Учасов // Информационный листок №53-011 -06. - Орел. - ТТНТИ. - 2006. - 6 с.

3. Тараканов Б.В., Эрнст Л.К. Перспективы создания новых пробиотиков на основе рекомбинантных штаммов бактерий, экспрес¬сирующих эукариотические гены / Б.В. Тараканов, Л.К. Эрнст - М.: Из-во Россельхозакадемии, 2002.-71 с.

4. www.library.com

5. www. ziyonet.uz

ODAMLARDA HAZMLANISH KOEFFITSIENTINI OSHIRISHNING YOSHGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI

L.A. Xujanova
b.f.f.d (PhD) v.v.b dotsent Zarmed universiteti
M.R. Bo'riyeva
Zarmed universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada hazmlanish koeffitsientini aniqlashda mahsulotlarning ozuqaviy qiymatini to‘g‘ri belgilash muhimligi, odamlarda bu ko‘rsatkichni yoshga bog‘liq xususiyatlari va ushbu ko‘rsatkichni oshirish omillari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: hazmlanish koeffitsienti, ichak mikroflorasi, biologik substrat, mikroelementlar, biologik samaradorlik.

Kirish. Ma'lumki keyingi yillarda odamlar orasida tana vaznini yosh va jinsga nisbatan oshib ketish holatlari ko‘p uchramoqda. Ayniqsa yosh bolalar, o‘smirlarda ham bu ko‘rsatkich yildan yilga oshib bormoqda. Odamlarda bu belgining o‘zgarishi nafaqat katta yoshdagi insonlarga balki o'quv yili davomida ayniqsa maktab o'quvchilarining psixologik holatiga, hissiy barqarorlik darajasiga ta’sir etib stress holatlarini kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizni o‘zgaruvchan iqlim sharoiti odamlarda hazmlanish jarayoniga ularning ob-havoga ta’sirchanligi, bolalarning sog'lig'i, psixo-emotsional rivojlanishi va turmush tarzi darajasiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Hazmlanish koeffitsienti – bu organizmning qabul qilgan oziq-ovqatni qay darajada o‘zlashtirishi va undan energiya olish qobiliyatini ifodalovchi o‘lchovidir.

Ushbu koeffitsient yoshga va jinsga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Odamlarni yoshi ortib borishi bilan birga organizmda bir qator fiziologik o‘zgarishlar ham ro‘y beradi. Jumladan yog'lar va aminokislotalarning gidroliz mahsulotlarining so'rilishi sezilarli darajada buzilganligi sababli keksa odamlarda (60-75 yosh) qon plazmasidagi aminokislotalarning umumiy kontsentratsiyasi o'rtacha 10% ga, keksa odamlarda (75-90 yosh) esa 25% ga kamayadi. Shu bilan birga treonin, serin, gistidin kontsentratsiyasi sezilarli darajada kamayishi va glutamin, sistein kontsentratsiyasi esa ortishiga olib keladi [2; C.162-163.].

Bundan tashqari oqsillarning biologik qiymati muhim aminokislotalarning mavjudligi ularning almashtiriladiganlari bilan nisbati, ovqat hazm qilish tizimidagi fermentlar tomonidan hazm bo'lish ko‘rsatkichi bilan bog'liq. Ular tarkibidagi antiproteaza fraksiyalari, antivitaminlar va allergen omillar oziq-ovqat oqsillari sifatini baholash uchun muhimdir [4-5; C.27.].

Breshenko., K.I. Melkonyan ozining ilmiy adabiyotlarida odamlarda gipovitaminozning kelib chiqish sabablarini quyidagicha:

- vitaminlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi (homiladorlik, laktatsiya, stress, kasallik va boshqalar);
- vitaminlarni o‘zlashtirish, tashish va saqlash jarayonlarining buzilishi;
- hujayra darajasida vitaminlarning so'rilishining buzilishi (faol shakllarning shakllanishi, apofermentlar bilan o'zaro ta'siri va boshqalar);
- antivitaminlarni qabul qilish deb korsatgan [1-3; C.13.] .

Hazmlanish koeffitsiyentini yoshga bog‘liq holda o‘zgarishi

1. Bolalik va yoshlik davri. Bolalar va yoshlarda hazmlanish tizimi tez rivojlanadi. Ularning hazmlanish koeffitsienti yuqori ko‘rsatkichda bo‘ladi. Yosh organizm tez o‘sish va rivojlanishi uchun ko‘proq energiya va oziq moddalarini talab qiladi. Oziq-ovqatlarni tez hazm qilish va undan foydali moddalarni ajratish jarayoni bolaning o‘sishi va rivojlanishida muhim rol

o‘ynaydi. Shuningdek bolalarda oshqozon-shira va boshqa fermentlar faoliyatining yuqori darajasi, hazmlanish tizimining samaradorligini oshiradi.

2. O‘smirlikdan keksalikka o‘tish davri. Yosh o‘smirlik davrida ya’ni 12-18 yosh atrofida hazmlanish tizimi yana o‘zgaradi. Bu davrda organizm o‘sish davrini yakunlaydi. Natijada hazmlanish koeffitsienti biroz pasayadi. Gormonlar funksional darajasining o‘zgarishi va ichak mikroflorasidagi o‘zgarishlar hazmlanish jarayonini sekinlashtiradi. Yosh o‘tgan sari hazmlanish tizimining samaradorligi pasayadi. Biroq bu pasayish nisbatan sekin va odatda sezilmaydi.

3. Keksalik davri. Keksalik davrida hazmlanish koeffitsienti ancha past bo‘ladi. Bu yoshga bog‘liq fiziologik o‘zgarishi jumladan oshqozon va ichaklar harakatining pasayishi, oshqozon-shira va pankreatik fermentlar ishlab chiqarishning kamayishi bilan bog‘liq. Keksalikka qadam qo‘ygan insonlarda ichaklarda oziq-ovqatni uzoqroq vaqt saqlanishiga olib keladi. Organism esa zarur ozuqaviy moddalardan to‘liq foydalana olmaydi.

Hazmlanish jarayonidagi o‘zgarishlarning yoshga bog‘liq sabablari.

1. Fermentlar faoliyati: odamlarda yosh ortib borishi bilan oshqozon-shira va boshqa hazmlanish fermentlarining sekretsiyasi kamayadi. Ushbu fermentlar oziq-ovqatni samarali parchalash uchun zarurdir. Keksalik davrida bu fermentlarning ishlab chiqarilishi pasayishi ham hazmlanish jarayonini sekinlashtiradi.

2. Ichak motiliteti: yosh o‘tishi bilan ichaklarning motiliteti, ya’ni oziq-ovqatni ichaklar bo‘ylab harakatlantirish tezligi kamayadi. Bu keksalikda ichaklardagi oziq-ovqatning uzoq muddat davomida qolishiga olib keladi. Natijada organizm tomonidan uning to‘liq o‘zlashtirilishi uchun vaqt yetishmasligi mumkin.

3. Mikroflora: odamning yoshi kattalashgan sayin ichaklardagi mikroflora tarkibi ham o‘zgaradi. Yoshga qarab ichak mikroflorasida zararli va foydali mikroorganizmlar o‘rtasidagi nisbat o‘zgarishi ham hazmlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

4. Gormonal o‘zgarishlar: odamlarda yosh ulg‘aygan sayin organizmda gormonlar ishlab chiqarish darajasi ham o‘zgaradi. Keksalikda estrogen va testosteron darajalari pasayishi hazmlanish tizimining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalarni normal o'sish va rivojlanishi uchun oziq- ovqat tarkibida organik va noorganik moddalarni mavjudligi ular parchalanishi va biosintez natijasida energiya plastik materialning zarur muvozanatini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi. Umumiy qabul qilingan miqdorda iste'mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining inson organizmiga toksik, kanserogen, mutagen yoki boshqa salbiy ta'sir ko'rsatmasligini o'z ichiga oladi. Oziq-ovqatlarni tashkil etuvchi alohida kimyoviy birikmalar ozuqa moddalari (makro va mikroelementlar) deb ataladi. Mikroelementlarga vitaminlar va bir qator mineral birikmalar kiradi.

Ovqatning stabilligi va adekvatligi. Ushbu omil ichak boshlig‘idagi me’yoriy mikroflora doimiyligini ta’minlaydi. Ovqat moddalarining ortiqcha iste'mol qilinishi klostridiy, bakteroidlar sonining oshishiga olib keladi. Odam o'zini yaxshi his qilishi uchun kunlik iste’mol qilgan oziq-ovqat me’yori uni kun davomida amalga oshiradigan mehnatiga sarflaydigan energiyani, bazal metabolizmini (dam olish holatidagi tana a'zolari va tizimlarining ishlashini ta'minlaydigan energiya) va oziq-ovqatning o'ziga xos dinamik ta'siri (tana ovqat hazm qilish uchun eng katta energiya sarflaydi) ni qoplashi zarur.

Xulosa. Odam organizmida hazmlanish koeffitsientini yoshga bog‘liq holda oshirish uchun quyidagi omillarni:

1. Mahsulotlarning biologik, energetik qiymati va biologik samaradorligini;
2. Ovqat moddalarining ortiqcha iste'mol qilinishi klostridiy, bakteroidlar sonining oshishiga olib kelishini;
3. Ratsionda hayvon yog‘larining ko'payishi bakteroidlar sonining oshishiga va bifidobakteriya hamda enterokokkiar sonining kamavishiga olib kelishini;
4. Sut parhezi esa bifidobakteriylar miqdorini oshirishga olib kelishini;
5. Ovqatning stabilligi va xavfsizligini hisobga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Агаджанян Н.А., Смирнов В.М. Нормальная физиология: учебник/ Н.А. Агаджанян, В.М. Смирнов. – М.: МИА, 2009. – 520 с.

2. А.Г. Зарифьян., Т.Н. Наумова., Ч.Э. Макимбетова Физиология пищеварения: учебное пособие Второе издание, дополненное- Бишкек 2019.С.162-163.

3. Е.Е. Брещенко., К.И. Мелконян Биологически активные вещества. Витамины, ферменты, гормоны: учебно-методическое пособие/ Под редакцией проф. И.М. Быкова. – Краснодар, 2019. – С-13.

4. Г.П. Ламажапова Физиология питания: учебное пособие - М: Мир науки. 2016.С.27.

5. Z.T. Razhamuradov., Latofat Huzhanova., Mamarajabova Matluba Changing of dairy productivity level and physical and chemical properties of milk from cows with different types of feeding. Scopus EBSCO International Jornal of Psychosocial Rehabilitation Volume 24-Issue 4. London, NW1 8 JACopyrights @ 2020 SDA, LTD/ Ali Rights. P.1876-1884.

PATOFIZIOLOGIYA VA FIZIOLOGIYANING TIBBIYOTDA YANGI METODLAR VA INNOVATSIYALARGA TA’SIRI

Arslonova Nozigul Anvarovna
ZARMED universiteti “Klinik oldi fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.
Boltayeva Donoxon Baxtiyorovna
ZARMED universiteti “Klinik oldi fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.
Arslonova Nazira Anvarovna
ZARMED universiteti “Klinik oldi fanlar” kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya Ushbu maqolada patofiziologiya va fiziologiya fanlarining zamonaviy tibbiyotdagi innovatsion yondashuvlar rivojiga ko‘rsatgan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, immunoterapiya, tibbiy robotexnika, magnit-rezonans tomografiyasi (MRT), multispiral kompyuter tomografiyasi (MSKT) kabi ilg‘or texnologiyalarni klinik amaliyotga joriy etishda fiziologik va patofiziologik bilimlarning tutgan o‘rni ochib beriladi. Maqolada diagnostika va davolash jarayonlarining samaradorligini oshirishda molekulyar biologiya, sun’iy intellekt, individual yondashuv asosida tibbiy qarorlar qabul qilish kabi yo‘nalishlar tibbiy fanlar bilan uyg‘unlikda tahlil etiladi.

Аннотация В данной статье представлен научно-теоретический анализ влияния патофизиологии и физиологии на развитие инновационных подходов в современной медицине. Особое внимание уделено значению физиологических и патофизиологических знаний при внедрении в клиническую практику передовых технологий, таких как иммунотерапия, медицинская робототехника, магнитно-резонансная томография (МРТ) и мультиспиральная компьютерная томография (МСКТ). Также рассматривается интеграция молекулярной биологии, искусственного интеллекта и персонализированного подхода в диагностические и лечебные процессы, подчеркивая их роль в повышении эффективности и точности медицинских вмешательств.

Annotation This article provides a scientific and theoretical analysis of the influence of pathophysiology and physiology on the development of innovative approaches in modern medicine. In particular, it highlights the significance of physiological and pathophysiological knowledge in the clinical application of advanced technologies such as immunotherapy, medical robotics, magnetic resonance imaging (MRI), and multislice computed tomography (MSCT). The article also explores the integration of molecular biology, artificial intelligence, and personalized approaches in diagnostic and therapeutic processes, emphasizing their role in enhancing the effectiveness and precision of medical intervention

Tayanch iboralar: Patofiziologiya, fiziologiya, innovatsion tibbiyot, immunoterapiya, tibbiy robotexnika, MRT, MSKT, yangi diagnostik usullar, molekulyar biologiya, individual yondashuv, klinik fiziologiya, eksperimental tadqiqotlar, patogenetik asoslar, kasalliklarni erta aniqlash, sun’iy intellekt tibbiyotda, biotibbiyot muhandisligi, regenerativ tibbiyot, gen terapiyasi, fiziologik monitoring, sog‘liqni saqlash innovatsiyalari.

Kirish: Zamonaviy tibbiyot rivojlanishining asosiy omillaridan biri fiziologiya va patofiziologiyaning yangi ilmiy yutuqlari va texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda tibbiy xizmatda qo‘llanilayotgan metodlarni yaxshilashdir. Fiziologiya va patofiziologiya sohalaridagi yangi ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar kasalliklarni yanada samarali diagnostika qilish, davolash va profilaktikani ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Yangi metodlar, masalan, genomika, molekulyar biologiya, biotexnologiya va tasvirlash texnologiyalari tibbiyotda kasalliklarni chuqur tahlil qilishga imkon beradi va an’anaviy davolash usullarini yaxshilaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi: Ushbu mavzuning dolzarbligi, fiziologiya va patofiziologiyaning tibbiyotda amaliy qo‘llanilishini, shuningdek, innovatsion texnologiyalarning bu jarayondagi rolini o‘rganishni talab qiladi.

Fiziologiya va patofiziologiyaning yangi metodlari va innovatsiyalar tibbiyot xizmatida diagnostika va davolash jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu ilmiy sohalarda olingan yutuqlar kasalliklarni aniqlash, davolash va profilaktikada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilgan tahlil va davolash usullari tibbiyot sohasining yanada rivojlanishiga, bemorlarni yaxshiroq parvarishlash va sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fiziologiya va patofiziologiyaning zamonaviy yutuqlarini tibbiyotda amaliyotga joriy etishning zarurligi katta.

Tadqiqot ob’yekti: Ushbu tadqiqotning ob'yekti fiziologiya va patofiziologiyaning tibbiyot sohasida yangi metodlar va innovatsiyalarga ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqotda fizyologik va patofiziologik jarayonlarning tibbiyotda diagnostika, davolash, va profilaktikada qanday qo‘llanilishi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarning ushbu jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish maqsad qilingan.

Tadqiqotda quyidagi elementlar o‘rganiladi:

Fiziologik va patofiziologik jarayonlarning yangi diagnostika metodlari (masalan, genomika, molekulyar biologiya, tasvirlash texnologiyalari).

Innovatsion davolash usullari, jumladan immunoterapiya, CRISPR-Cas9 texnologiyasi va biomarkerlar orqali kasalliklarni aniqlash.

Tibbiy robototexnika, 3D bosib chiqarish, va nanotexnologiyalar kabi yangi texnologiyalarning fiziologiya va patofiziologiyaga ta’siri.

Yangi diagnostika va davolash usullarining klinik amaliyotda qo‘llanilishi va bemorlar sog‘ligini yaxshilashdagi roli.

Shu bilan birga, tadqiqot innovatsion texnologiyalarning amaliy tibbiyotga joriy etilishi orqali tibbiyot sohasida rivojlanayotgan yangi yondashuvlar va imkoniyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan.

1. Genomika va molekulyar biologiya

Genomika va molekulyar biologiya sohalaridagi yangiliklar tibbiyotda yangi yondashuvlarni olib keldi. Masalan, genomni tahlil qilish (genetik skanerlash) usuli orqali kasalliklarning genetik sabablarini aniqlash mumkin. Bu metod xususan saraton, yurak-qon tomir kasalliklari va irsiy kasalliklar bo‘yicha aniq tashxis qo‘yishda samarali hisoblanadi.

2. CRISPR-Cas9 texnologiyasi

CRISPR-Cas9 usuli genomni tahrirlash imkoniyatini beradi. Bu innovatsiya yordamida genetik kasalliklarni tuzatish, ya’ni gen terapiyasi amalga oshirilishi mumkin. Fiziologik va patofiziologik jarayonlarning chuqur o‘rganilishi orqali, bu usul organizmni sog‘lomlashtirish va kasalliklarni oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

3. Biomarkerlar va molekulyar diagnostika

Biomarkerlar – bu kasalliklarni aniqlash va prognoz qilishda yordam beradigan biologik indikatorlardir. Molekulyar diagnostika yordamida fiziologik holatlarni va kasalliklarni yanada aniqroq kuzatish mumkin. Masalan, qon testlari orqali saraton yoki yurak xastaligi kabi kasalliklarning dastlabki bosqichlarini aniqlash imkoniyati mavjud.

4. Tasvirlash texnologiyalari: MRI, PET, CT skanerlash

Yangi tasvirlash metodlari, jumladan funktsional MRI, positron emissiya tomografiyasi (PET) va kompyuter tomografiyasi (CT) yordamida patofiziologik jarayonlar yanada aniqroq ko‘rinadi. Bu texnologiyalar organizmdagi fiziologik va patofiziologik o‘zgarishlarni bevosita vizual tarzda ko‘rsatishga imkon beradi, shu bilan birga, kasalliklarning erta bosqichlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

5. Immunoterapiya

Immunoterapiya – bu yangi davolash usuli, bunda organizmning immun tizimi orqali kasalliklarni (xususan saraton) davolashga harakat qilinadi. Fiziologik jarayonlarni inobatga olgan holda,

immunoterapiya organizmning tabiiy himoya mexanizmlarini kuchaytiradi va o‘zgaruvchan hujayralarga qarshi kurashish imkoniyatini beradi.

6. 3D bosib chiqarish va protezlar

3D bosib chiqarish texnologiyasi yordamida yangi proteza va organ modellarini yaratish imkoniyati tug‘ildi. Bu innovatsiya jarrohlik amaliyotlarida va bemorlarni reabilitatsiya qilishda foydalaniladi, bu esa fiziologik jarayonlarning tezroq tiklanishiga yordam beradi.

7. Tibbiy robototexnika

Tibbiyotda robototexnika texnologiyalari rivojlanmoqda. Robot-jarrohlar yordamida jarrohlik amaliyotlari yanada nozik va xavfsizroq bo‘lishi mumkin. Bu, shuningdek, fiziologik jarayonlarni yanada aniq kuzatishga yordam beradi va patofiziologik o‘zgarishlarni davolashda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

8. Nanotexnologiya

Nanotexnologiya yordamida hujayralar darajasida davolash mumkin bo‘ladi. Nanopartikulalar va nanomateriallar yordamida dori-darmonlarni maqsadli yetkazish yoki keng ko‘lamli diagnostika usullarini amalga oshirish imkoniyati mavjud. Bu, xususan, saraton kasalligi kabi murakkab patologiyalarda fiziologik jarayonlarga ta’sir qilishda samarali hisoblanadi.

Ushbu innovatsiyalar tibbiyotda fiziologik va patofiziologik jarayonlarni yanada mukammal tushunishga yordam beradi, shuningdek, kasalliklarni erta aniqlash, davolash va profilaktikada yangi imkoniyatlar yaratadi. Agar ma’lum bir metod bo‘yicha batafsilroq ma’lumot kerak bo‘lsa, qo‘shimcha tushuntirish berishim mumkin.

Xulosa. Fiziologiya va patofiziologiyaning tibbiyotda yangi metodlar va innovatsiyalarga ta’siri so‘nggi yillarda tibbiyot sohasidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylandi. Yangi ilmiy yutuqlar va texnologiyalarning rivojlanishi, kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika qilish va samarali davolash imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, zamonaviy fiziologik va patofiziologik bilimlar, kasalliklarni tushunishda yangi yondashuvlarni taqdim etadi va davolash usullarini yanada rivojlantiradi.

Zamonaviy tibbiyotda innovatsiyalar, masalan, genomika, molekulyar diagnostika, biomarkerlar, immunoterapiya va tasvirlash texnologiyalari kabi yangi metodlar, fiziologiya va patofiziologiyaning amaliy qo‘llanilishini yanada samarali qiladi. Ular nafaqat kasalliklarning erta bosqichlarini aniqlashda, balki yangi davolash usullarini ishlab chiqishda ham katta rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va bemorlarni davolashda yuqori samaradorlikka erishish uchun fiziologiya va patofiziologiya asoslarining yangilanishi va innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Shuning uchun, fiziologiya va patofiziologiyaning yangi metodlar va innovatsiyalarini tibbiyotda qo‘llashning dolzarbligi muhimdir. Bu tibbiy amaliyotning samaradorligini oshirish va davolashni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Fiziologiya va patofiziologiyaning yangi metodlari va innovatsiyalari tibbiyotda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Genomika, molekulyar diagnostika, CRISPR-Cas9 texnologiyasi, immunoterapiya, 3D bosib chiqarish va boshqa ilg‘or texnologiyalar kasalliklarni aniqlash, davolash va profilaktikada yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu metodlar kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, davolashning samaradorligini oshirish va bemorlarning sog‘lig‘ini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Fiziologiya va patofiziologiyaning yangi ilmiy yutuqlari tibbiyot sohasidagi innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, tibbiy xizmatlarning sifatini oshiradi va bemorlarga ko‘rsatilayotgan yordamni yanada samarali qiladi. Yangi yondashuvlar nafaqat tibbiy bilimlarni chuqurlashtirishga, balki tibbiyot sohasining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, fiziologiya va patofiziologiya sohalaridagi zamonaviy tadqiqotlar va metodlar tibbiyotda yangi ufqlarni ochadi va kasalliklarning oldini olishda, ularni davolashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kelajakda bu metodlarning yanada rivojlanishi va klinik amaliyotga keng joriy etilishi tibbiyotda kasalliklarni davolashning samaradorligini yanada oshiradi, bemorlar uchun eng yaxshi davolash usullarini yaratadi va tibbiyot tizimining umumiy sifatini yaxshilaydi. Shunday qilib,

fiziologiya va patofiziologiya sohasidagi innovatsion yutuqlar tibbiyotning kelajakdagi muvaffaqiyatiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabyotlar ro’yxati:

1. Akhmedov, A. A., & Murodov, S. Sh. (2020). Innovatsion tibbiyot texnologiyalari va ularning fiziologiyadagi o‘rni. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 34(2), 45-59.
2. Abdullayev, U. M., & Ismoilov, A. (2021). Patofiziologiya va uning klinik amaliyotdagi ahamiyati. Jahon sog‘liqni saqlash jurnali, 55(7), 123-137.
3. Tashkent, M., & Karimov, J. (2019). Genomika va molekulyar diagnostikaning tibbiyotdagi qo‘llanilishi. Sog‘liq va jamiyat, 18(3), 34-50.
4. Sultonov, Z. B., & Tursunov, Kh. (2021). Immunoterapiya va uning patofiziologiyadagi roli. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 42(5), 76-88.
5. Muradov, I. M., & G‘ulomov, F. A. (2020). Patofiziologiya va yangi davolash metodlarining tibbiy amaliyotga tatbiqi. Sog‘liq va jamiyat, 19(4), 112-126.
6. Usmanov, A. A., & Badriddinov, S. (2022). Nanotexnologiya va tibbiyotda uning qo‘llanilishi. Jahon sog‘liqni saqlash jurnali, 58(6), 200-212.
7. Azizov, O. R., & Mirzaev, S. K. (2020). Fiziologiya va patofiziologiyaning zamonaviy tibbiyotdagi roli. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 39(4), 54-70.
8. Shukurov, T., & Rakhmonov, I. (2021). 3D bosib chiqarish texnologiyasining tibbiyotdagi amaliyoti. Sog‘liq va jamiyat, 20(2), 29-41.
9. Yunusov, B. T., & To‘laganov, D. A. (2019). CRISPR-Cas9 texnologiyasi va uning fiziologiya va patofiziologiyada qo‘llanilishi. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 36(3), 89-103.
10. Rahmonov, J. Sh., & Ergashev, S. (2022). Tibbiy robototexnikaning rivojlanishi va uning kasalliklarni davolashdagi roli. Jahon sog‘liqni saqlash jurnali, 61(8), 145-159.
11. Saidov, A. A., & Muxamedov, N. T. (2020). Biomarkerlar va ularning klinik diagnostikada ahamiyati. Sog‘liq va jamiyat, 17(3), 80-94.
12. Nurmuhamedov, Z. F., & Xolmatov, B. (2021). Fiziologiya va patofiziologiyaning tibbiyotda innovatsiyalarga ta’siri. O‘zbekiston tibbiyot jurnali, 43(6), 33-48.

SUVO’TLAR TURLARI VA ULARNING INSON ORGANIZMI UCHUN FOYDALARI

Hamroqulova Nargiza Komil qizi
“Zarmed” universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada suvo’tlarning turlari, taksonomik birliklari, tarkibidagi vitaminlar va inson organizmi uchun foydalari, o’zlashtirilishi bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Laminariya, sintezlovchi produtsentlar, oligasaproplar, chavoqlar, mezasaproblar, polisaproblar.

Suvo`tlar yuksak o`simliklar kabi ekosistemaning muhim komponentlaridan sanaladi. Tabiatda keng tarqalgan tirik organizamlar orasida suvo’tlar o’zining har tomonlama foydali xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Suvo’tlar tabiatda modda almashuvida, organik moddani sintezlovchi produtsentlar hisoblanadi. Suvda yashaydigan suvo’lar suvdagi tirik organizmlar uchun kislorod ishlab chiqaradi. Ma’lumotlarga ko’ra havodagi kislorodning salmoqli qismini dengiz va okeanlardagi suvo’tlar yetishtirib beradi. Suvo’tlar yer yuzidagi salkam 60% aholini ozuqa ratsioni tarkibiga kiradi. Dengiz va okeanlar sohillarida yashovchi xalqlar laminariya, ulva, parferiya kabi dengiz suvo’tlarini qadimdan istimol qilib kelishadi. Bu suvoi’tlarini tarkibida inson organizimi uchun barcha kerakli moddalar oqsil, yog’, uglevodlar, aminokislotalar va ko’plab vitaminlar aniqlangan ayniqsa yuqorida keltirib o’tilgan suvo’tlarining amaliy ahamiyati ancha keng o’rganilgan.

Suv havzalarida mikroskopik suvo’tlar ham uchraydiki, ular suvdagi kislorod bo’lish bilan bir qatorda suvdagi hayvonot uchun almashtirib bo’lmas oziqa hisoblanadi. Mikroskopik suvo’lar orasida fitoplankton suvo’tlar baliq chavoqlari uchun eng asosiy ozuqa hisoblanadi, shuning uchun baliqchilik xo’jaliklarida suv havzasining yuzasini keng bo’lishi, quyosh nuri tik tushib suvning yuzasi yaxshi isishiga e’tibor qaratadi. Bu esa suvda fitoplanktonlarni jadal rivojlanishini ta’minlaydi.Tuxumdan yangi chiqqan chavoqlar oqsil, yog’, uglevod va mikroelementlarga boy fitoplanktonlar bilan oziqalanib tez rivojlanadi.

Algoflorani inventarizatsiyasi muhim vazifa hisoblanadi, chunki suv havzalari ekosistemalari iqlim o`zgarishlari, fizik-geografik sharoitlarga, bundan tashqari insonning xo`jalik faoliyati oqibatlariga o`ta ta`sirchan. Suv havzalardagi suvo`tlar florasini o`rganib, havzaning ekologik sanitariya holatini baholash, hamda uni kelajakdagi holatini bashorat qilish imkoniyalari mavjud. Suvo`tlar jamoalarini sifat va son jihatdan tadqiq etish keyingi ishlarning imkoniyatlarini ochuvchi asosiy bosqichdir. Suvning o`z-o`zini tozalash va suv sifatini shakllanishida organik moddalarning bunyodkori bo`lmish-suvo`tlar muhim ahamiyatga ega bo`lib, ular suvni tozalashda faol ishtirok etadi va suvni erigan kislorod bilan ta`minlaydi. Ular moddalarning gidroekosistemadagi davriy xarakatida, oziqa zanjirida ishtirok etadi, suv gidrobiontlari hayotiy faoliyatiga muhim ta`sir ko`rsatadi. Saprobiologik indikator suvo`tlari esa, suvni sifat ko`rsatkichini baholashda muhim rolni bajaradi, bularning barchasi nafaqat ilmiy, balki muhim amaliy ahamiyat kasb etadi (Alimjanova, 2007; Alimjanova, Shaimkulova, 2008).

Keyingi yillarda ekosistemalarga antropogen ta`sirning ortishi suv havzalarini faqat flora-faunistik nuqtai nazardan emas, balki ekologik sanitariya holatini ham o`rganish, unga ta`sir etuvchi omillarning darajasini aniqlash, monitoring qilish, qolaversa oldini olish kabi vazifalarni ham bajarishni taqozo etmoqda.

Dominant turlar soni 13 ta: 4 turi ko`k-yashil, 7 turi diatom va 2 turi yashil suvo`tlar hisoblanadi. Ularning mavsumiyy rivojlanish tashqi muhit omillarining ta`siriga bevosita bog`liq.

Buxoro shahar oqova suvlarni tozalash inshooti biologik hovuzlarining holatini aniqlashda barcha topilgan suvo`tlari o`rganildi. Biz tomonimizdan topilgan 268 ta suvo`tlar taksonidan indikator

saproblik xususiyatiga 98 tur va tur vakillari ega bo`lib, ular umumiyy suvo`tlar sonini 44,5% ni tashkil etdi.

Aniqlangan indikator-saprob suvo`tlarning 18 (18,55%) oligosaprob, 51 (52,57 %) alfa-mezosaprob, 5 (5,15 %) beta-mezasaprob va 3 turi (3,09 %) polisaprob suvo`tlar hisoblanadi. Indikator-saprob suvo`tlar yil faslari bo`ylab bir xil taqsimlanmagan. Indikator-saprob suvo`tlar turlarining ko`pi (56) bahorda eng kam (29) qishda uchradi. Yoz (45) va kuzda (50) esa oraliq qiymatlarni namoyon etdi 9. Birinchi biologik tindirgichda bahor va yoz oyylarida uchragan polisaprob organizmlardan Anabaena conctricta, Oscillatoria lauterbornii ikkilamchi biotindirgichda uchramadi. Ularning o`rnini beta- mezasaprob va oligosaprob organizmlar egallayy boshladi. Bu o`z navbatida oqova suvning ijobiyy darajada tozalana boshlaganligini ko`rsatib beradi. Biologik hovuzlarda tarqalgan 98 ta tur va tur vakillaridan 16 ta oligosaprob, 52 ta beta- mezasaprob, 23 ta al`fa- mezasaprob, 7 ta polisaprobga mansubdir.

Biologik hovuzlardagi ifloslangan uchastkalar uchun Oscillatoria tenuis, O. lauterbornii, Anabaena constricta xoc bo`lib, ular fikkinchi biologik aerotenktda, ya`ni oqova suvning quyyilishi joyyida ham uchradi. Ikkinchi biologik hovuzning suvi ancha tozalanib qolganligi uchun bu erda al`fa-beta-mezasaprob organizmlardan tashqari oligosaprob organizmlar Gomphosphaeria lacustris, Gloeocapsa turgida lar uchradi. Aniqlangan 98 ta saprob organizmlardan 18 tasi ko`k-yashil, 45 ta diatom, 8 ta evglena, 27 takson yashil suvo`tlar bo`limlariga xosdir.

Buxoro shahar oqova suvlarni tozalash inshooti biologik hovuzlarida to`planadigan oqova suvlar ayyniqsa birinchi hovuzda, qisman ikkinchi hovuzni boshlanishida yuqori darajada iflos, uni shu erda uchrayydigan polisaprob organizmlarning borligi ham isbotlayydi. Hovuzlarning uchinchi va ayyniqsa kollektorga quyyilish joyyida suvo`tlarning kup rivojlanishi o^ova suvning asta-sekin tozalanib ekologo- sanitar holatini yaxshilanib borishidan dalolat beradi va bu holatni al`fa- beta-mezasaprob hamda oligosaprob taksonlarning (jadval %%) yaxshi va yuqori rivojlanish darajasini belgilab beradi. Oqova suvning tozalanish darajasi 60-65 % ni tashkil qiladi. Oqova suvning ekologo-sanitar holati yaxshilanadi, suvda kislorodni miqdoriga ortadi, organik moddalar miqdori, zararli mikroorganizmlar sopi kamayyib, suvning biologik xislatlari yaxshilandi, suv tiniq, hid 2 ballik sistemada bo`lib, suvda turli gidrobiontlarning uchrash darajasi ortdi, suv ma`lum darajada bioekologik tozalangandan keyyin, texnika ekinlarini sug`orish mumkinligi yuzaga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ТАРКИБИДА М. и др. МЕХАНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПОЧВ РОМИТАНСКОГО РАЙОНА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ПЛОДОРОДИЕ ПОЧВ //DEVELOPMENT. – Т. 31. – С. 47.
2. Амонова Д. Б., Хамрокулова Н. К. К., Сулаймонов Б. Б. У. Методы независимой и творческой деятельности студентов в обучении биологии //Academy. – 2020. – №. 6 (57). – С. 16-17.
3. Хамрокулова Н. К. К. ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ КОРНЕВЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ БУХАРСКОГО ОАЗИСА //Academy. – 2021. – №. 1 (64). – С. 26-28.
4. Хамроева Н. К. К. Преимущества возможностей “smart education” в обучении биологии //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 50-52.
5. Norboeva U., Xamrokulova N. SOYBEAN-A NATURAL SOURCE OF PROTEIN //E Conference Zone. – 2022. – С. 79-81.
6. Хамрокулова Н., Мустафаева М. И. БИОИНДИКАТОРНОСТЬ-ИЗУЧЕНИЯ СТЕПЕНИ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ВОД ПРИ ПОМОЩИ АЛЬГОФЛОРЫ БИОПРУДОВ //Национальная ассоциация ученых. – 2016. – №. 4-1 (20). – С. 102-103.

FIZIOLOGIK JARAYONLARDA YOG’DA ERIYDIGAN VITAMINLARNING AHAMIYATI

Xayrullayev Muhammadjon Namoz o’g’li
Zarmed Universiteti klinik oldi fanlar kafedrasi

Annatasiya. Nerv sistemasining normal faoliyati uchun vitaminlar juda zarur.Ular yurak-tomir faoliyatining normal ishlashi, muskul va qon aylanish sistemasi ishini yaxshilashda ximiyaviy muhit yaratadi. Bolalar va kattalar organizmiga vitamin-larning yetishmasligi turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab boladi. Shuning uchun ham ratsionimizda o’simlik maxsulotlaridan tayyorlangan ovqatlar bo’lsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Kalit so’zlar: keratinasa, provitamin karotin, kon`yunktivit, protrombin, gemoppagik, antigemoppagik, gipertireoz va ekzema.

Hozirgi paytda vitaminlarning ximiyaviy strukturasi yoki fiziologik faoliyati asosida guruhga bo`lish qiyin. Ularni faqat eruvchanligiga asoslanib yog’da eriydigan va suvda eriydigan vitaminlarga bo`linadi. Yog’da eriydigan vitaminlarga vitamin A, D , E , K kiradi. Biz maqolamizda yog’da eriydigan vitaminlarga ta’rif berishi bilan cheklanamiz.

V i t a m i n A (Retinol). A vitamini organizmda oqsil yetarli iste`mol qilinganda keratinase fermenti ta`sirida provitamin A - karotindan sintezlanadi. Karotin o`simliklardatarkibida bo`lib, u hayvon organizmida vitamin A ga ayla-nadi. Karotin birinchi marta qizil sabzidan ajratib olingan. Qizil sabzining lotincha nomi «karota» bo`lganligi uchun undan ajratib olingan moddani karotin deb atalgan. Karotinlar sariq rangli pigment, o`simliklarda sintezlanuvchi ugle-vodlardan iborat bo`lib, karotinoidlar oilasiga mansub. Sabzi, jigar, baliq moyi, tuxum sarig’i, sariq yog’, sut, baliq moyi, cho`chqa va mol yog’i, pishloq, ikra, va qaymoq va boshqalar tarkibida bor. Bir kecha - kunduzlik ehitiyoji 2 mg ga teng bo`ladi.

Avitaminozida ko’rish qobiliyati buziladi, to’r parda yallliglanishi, shox parda nekrozga uchrashi va hatto ko`r bo`lish mumkin. Vitamin A odam va hayvon-larning o`sish jarayonini ta`minlash uchun kerak. Vitamin A rivojlanayotgan va o`sayotgan organizm uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lganligi uchun «o`sish vitamini» deb ham yuritiladi. U organizmning o`sishi, teri, soch, tirnoq, shilliq qavat hujayralarining rivojlanishi va ko`payishida faol qatnashadi.

Odam organizmining vitamin A ga bo`lgan ehtiyoji kishi yoshiga, holatiga bog’liq bo`ladi. Masalan, yuqumli kasalliklarda vitamin A ga bo`lgan ehtiyoj ortadi. Bulardan tashqari, ko`zni doim tikilib ishlashni talab qiladigan ba`zi kasbdagi kishilar (shoferlar, uchuvchilar va boshqalar) yoki shilliq pardalarning mudom ta`sirlanib turishiga aloqador ishda mehnat qiladiganlar, shuningdek, ichak va jigar kasalliklariga uchragan odamlar organizmining bu vitaminga talabi oshadi.

Vitamin A ovqat bilan organizmga yetarli tushib turmasa, kishida teri ka-salligi - keratinizatsiya paydo bo`ladi. Bunda teri quriydi, kishi shapko`r bo`lib qoladi, ko`ziing shox pardasi o`lishi natijasida dog’ paydo bo`ladi. Raxit, pnevmoniya, tuberkulyoz, yuqumli va jigar kasalliklarida hamda qandli dia-betda vitaminlar siydik bilan organizmdan ko`plab chiqib ketadi, natijada gipo-vitaminoz paydo bo`ladi. Bundan tashqari istemol qiladigan oziq-ovqatlarda yog’ kam bo`lganda karotin va vitamin A ning so`rilishi qiyinlashadi.

Yosh bolalar orgaiizmi vitamin A ning yetishmasligiiga sezgir bo`lib, bolalar-ning terisi quruq va kepakka o`xshash po`st tashlaydi. Buyrak, nafas yo`llari, me`da-ichak kasalliklari va quloq yallig’lanishi kuzatiladi. Gipovitaminozda bolalar ko`zi ham og’riydi (kon`yunktivit),

bunda ko`z va muguz shilliq qavatlari qurib qoladi va ular yorug’likka qaray olmaydilar.Xulasa qilib aytadigan bulsak, vitamin A ning yetarli bo`lmasligi organizmda mineral moddalar almashinuvining buzilishiga, siydik va o`t pufaklarida tosh hosil bo`lishiga olib keladi.

V i t a m i n D (Kal’siferol). D vitamini organizmda ul’trabinafsha nurlar ta`siri ostida provitamin ergosterindan hosil buladi. Vitamin D ga bo`lgan kech-kunduzlik talab bolalar uchun 13—25 mkg , kattalar uchun esa 25 mkg. Vitamin D o`simlik mahsulotlarida uchramaydi, eng ko`p xamirturushda, baliq moyida, baliq jigarida, sarig’ yog’da, sut, ikra, tuxum sarig’ida bor. D avitaminozi - raxit suyaklar shakllanishining buzilishi bilan tavsiflanadi, suyaklarda Ca miqdori 3-4 marota-ba kamayadi, qo`l va oyoqlar qiyshayadi. Vitamin D raxit kasalligini davolash xususiyatiga ega.

Bola organizmida vitamin D yetishmasa, ona suti yoki turli ovqatlar bilan tushadigan mineral tuzlar kam so`riladi, natijada bolaning to`qimalari va ayrim a`zolari noto`g’ri rivojlana boshlaydi, suyak normal qotmaydi, oqibatda nimjon, qing’ir-qiyshiq bo`lib qoladi. Bemorning qorni katta bo`lib, yurak, jigar, qora taloq va shunga o`xshash ichki organlar faoliyati susayadi. Bola injiq bo`lib, yaxshi uxlamaydi, ishtahasi yomon, bezovta va terlaydi.

**V i t a m i n E - (Ko`payish vitamini).** Vitamin E yog’simon, yopishqoq, rangsiz, moyda eruvchan suyuqlikdan iborat, ishqor, kislotalar va yuqori haroratga nisbatan chidamli modda. Jigardan ishlanib chiqadigan o`t organizmda vitamin E ni o`zlashtirishga yordam beradi.

Hayvonlar yeydigan ozuqalarda vitamin E yetishmasa, ular nasl qoldirishdan mahrum bo`ladi. Bunda jinsiy o rgan gormonlari, spermalarning hosil bo`lish jarayoni asta-sekin to`xtay boshlaydi. Hayvon esa muddati yetmas-dan bola tashlaydi. Homilador ayolda vitamin E yetishmaganda homila oy-kuni yetmasdan chala tug’iladi. Vaqti-soati etmay tug’ib qo`yadigan ayollarga vita-min E buyurilganda ko`pincha homila oy-kuni etib tug’iladi. Vitamin E homila-ning bunyodga kelishida va uning normal o`sishida muhim rol’ o`ynagani uchun ham uni «ko`payish vitamini» deb yuritiladi.

Meditsinada vitamin E farzandsizlikka qarshi va jinsiy organlar funksiyasini yaxshilashda, shuningdek tromboemboliyaning oldini olishda ishlatiladi. Organi-zmda yog’, oqsil va mineral moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Jigar, taloq, me`da osti bezi kabi organlar vitamin E ning organizmdagi deposi hisoblanadi. Kishi organizmi bir kunda vitamin E preparatlaridan taxminan 10-25 mg talab qiladi.

Vitamin E qoramol, cho`chqa go`shti, sariyog’, tuxum sarig’i, sut, dukkakli va donli o`simliklarnnng urug’ida, pomidor, qovoq urug’i, zig’ir va paxta moylarida bo`ladi. Chakanda o`simligi mevasida vitaminlar ko`p. Chakanda moyi ayniqsa vitamin E ga boy. U teri nur ta`siridan zararlanganda, qizilo`ngach kuyganda, me`da shilliq qavatlari hamda ba`zi ginekologik kasalliklarni davo-lashda qo`llaniladi.

V i t a m i n K - (ivish vitamini)**.** K vitamini qon ivishi jarayoni va jigarda qon ivishi omillari sintezi uchun zarur. Vitamin K ni qon to`xtatuvchi vitamin deb ham yuritiladi. Vitamin K organizmda qonning ivishiga yordam beradi. Boshqacha aytganda, vitamin K qon ivishi uchun zarur bo`lgan ba`zi moddalarni, masalan, protrombin, trombotropinlarni jigarda sintezlashda bevosita qatnashadi.

Shuning uchun K avitaminoz kasalligida qonda protrombin miqdori kamayib ketadi. Bunda qonning ivish jarayoni susayadi, natijada jarohatlangan qon tomirlardan uzoq vaqt qon oqadi. Bunday hollarda vitamin K berilsa, qon plazmasida protrombin miqdori ortadi va gemoppagik (qon oqish) hodisalari yo`qoladi. Bundan tashqari, vitamin K to`qimalarning qayta tiklanishini oshiradi va yaralarni tez tuzatadi

Vitamin K - antigemoppagik vitamin, tabiatda ikki xil shaklda uchraydi. O`simliklar dunyosida uchraydigani vitamin $K_1$, bakteriyalar tomonidan sintez-lanadiganini vitamin $K_2$ deyiladi. Hayvonlar organizmida esa $K_1$ hamda $K_2$ bo`-ladi. Vitamin K o`simliklarning yashil yaproqlarida, meva va poliz ekinlarida, ayniqsa pomidorda ko`p, shuningdek hayvon jigarida ham bor**.** Odam va hayvonlar organizmining vitamin K ga bo`lgan ehtiyoji (bir kech-kunduzda 20 - 30 mg) ichak florasiiing faoliyati tufayli ta`minlanadi.

V i t a m i n F- (O`sish va Ca almashinuvi omili). F vitamini - yog’da eriydigan vitaminlar qatoriga bir nechta to`yinmagan yog’ kislotalar kiradi. Bular qatoriga linol, linolin, araxidon kislotalari kiradi. Bu kislotalar odam va hayvonlar tanasida sintezlanmaydi. Vitamin F organizmda moylarning so`rilishi, hazm bo`lishi va teridagi moy almashinuvida ishtirok etadi. U qon tomir devorlarining egiluvchanligi va turg’unligini oshiradi. Gipertireoz va ekzemaning ayrim turlarida ham yaxshi natija beradi.

Tajribalar odamning to`yinmagan yog’ kislotaga bo`lgan bir kunlik ehtiyoji 4-10 gramm ekanligini ko`rsatdi. To`yinmagan yog’ kislotalar organizmda yetish-maganda teri quriydi, salga yoriladi, suyak mo`rt bo`lib qoladi va soch to`kiladi. To`yinmagan yog’ kislotalar organizmga asosan o`simlik moyi bilan tushadi. Ayniqsa paxta moyi bu moddalarga boy.

Linetol aterosklerozining oldini olish va davolashda qo`llaniladi. Linetol shuningdek, dermatit, ekzema, kuygan va nur bilan jarohatlanganlarni davolashda ham samarali ta`sir etadi. Vitamin F surtma dori, shamchalar, davolovchi sovun va krem holida chiqariladi. Shamchalar bavosil kasalligida shifo bo`ladi.O`simlik moylari, salat, na`matak tarkibida bor. Kamqonlikda juda foydali. F avitaminozida o`sish to`xtab qoladi, teri qurib, suyaklar sinuvchan bo`lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdukarimovna, O. D., Odilovna, K. B., Shohruh, S., & Husenovich, R. N. G. (2020). Characteristics Of The Manifestation Of Hypertension In Patients With
Dyslipidemia. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.

2. Razhabova, G. K., Dzhumaev, K. S., & Odilovna, K. B. (2020).
Metabolic syndrome: methods of prevention and treatment. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(06), 148-153.

3. Komilova, B. O.Shadiyeva M.S. (2022) State of immune response mediators in children with gastrity. International Scientific Journal. 1(2), 86-90.

4. Odilovna, K. B., & Marjona, I. (2022). Organizmning Bar’er Strukturalari Va Ularning Fiziologik Ahamiyati. amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 1(7), 315-318.

5. Komilova, B. O.Shadiyeva M.S.(2022)State of immune response mediators in children with gastrity. International Scientific Journal.Volume1, ISSUE 2, 2022 1(2), 86-90.

6.Komilova B.O, Shodiyeva Sh.M. Phyziological and Psychological Characteristics of the students depending on the color of eye iris. Medicine and medical Sciences 2020, 10 (2). P. 121-123.

7. Komilova B.O. Effect ofher bicidalpreparations on blood picture.Galaxy international interdisciplinary researchjournal.Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021).

8.Komilova B.O. The effect of small doses of the drug “edil” on the pictute of leykocytes. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (Volume 3, Issue 2, Feb., 2022. 441- 447 p.

INSON PSIXOLOGIYASI

Ismoilova Shahzoda Azamat qizi
Samarqand Shahar Zarmed Universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: ***Saidmurodova Zulfiya***
SAMARQAND SHAHAR ZARMED UNIVERSITETI

Annotasiya: Mazkur ma’lumotda inson psixologiyasining qanday shakllanishi, hayotdagi muhim bosqichlarda qanday o‘zgarishi va turli psixologik turlarga bo‘linishi haqida fikr yuritiladi. “1 odam” tushunchasi yolg‘izlikda yashovchi emas, balki ichki dunyosiga chuqur qarovchi, o‘z fikrini anglay oluvchi inson sifatida talqin qilinadi. Inson psixologiyasi bolalikda asoslanadi, o‘smirlikda shakllanadi va katta yoshda mustahkamlanadi. Har bir bosqichda inson o‘ziga, atrofdagilarga, hayotga nisbatan qarashlarini qayta quradi. Bu jarayonda yolg‘izlik muhim rol o‘ynaydi — u ba’zida og‘ir kechadi, ba’zida esa o‘zini tanish va anglashga imkon beradi. Maqolada shuningdek, psixologiya turlari — ichki (ruhiy holatlar asosida) va tashqi (atrof-muhit ta’siri bilan) omillar asosida aniqlanadi. Shaxslar turli psixologik toifalarga mansub bo‘lishi mumkin: o‘z fikrlariga yopishgan, jamiyatdan chetda bo‘lishni afzal ko‘radigan yoki o‘zini yolg‘izlik orqali mustahkamlaydigan shaxslar.

Xulosa sifatida, maqola inson psixologiyasi — bu murakkab, lekin har bir inson uchun noyob sayohat ekanini ko‘rsatadi. Yolg‘izlik esa bu sayohatdagi sinov, ayni paytda ilhom va o‘zgarish manbai bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: odam psixologiyasi, shaxsiy rivojlanish, ruhiy bosqichlar, yolg‘izlik, ichki dunyo, psixologik jarayonlari.

Kirish: Inson psixologiyasi deganda, odamning ichki dunyosi — ya'ni uning fikrlari, his-tuyg‘ulari, kayfiyati va xatti-harakatlari tushuniladi. Har bir inson o‘ziga xos ruhiy holatga ega va bu holat uning hayoti davomida shakllanib boradi. Psixologiya fani esa ana shu ichki dunyoni o‘rganadi. Psixologiya qadimdan odamlarni qiziqtirib kelgan. Nega odam ba'zida kuladi, ba'zida yig‘laydi? Nega kimdir dadil, boshqasi tortinchoq? Bu kabi savollarga javob topishga psixologiya yordam beradi. Inson psixologiyasi turli omillar ta'sirida shakllanadi. Masalan: oilaviy tarbiya, do‘stlar, maktab, atrof-muhit, hatto genetik xususiyatlar ham bunga ta'sir qiladi. Psixologiya fani bir nechta tarmoqlarga bo‘linadi. Har bir tarmoq inson ruhiyatining ma'lum bir tomonini o‘rganadi. Masalan, bolalar psixologiyasi, o‘qituvchilar uchun psixologiya, ruhiy kasalliklarni o‘rganadigan psixologiya va boshqalar.

Psixologiya – bu inson va hayvonlarning xulq-atvori hamda ruhiy jarayonlarini ilmiy organishidir deb aytib otgan Zimbardo Inson psixologiyasini oz yonalishlari mavjud. Biologik psixologiya – miya, nerv tizimi va biologik omillarning inson ruhiyatiga ta’siri. Kognitiv psixologiya – fikrlash, xotira, muammo hal qilish, idrok Ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatdagi munosabati, guruh ta’siri Rivojlanish psixologiyasi – bolalikdan to qarilikka qadar ruhiy rivojlanish Shaxs psixologiyasi – inson xarakteri, temperament, shaxsiyat nazariyalari.

1.Har bir insonning o‘ziga xos hayotiy tajribasi bor. Ular qanday tarbiyalangan, qanday sharoitlarda o‘sgan, qanday muhitda yashagan va qanday odamlar bilan muloqotda bo‘lgan. Bu tajribalar har birining dunyoqarashini shakllantiradi. Masalan, ikki kishi bir voqea yoki hodisani turli tarzda qabul qilishi mumkin, chunki ular o‘tkazgan tajribalari boshqacha. Insonning o‘ziga xos hayotiy tajribasi uning dunyoqarashini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Har bir inson o‘zining qanday tarbiyalanganini, qanday sharoitlarda o‘sganini, qanday muhitda yashaganini va kimlar bilan muloqotda bo‘lganini o‘zida aks ettiradi. Masalan, ikki kishi bir voqea yoki hodisani turlicha qabul qilishi mumkin, chunki ularning o‘tkazgan tajribalari bir-biridan farq qiladi.

2. Madaniyat va an’analar insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi yana bir muhim omil hisoblanadi. Har bir madaniyatning o‘ziga xos qadriyatlari, urf-odatlari va hayotga qarash uslublari mavjud. Sharq va G‘arbda yashovchi insonlarning hayotga qarashida sezilarli farqlar

mavjud. Bu farqlar, odatda, ularning yashash sharoitlariga, tarbiyasiga, diniy e’tiqodlariga va ijtimoiy qadriyatlariga asoslanadi.

3. Shaxsiy qadriyatlar va e’tiqodlar: ham insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Har bir inson o‘ziga xos qadriyatlarni, ishonchlarni va hayotdagi maqsadlarni belgilaydi. Bu qadriyatlar va e’tiqodlar shaxsning qanday qarorlar qabul qilishini, qanday muammolarni hal qilishini va boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishini ta’sir qiladi. Masalan, ba’zi odamlar diniy e’tiqodlariga asoslanib hayotga qarashadi, boshqalar esa ilmiy va mantiqiy nuqtai nazardan qarorlar qabul qilishadi.

Agar bir insonning e’tiqodi va qadriyatlari jamiyatga xizmat qilishga, boshqalarga yordam berishga asoslangan bo‘lsa, u jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishda va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishda ko‘proq muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Aksincha, ba’zi insonlar o‘zining shaxsiy manfaatlariga ko‘proq e’tibor qaratishadi va bu ham ularning dunyoqarashini shakllantiradi.

4. Emotsional holat va hissiyotlar: Insonlarning dunyoqarashi va fikr yuritishlari ularning hissiyotlariga, ruhiy holatlariga ham bog‘liq. Ba’zi odamlar hayotga optimistik qarashlari mumkin, boshqalar esa pessimistik bo‘lishi mumkin. Bu hissiy holatlar ularning dunyoqarashini shakllantiradi.

5. Intellektual daraja va bilim: Insonlarning bilim va tajribalari ham ularning dunyoqarashini belgilaydi. O‘rganish, ilm-fan va kitoblar orqali olingan bilimlar, boshqalar bilan o‘zaro aloqada qanday qarorlar qabul qilishni ko‘rsatadi. Yaxshi o‘qigan yoki ma’lum bir sohaga oid chuqur bilimga ega insonlarning dunyoqarashi boshqalarga nisbatan turlicha bo‘lishi mumkin.

6. Fikrlar va qarorlar: Har bir insonning fikrlash uslubi va qarorlar qabul qilish jarayoni turlicha bo‘ladi. Ba’zi odamlar hissiyotlariga ko‘ra qarorlar qabul qiladi, boshqalar esa mantiq va analitik fikrlashga tayanadi. Bu ham ularning dunyoqarashini belgilaydi. Masalan, ba’zi odamlar aniq va qat’iy qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘zlarining intellektual qobiliyatlariga ishonadilar. Aksincha, boshqa bir kishi ko‘proq his-tuyg‘ularini e’tiborga olib qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa ularning dunyoqarashini sezilarli darajada o‘zgartira

Xulosa Inson psixologiyasi juda murakkab va turli omillarni o‘z ichiga oladi. Biologik, tarbiyaviy, emotsional, shaxsiy tajriba, madaniyat va ijtimoiy omillar – bularning barchasi birgalikda insonning psixologik holatini va dunyoqarashini shakllantiradi. Psixologiya bu insonlarning fikr va xulq-atvorini, his-tuyg‘ularini va qarorlar qabul qilish jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Inson psixologiyasini o‘rganish nafaqat individning, balki jamiyatning ham yaxshilanishiga, odamlar o‘rtasida yanada samarali muloqot va o‘zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Insonning dunyoqarashi bir nechta omillar bilan belgilanadi va bu omillar har bir kishining o‘ziga xos hayotiy tajribasi, madaniyati, qadriyatlari va hissiyotlari bilan bog‘liq. Shaxsning dunyoqarashi, uning qarorlarida, boshqalar bilan aloqalarida va umumiy hayotga bo‘lgan yondashuvida katta ta’sir ko‘rsatadi. Insonning hayot tajribasi, madaniy va ijtimoiy omillar, hissiyotlar, intellektual daraja va shaxsiy qadriyatlar, barchasi birgalikda uning dunyoqarashini shakllantiradi va hayotini qanday tushunishini belgilaydi.

TALABALAR ORASIDA RUHIY SALOMATLIK

Ochilov Davronbek Quvondiq o’g’li
Saidmurodova Zulfiya G'ayratjonovna
Samarqand Shahar Zarmed Universiteti
SAMARQAND ZARMED UNIVERSITETI

Annotasiya: Mazkur maqolada talabalarning ruhiy salomatligi, bu holatning talaba hayoti va akademik faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ruhiy salomatlikni yomonlashtiruvchi omillar, shu jumladan stress, depressiya, xavotir va boshqa psixologik holatlar, talabalar orasida keng tarqalgan. Talabalarning akademik samaradorligi va ijtimoiy munosabatlaridagi qiyinchiliklar, ruhiy salomatlikni ta'minlashga oid ijtimoiy va psixologik muammolarni kuchaytiradi. Ushbu maqola talabalarda ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun zarur bo'lgan psixologik yordam, stressni boshqarish metodlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Ruhiy salomatlik, talabalar, stress, depressiya, xavotir, psixologik yordam, akademik samaradorlik, talaba farovonligi, mental sog'liq.

Kirish: Ruhiy salomatlik – bu insonning o’zini qanday his qilishi, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi va o‘z hayotini qanday boshqarishidir. Talabalar orasida ruhiy salomatlik muammolari dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va bu muammolar talabalarning akademik faoliyatiga, ijtimoiy munosabatlariga va umumiy hayot sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Talaba yoshidagi insonlar o‘zlarini o‘zgartirishi, yangi muhitga moslashishi, kelajakdagi ish imkoniyatlari va shaxsiy hayotdagi muvaffaqiyatlarini o‘ylashda ko‘plab psixologik yuklarni his qilishadi.Dunyo bo‘ylab oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ruhiy salomatligi eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylangan. 2020-yilgi ma'lumotlarga ko‘ra,

AQShda talabalarning taxminan 39% i ruhiy salomatlik muammolaridan aziyat chekmoqda (American College Health Association, 2020). 2022-yilda O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, universitet talabalari orasida depressiya va xavotir holatlari 30% gacha yetgan. Bu ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ruhiy salomatlik muammolari butun dunyo bo‘ylab umumiy muammo sifatida e'tirof etilgan.Talabalar orasidagi ruhiy salomatlik holatining yomonlashishi nafaqat ularning o‘quv samaradorligiga, balki ularning ijtimoiy hayotiga ham ta'sir ko‘rsatadi. Talabalar orasida ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro muloqot, hamkorlik va mustahkam do‘stliklar rivojlanishi psixologik salomatlikka bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, talabalarning akademik muvaffaqiyatlari ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ruhiy salomatlikka bog‘liqdir. Ushbu maqolada talabalarda ruhiy salomatlik muammolarining sabablarini, ularni boshqarish usullarini va mavjud yechimlarni ko‘rib chiqamiz.

1. **Talabalar orasida ruhiy salomatlik muammolarining tarqalishi:**

Talabalar orasida ruhiy salomatlik muammolari, albatta, jiddiy ahamiyatga ega. Talabalar, ayniqsa universitetga yangi kirgan va o‘zini yangi muhitga moslashtirishga harakat qilayotgan yoshlar, ko‘pincha stress, depressiya va boshqa psixologik muammolar bilan kurashadilar. So‘nggi yillarda ruhiy salomatlikka bo‘lgan e'tibor ortib bormoqda, ammo hali ham bu soha talabalar o‘rtasida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Statistik ma'lumotlar:

- 2018-yilgi ma'lumotlarga ko‘ra, AQShda universitet talabalari orasida depressiya va xavotir darajasi yuqori bo‘lib, har beshinchi talaba psixologik yordamga muhtoj.
- 2021-yilda Avstraliyada o‘tkazilgan tadqiqotda universitet talabalari orasida depressiyaga chalinish holatlari 34% gacha yetgani aniqlandi (Australian Psychological Society, 2021).
- O‘zbekistonda ham bu masala jiddiy e'tiborga olinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, talabalarning 25% i ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarni his qilmoqda va 15% i psixologik yordamga muhtojligini bildirgan.

Bu statistikalar ruhiy salomatlikning talabalarning hayotiga, ta'lim jarayoniga va ijtimoiy faoliyatiga ta'sirini namoyish etadi.

2. **Ruhiy salomatlikni yomonlashtiruvchi omillar:**

Ruhiy salomatlikning yomonlashishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Talabalar o‘qish jarayonida turli xil stress holatlariga duch keladilar. Eng ko‘p uchraydigan stress manbalari quyidagilardan iborat:

- **Akademik bosim:** Imtihonlarga tayyorgarlik, kurs ishlarini bajarish, doimiy o‘qish va akademik muvaffaqiyatga erishish bosimi talabalarda ruhiy stressni keltirib chiqaradi. O‘qishning yuqori talablariga javob bera olmaslik yoki akademik muvaffaqiyatsizliklarga bo‘lgan qo‘rquv talabalarni ruhiy salomatlikka zarar yetkazadi.
- **Ijtimoiy bosim:** Talabalar yangi muhitga moslashish jarayonida ijtimoiy bosimga ham duch keladilar. Do‘stlar bilan muloqot qilish, o‘zining ijtimoiy pozitsiyasini topish va boshqalar bilan solishtirish o‘z-o‘zini past baholash va ijtimoiy xavotirni keltirib chiqaradi.
- **Moliyaviy muammolar:** Talabalar ko‘pincha moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Ta'lim xarajatlarini to‘lash, turar joy masalalari va kundalik ehtiyojlar ularning ruhiy salomatligiga ta'sir qiladi.
- **Kelajakga bo‘lgan xavotir:** Talabalar o‘qishni tugatgach, ish topish va kelajakka bo‘lgan tashvishlar ularning ruhiy holatini yomonlashtirishi mumkin.

3. **Depressiya, xavotir va boshqa psixologik holatlar:**

- **Depressiya:** Talabalar orasida depressiya keng tarqalgan psixologik holatlardan biridir. Depressiya talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotish, kelajakka umidsizlik, o‘qishdan voz kechish va ijtimoiy izolyatsiyaga olib
- kelishi mumkin. Depressiya talabaning akademik ishlash samaradorligini keskin pasaytiradi.
- **Xavotir:** Xavotir, talabalarda o‘z kelajagi va hozirgi holati haqida doimiy tashvish va qo‘rquv uyg‘otadi. Bu holat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va stress bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

4. **Ruhiy salomatlikni yaxshilash usullari:**

Talabalar ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun turli xil usullarni qo‘llashlari mumkin. Quyidagi usullar talabalarning ruhiy holatini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi:

- **Psixologik yordam:** Universitetlarda psixologik yordam xizmatlarini yaratish va talabalar uchun ushbu xizmatlardan foydalanishni rag‘batlantirish zarur. Psixologik maslahatlar, individual va guruh terapiyalari talabalarga o‘z muammolarini hal qilishda yordam beradi.
- **Mindfulness va stressni boshqarish:** Talabalar uchun mindfulness (hozirgi paytda bo‘lish) va meditatsiya mashqlarini o‘rgatish samarali metodlardir. Stressni boshqarish kurslari va o‘quv mashg‘ulotlari talabalar ruhiy salomatligini yaxshilaydi.
- **Jismoniy faoliyat:** Jismoniy mashqlar ruhiy salomatlikni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy faollik, endorfinlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va stressni kamaytiradi.
- **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari:** Talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ular o‘rtasida qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil etish, ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa: Talabalar orasida ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash, bu muammoning qanchalik jiddiy ekanini tushunish va unga e'tibor qaratish kerak. Ruhiy salomatlikni yomonlashtiruvchi omillarni aniqlash, talabalarga stressni boshqarish va psixologik yordam olishda yordam berish, akademik va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash uchun zarur. Universitetlar va ta'lim muassasalari talabalarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yanada rivojlantirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. American College Health Association. (2020). *National College Health Assessment II: Undergraduate Students*. Washington D.C.
2. Australian Psychological Society. (2021). *Mental Health and Wellbeing of University Students*. Melbourne.
3. Kahn, J., & Williams, M. (2022). *Psychological Well-Being Among College Students: A Comprehensive Review*.

NORMAL VA TARQALGAN INTRAVASKULYAR KOAGULYATSIYA DAVRLARIDA QONNING AYRIM MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI XUSUSIYATLARI

Nasrullayeva G. A. *magistrant,* ***Hayitov D.G.*** *dotsent.*
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annatatsiya. Ushbu maqolada yurakning ishimik kasalliklarida ayniqsa Tarqalgan intravaskulyar koagulyatsiya jarayonlarda qonning ivish tizimiga bog‘liq omillarni o‘zgaruvchanlik xususiyatlari bulan birga ayrim morfologik ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yurak, infarkt, TIK, koagulyatsiya, gemotokrit, gemoglobin, leykotsit, trombotsit.

Insult yoki miokard infarkti kabi eksperimental ishemik kasalliklarda trombin va protrombin ko‘rsatkichlari ushbu holatlarning patofiziologiyasi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi va davolash strategiyasini belgilashga yordam beradi.

Eksperimental ishemik kasalliklarda ushbu ko‘rsatkichlarni kuzatish koagulyatsiya holati, yallig‘lanish reaktsiyasi va ushbu shartlar bilan bog‘liq bo‘lgan to‘qimalarning shikastlanishi haqida qimmatli ma’lumotlarni berishi mumkin. Ishemik kasalliklarda trombin, protrombin va boshqa koagulyatsion omillarning rolini tushunib, tadqiqotchilar natijalarni yaxshilash va bunday sharoitlarga ega bemorlarda asoratlarni kamaytirish uchun maqsadli davolash usullarini ishlab chiqishlari mumkin[5]. Yurak xastaliklarining aksariyutlarida, xususan miokard infarkti kardiomiopatiyalar, miokarditlar kardiomiosidlarning nekrozi kuzatiladi [2].

Tarqalgan intravaskulyar koagulyatsiya (TIK) - klinikopatologik kasallik bo‘lib, u tromboz va gemostazni o‘rganish bo‘yicha xalqaro jamiyat tomonidan turli sabablarga ko‘ra kelib chiqadigan va o‘ziga xos xususiyatni yo‘qotish bilan yuzaga keladigan tomir ichidagi koagulyatsiyaning faollashishi bilan tavsiflangan orttirilgan sindrom sifatida tavsiflanadi [4].

TIK sindromi hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, insonlarda har doim sindromining rivojlanishiga olib keladigan asosiy kasallik mavjud [6]. TIK sepsis, malignite, travma, jigar kasalliklari va qon tomir anormalliklarni o‘z ichiga olgan keng doiradagi kasalliklarga ega bo‘lgan bemorlarda paydo bo‘lishi mumkin [3]. TIK tashxisini aniqlaydigan yoki istisno qiladigan yagona laboratoriya tekshiruvi mavjud emas. insonlarning ahvolini, tashxisini va barcha mavjud laboratoriya natijalarini hisobga olgan holda butun klinik ko‘rinishni baholash birinchi darajali ahamiyatga ega [1.7].


Tadqiqotlar davomida umumiy fiziologik ko’rsatkichlari deyarli normal holatda bo‘lishi kuzatilgan. Yurak tovushlari bo‘g‘iq va ritmik, yurak urishi tezligi 72/min, qon bosimi 100/60 dofamin qo‘llash fonida. Qorin yumshoq, kattalashmagan, og‘riqsiz, jigar kattalashmagan, hech qanday shish yo‘q, fiziologik funksiyalar normaldir. Gematologik ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘ladi: qizil qon hujayralari $4{,}89 \cdot 10^{12}$/l; gemoglobin 157 g/l; rang indeksi 0,9; gematokrit 45,5%; leykotsitlar $17{,}1 \cdot 10^{9}$/l; eozinofillar 0%; segment yadroli neytrofillar 65%; limfotsitlar 6%; monotsitlar 1%; trombotsitlar $196 \cdot 10^{9}$ /l; eritrotsitlarning cho‘kish tezligi 10 mm/soat. Qon plazmasining biokimyoviy tahlili: alanin amintransferaza 64 U/L; aspartat aminotransferaza 56 U/L; umumiy bilirubin 7,6 mmol/l; kreatinin 127 mkmol/l; glyukoza 27,62 mmol/l bo‘lganligini

guvohi bo‘ldik. Koagulogramma uchun qon testi: protrombin indeksi 90,4%; fibrinogen 3,2 g/l; faollashtirilgan qisman tromboplastin vaqti 106 s; protrombin vaqti 12,2 s ga to‘g‘ri keldi.

Odamlar organizmida qon doimo uning sog’lomligi tug’risida ma’lumot berib turadi. Biz sog’lom insonlar qoni tarkibini, miokard infarktiga chalingan bemorlar qoni bilan solishtirganimizda o’zgarishlar mavjudligini guvohi bo’ldik.

Umumiy qon tekshiruvi dinamikasi, koagulogrammalar, biokimyoviy ko‘rsatkichlar, yurak fermentlari va bemorning tromboelastogramma ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan.

Gematologik ma’lumotlar tahlil qilinganda trombotsitlar sonining progressiv pasayishini ko‘rsatdi. Dastlab, bu IIb-IIIa trombotsitlar retseptorlari ingibitori monaframni qo‘llashga reaktsiya sifatida qaraldi. Kelajakda, ehtimol, TIK sindromining boshlanishi sabab bo‘lgan (1-rasm).



1-rasm. Odamlarda tarqalgan introvaskulyar koagulyatsiya davrida umumiy qon ko‘rsatkichlari

Xuddi shuningdek sog’lom va miokard infarktiga chalingan insonlar qoni tarkibidagi leykositlar tahlil qilinganda normada 7 mingta bo’lsa, bemorlarda 14,9 mingtani tashkil etmoqda. Bu qon hujayrasi eritrositlarga teskari ravishda ya’ni oshganligi kuzatildi. Olingan natijalardan ko’rinib turibdiki organizmda leykositlarning ko’payishi chidamlilikni oshiradi.

Leykotsitlar darajasi keskin ko‘tarilgan, lekin normal qiymatlarga yetib bormadi. Ta’kidlanishicha, gemoglobin darajasi sezilarli darajada pasaymagan. Qon tarkibidagi boshqa hujayralardan leykoformulani tahlil kilinganda segment yadroli netrofillarni 6% ga kamayishini, tayoqcha yadroli netrofillarni 4,7% ga oshganligini guvohi bo’ldik. Bu hujayralar ham turlicha ko’rsatkichga ega ekan.

Organizmning qoni tarkibidagi shaklli elementlar va plazma nisbatini o‘rganish gemotokrit deyiladi. Sog‘lom insonlar tana massasining 7-8% ni qon tashkil etib, shundan tana og‘irligiga nisbatan 4% ni plazma tashkil etadi. Qonni 55% ni plazma tashkil etsa, qolgan 45% ni shaklli elementlar to‘ldiradi. Tadqiqotlarda gemotokrit nisbati 55% dan 39%ga pasaydi.

Biz sog’lom insonlar qoni tarkibini, miokard infarktiga chalingan bemorlar qoni bilan solishtirganimizda o’zgarishlar mavjudligini guvohi bo’ldik. Shaklli elementlardan trombositlar sog’lom insonlar qonida o’rtacha 320 mingta bo’lsa bemorlar qoni tarkibida 59 mingtani tashkil etdi. Raqamlardan ko’rinib turibdiki trombositlar kamayishi kuzatildi. Trombotsitlar sonining kamayishi yoki keyingi o‘zgarishlarning aniq tendentsiyasi TIK sindromining aniq (o‘ziga xos bo‘lmasa-da) belgisidir trombotsitopeniya TIK sindromi bilan 98% hollarda va trombotsitlar soni $50 \cdot 10^9$/l dan kam bo‘lsa. - taxminan 50% da. Trombotsitlar sonining pastligi ularning trombinga bog‘liq massiv agregatsiyasi bilan bog‘liq.

Demak bu hujayralar miokard infarktida sezilarli darajada kamaygan. Bu esa o’z navbatida organizmda qoning normal ivishini buzilishiga olib keladi. Trombin hosil bo‘lishining ortishi bilan bir qatorda, TIKda fibrinolitik faollik ham ortadi. Biroq, fibrin degradatsiyasi mahsuloti tahlillari

o‘zaro bog‘langan fibrin polimerining parchalanish mahsulotlarini va fibrinogen degradatsiyasini farqlamaydi, bu ularning o‘ziga xosligini cheklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bick, R.L. Disseminated intrasvascular coagulation: objective clinical and laboratory diagnosis, treatment and assessment of therapeutic // Seminars in Thrombosis and Hemostasis. — 2016. — Vol. 22. — P. 69—88.
2. Brown C, et al. Hormonal Influences on Blood Coagulation in Women. J Clin Endocrinol. 2020; 25(4):321-35.
3. Collins P.W. Macchiavello L.I., Lewis S.J. Global tests of haemostasis in critically ill patients with severe sepsis syndrome compared to controls // British Journal of Haematology. — 2016. — Vol. 135. — P. 220—227.
4. Feinstein D. Guidelines for the diagnosis and management of disseminated intravascular coagulation // British Journal of Haematology. — 2019. — Vol. 145. —P. 24—33.
5. Levi, M., Ten C.H. Disseminated intravascular coagulation // New England Journal of MeTIK ine. — 2019. —Vol. 341. — P. 586—592.
6. Smith A, Jones B. The Role of Genetic Factors in Blood Coagulation Disorders. J Genet Med. 2019; 21(3):145-52.
7. Toh C.H., Dennis M. Disseminated intravascular coagulation: old disease, new hope // BMJ. — 2023. — Vol. 327. — P. 974—977

METABOLIK O‘ZGARISHDA BACHADONNING PATOMORFOLOGIYASI

Saidmurodova Gulhayo Ilxom qizi
tayanch doktorant
gulhayosaidmurodova047@gmail.com
Toshkent tibbiyot akademiyasi. Toshkent, O‘zbekiston

Dolzarbligi: Bugungi kunda metabolizm zamonaviy fundamental va klinik tibbiyotning dolzarb muammolaridan bo‘lib kelmoqda. Metabolik sindromda uglevod va lipidlar almashinuvining buzilishi, insulinga rezistentlik va qon tomirlar devorida endoteliyning disfunksiyasi organizmdagi a’zo va tizimlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda reproduktiv kasalliklarning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bo‘lgan reproduktiv yoshdagi ayollarda metabolik sindrom uchrashi ortib bormoqda, shu sababli biz tajribaviy metabolik sinrdomda bachadonning patomorfologiyasini o‘rgandik.

Tadqiqotning maqsadi: Tajribaviy metabolik buzilishda bachadondagi patomorfologik o‘zgarishlarni o‘rganish.

Tadqiqotning material va usullari: O‘rganish materiali sifatida og‘irligi 180-200 gramm bo‘lgan yetilgan oq urg‘ochi laborator kalamushlardan foydalanildi. Tajriba uchun olingan oq kalamushlar, 2 ta guruhga ajratildi. Har bir guruhda 20 tadan kalamush tashkil qildi. Birinchi guruh nazorat guruhi bo‘lib, somatik va infeksion kasalliklarning klinik belgilari kuzatilmagan kalamushlar olindi. Nazorat guruhidagi kalamushlarga doimiy ravishda ovqat va suv berildi. Ikkinchi guruhimizga tajribaviy metabolik sindrom modeli chaqirildi. Kalamushlarning ovqat ratsionini 60% laboratoriya yemi, 20% qo‘y yog‘i, 20% fruktoza tashkil qildi. Ichimlik suvini o‘rniga fruktozaning 20% li eritmasi berildi. Tajribadan 30, 60 va 90 kun o‘tib kalamushlar jonsizlantirildi. Morfologik tadqiqot uchun bachadonlar olinib, qalinligi 8-10 mikron bo‘lgan rotorli mikrotomda tayyorlangan gistologik kesmalar gematoksilin eozin, Van gizon usullarida bo‘yaldi.

Tadqiqot natijalari: Metabolik sindromda kalamushlarning bachadonida bo‘ladigan patomorfologik o‘zgarishlar ko‘rib chiqilganda nazorat guruhidagidan biroz o‘zgarishlar kuzatildi. Metabolik sindrom holatidagi bo‘lgan 30 kunlik kalamushlarning tana vazni 240-280 gr o‘rtacha vazni 264±1,32 gr, bachadonning vazni 0,5-0,65 gr bo‘lib o‘rtacha 0,58±0,05 grni tashkil etib tana vaznining 0,22±0,03 % ga teng. Metabolik sindrom holatida kalamushlar bachadonining mikroskopik tuzulishida turli o‘zgarishlar kuzatilishi normal holatidan biroz farq kuzatilgan, xususan funksional ya’ni epitelial qavat hujayralarida gipotrofiya kuzatilgan shilliq osti qavati biroz qalinlashganligi (shilliq osti qavati 2-4 nm qalinlikda), miometriy qavatida mushak hujayralarning gipertrofiyasi va orasida stromaning normal holatga nisbatan 110-115 % ortishi kuzatildi. Metabolik sindrom holatida bo‘lgan 60 kunlik kalamushlarning tana vazni 290-330 gr o‘rtacha vazni 315±2,5 gr, bachadonning vazni 0,4-0,6 gr bo‘lib o‘rtacha 0,58±0,05 grni tashkil etib tana vaznining 0,180±0,04 % ga teng. Epitelial qavatning hujayralarida gipotrofiya kuzatildi, shilliq osti qavati 4-6 mkm qalinlashdi. Miometriy bo‘yicha natijalar: miometriyning umumiy maydoni: 23,4 mkm². Miometriy va endometriy nisbati: 1,69 va umumiy maydonga nisbatan 120-125 % ortishi kuzatilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, metabolik jarayonda bezli epiteliy va mushak elementlari gipotrofiyalanadi sifat va son jihatdan kamayadi. Metabolik sindrom holatida bo‘lgan 90 kunlik kalamushlarning tana vazni 300-350 gr o‘rtacha vazni 320±3,0 gr, bachadonning vazni 0,38-0,62 gr bo‘lib o‘rtacha 0,55±0,05 grni tashkil etib tana vaznining 0,172±0,0167 % ga teng. Funksional ya’ni epitelial qavatining hujayralarida gipotrofiya kuzatilgan shilliq osti qavati 6-8 mkm qalinlashdi. Miometriyning umumiy maydoni: 22,6 mkm². Miometriy va endometriy nisbati: 1,71 va umumiy maydonga nisbatan 110-115 % ortishi kuzatildi.

Xulosa. Metabolik sindromda bachadonning epitelial qavat hujayralarida gipotrofiya, shilliq osti qavati biroz qalinlashishi, miometriy qavatida mushak hujayralarning gipertrofiyasi va orasida stromaning ortishi, endometriyda bezli epiteliy gipotrofiyasi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чазова И.Е. Метаболический синдром / И.Е.Чазова, В.Б.Мычка // Кардиоваскулярная терапия и профилактика. - 2003. - № 3. - С. 32-38
2. Prevention and management of the global epidemic of obesity /Report of the WHO. Consultation on Obesity//Geneva.- WHO. - 1997
3. Alberti K.G. The IDF Epidemiology Task Torch Consensus Group: The metabolic syndrome; a New Worldwide Definition/ K.G. Alberti, P. Zimmet, J. Shaw// Lancet.-2005.-V.366.-P.1059-1062
4. Метаболический синдром у женщин /Н.А. Беляков, Г.Б. Сеидова, С.Ю. Чубриева, Н.В. Глухов // СПб: Издательский дом СПбМАПО.- 2005.- 439 с.
5. Чубриева С.Ю. Метаболический синдром у женщин репродуктивного возраста, автореф.дис…канд. мед. наук / С.Ю.Чубриева //С-Пб.-2009.- 45 с.
6. Шевченко О.П. Метаболический синдром / О.П. Шевченко, Е.А. Правскурничий, А.О. Шевченко // М: Реафарм. - 2004.- 141 с.
7. Ройтберг Г.Е. Метаболический синдром /Г.Е.Ройтберг // М: МЕД пресс-информ. - 2007.- 223 с.

PROBIOKORM OZIQA QO‘SHIMCHASINING QUYONLARNING QONINING MORFOLOGIK KO’RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Qalandarov O.O., Nuraliyeva D.SH .,Namazova D.I.
Toshkent pediatriya tibbiot instituti 2-bosqich talabasi O‘zbekiston,Toshkent
Zarmed universiteti 1-bosqich talabasi O‘zbekiston, Samarqand
Zarmed universiteti assistenti O‘zbekiston, Samarqand
email :dilnozanamazova.22 @gmail com

Annotatsiya. ProBioKorm mahalliy probiotik bakteriyalar asosida yaratilgan oziqa qo‘shimchasi oziqa sifatini va moddalarning hazm bo‘lishi va so‘rilishini yaxshilaydi, hayvonlarning turli bakterial kasalliklarini oldini oladi , davolaydi hamda qishloq xo‘jaligi hayvonlarining mahsuldorligini oshiradi.

Kalit so’zlar ProBioKorm, probiotik, eritrositlar, leykositlar, Hikol, klinik, gemoglobin,

Maqsadi: Quyonlarning kunlik ratsioniga qo‘shilgan turli dozadagi “Probiokorm” oziqa vositasidan foydalanishning quyonlar qonining morfo-biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta‘sirini qiyosiy baholashdan iborat bo‘ldi.

Maqsadga erishish uchun quyonlarning ratsioniga turli dozadagi “Probiokorm” oziqa vositasi kiritilganidan keyin:

-quyonlarning kunlik o‘sishi-rivojlanishi va qonining morfo-biokimyoviy ko‘rsatkichlariga “Probiokorm” oziqa vositasining ta‘sirini o‘rganish;

-qon zardobining himoya omillarining faolligiga biologik faol oziqa vositasidan foydalanishning ta‘sirini baholash vazifalari o‘rganildi;

Quyonlar yuqori darajadagi serpushtlik va tez yetuluvchanlik qobiliyatiga egaligi bilan boshqa chorva hayvonlari orasida eng yuqori o‘rinlardan biriga egaligi bilan ajralib turadi [N.A.Balkariyev, YU.A.Kalugin, 2015].Adabiyotlarda taqdim etilgan ma‘lumotlariga ko‘ra, quyonlarning hayotidagi eng murakkab davr bo‘lib, quyon bolalarini onasi sutidan ajratish davri hisoblanadi [A.M.Puchnin va hammuallif, 2011].Keyingi paytlarda ushbu yo‘nalishdagi muammolarning ijobiy yechimiga erishishda organizmning metabolik jarayonlarini mo‘tadillashtirish, oshqozon-ichaklar trakti kasalliklarining oldini olish va ichaklardagi foydali mikroorganizmlar mo‘tadilligini ta‘minlash qobiliyatiga ega bo‘lgan biologik faol moddalardan (probiotiklardan) foydalanish eng ustuvor yo‘nalishlardan ekanligi Evropa mamlakatlari olimlari tomonidan o‘rganilmoqda va ishlab chiqarishga joriy qilinmoqda[N.V.Abramkova, 2015; I.N.Tokarev *hammuallif*, 2015].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, onasidan ajratilgan quyonchalarning kunlik iste‘mol qiladigan oziqalari tarkibiga O‘zRFA Mikrobiologiya institut xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan va fermer xo‘jaliklarida foydalanishga tavsiya qilingan “Probiokorm” probiotigi qo’shimchasini quyonlar ratsioniga qo‘shilishi quyonchalar tomonidan iste‘mol qilinadigan oziqalar miqdoriga, to‘yimli moddalarning hazmlanishiga va organizmning tabiiy chidamligiga ta‘sirini o‘rganildi. “Probiokorm” probiotigidan “Tarnov sabzavotlari” fermer xo’jaligida boqilayotgan Hikol zotli quyonlar quydagi jadval asosida oziqlantirildi.

Guruhlar	**Berilgan ozuqalar**
Nazorat	Asosiy ratsion (AR)

1-Tajriba	AR (1 kg)+ 2 g ProBioKorm
2- Tajriba	AR (1 kg)+ 4 g ProBioKorm

Organizmda qonning gematologik va biokimyoviy ko’rsatkichlari quyonlarning fiziologik holati haqida ma’lumot beradi. Hayvonlardan qon qulog’ining chap qismidagi vena tomiridan tajribaga qo’yishdan oldin va tajribadan keyin ertalab och qoringa, oziqlantirmasdan oldin olindi.

Quyonlar qoning gematologik, biokimyoviy tahlillari o’tkazishda quyidagi usullardan foydalanildi:

-quyidagi ko’rsatkichlar bo’yicha tahlil qilindi: eritrositlar, leykositlar miqdori, gemoglobinning konsentrasiyasi.

Eritrositlar va leykositlar Goryayev sanoq turida: gemoglobin – Sali gemometrida;

- qonning shaklli elementlari, gemoglobin miqdori (*Medonic CA 620)* gematologiya analizatori tomonidan aniqlandi :

Quyonlar qonining morfologik ko’rsatkichlari (M±m, n=5)

Shaklli elementlari	**Normal ko’rsatkichlari**	**Guruhlar**		
		Tajriba-1	**Tajriba-2**	**Nazorat**
Lyeykotsitlar, 10^9/l	7-8	7,86±0,37	8,2±0,2	6,74±0,2
Eritrositlarlar, 10^{12}/l	5.36-8,13	6,87±0,35	7,82±0,3	5,9±0,5
Trombotsitlar, 10^9/l	193-725	521,4±40,4	533,6±26,77	449,4±34,2
Gemoglobin, g/l	113-171	136,6±3,9	143,4±6,07	120,8±3,9
Gemotokrit, %	30-44	34,2	36,6	39,8

Ishonchlilik: p<0,05

Nazorat va tajriba guruhi hayvonlarida eritrositlar, leykositlar,trombositlar,gemoglobin miqdoriy ko‘rsatkichlari deyarli o‘zgarganligi ma‘lum bo‘ldi.

XULOSA

1. Probiotik ozuqa qo’shimchasini 200 g/t miqdorda ozuqlangan quyonlar organizmida metabolik jarayonlar faollashtirildi.

2. Probiotik ozuqalar gematopoezni faollashtiradi, bu periferik qonda qizil qon tanachalari soniga, oq qon hujayralariga, trombotsitlarga, gemoglobinga ko’payishi bilan namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балакирев, Н.А. Кролиководство - перспективная отрасль животноводства / Н.А. Балакирев, Ю.А. Калугин // Ветеринария, зоотехния и биотехнология. - 2015. - № 7. - С. 20-23.
2. Калугин Ю.А. Копрофагия. Кролиководство и звероводство. –М.:1995. №;. – С. 11-12.
3. Маликова, М.Г. Влияние Сел-Плекса и И-Сака на переваримость питательных веществ рациона // Молочное и мясное скотоводство. 2007. -С.39-40.
4. Sirotkin A.V. et al. Caloric restriction and IGF-I administration promote rabbit fecundity // Possible interrelationships and mechanisms of action. Theriogenology 2017. –V. 90.- P. 252-259.

AMALIY TIBBIYOT - DOLZARB MUAMMOLAR VA YUTUQLAR

***

PRACTICAL MEDICINE - CURRENT PROBLEMS AND ACHIEVEMENTS

***

ПРАКТИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА – АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОТЕКАНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ И РОДОВ У ЖЕНЩИН ПОСЛЕ ЭКО И ПРИ ЕСТЕСТВЕННОМ ЗАЧАТИИ

Хамрокулов А.Г.,
2-19 лечебного факультета
научный руководитель ***Вахидова А.М.***
УНИВЕРСИТЕТ ZARMED, САМАРКАНД, УЗБЕКИСТАН

Введение. Современные методы вспомогательных репродуктивных технологий, включая экстракорпоральное оплодотворение (ЭКО), позволяют решить проблему бесплодия. Однако беременность, наступившая в результате ЭКО, имеет свои особенности и может сопровождаться рядом осложнений. В медицинской практике отмечены повышенный риск преждевременных родов, частое применение кесарева сечения и вероятность многоплодной беременности. В связи с этим остаётся актуальным вопрос сравнительной оценки исходов беременности и родов у женщин, зачавших естественным путем, и пациенток после ЭКО.

Цель исследования: Проанализировать основные различия между естественной беременностью и беременностью, полученной в результате ЭКО, выявить ключевые риски и возможные осложнения, а также предложить стратегии для их снижения.

Материалы и методы: Для исследования использованы медицинские данные двух групп беременных женщин. В первую вошли пациентки, забеременевшие с помощью ЭКО, во вторую – женщины, у которых зачатие произошло естественным путем. Анализировались такие параметры, как: продолжительность беременности, частота преждевременных родов, масса новорождённых, частота кесаревых сечений, уровень неонатальных осложнений. Полученные данные подверглись сравнительному анализу, чтобы определить степень различий между группами.

Результаты и обсуждение: В ходе исследования выявлено, что в группе женщин после ЭКО частота преждевременных родов достигала 30–32%, в то время как среди женщин, зачавших естественным образом, этот показатель не превышал 13–15%. Средняя продолжительность беременности в группе ЭКО составила 37 недель, тогда как при естественном зачатии она достигала 39 недель.

Кесарево сечение проводилось в 60% случаев среди женщин после ЭКО, тогда как среди женщин с естественной беременностью этот показатель составил 35%. Данный факт объясняется особенностями ведения беременности после ЭКО и повышенной частотой осложнений. Однако различия в перинатальных рисках (гипоксия, респираторный дистресс-синдром, низкая масса тела новорождённых) между группами оказались не столь значительными.

Вывод: Проведённый анализ подтвердил, что беременность, наступившая в результате ЭКО, сопряжена с более высокой вероятностью осложнений, таких как преждевременные роды и необходимость хирургического родоразрешения. Тем не менее, с развитием медицинских технологий и совершенствованием методов наблюдения перинатальные риски снижаются. Для дальнейшего улучшения исходов необходимо

разрабатывать индивидуализированные подходы к ведению беременности, учитывать возрастной фактор и оптимизировать медикаментозную поддержку пациенток после ЭКО.

ВЫБОР МЕТОДА ЛЕЧЕНИЯ КРУПНЫХ КАМНЕЙ ВЕРХНИХ ОТДЕЛОВ МОЧЕТОЧНИКОВ

Шодмонова Зебунисо Рахимовна
Зармед университет, Самарканд, Узбекистан.

Актуальность. Известно, что мочекаменная болезнь (МКБ) относится к группе болезней обмена веществ и вызывается различными причинами, часто наследственного характера. Камни могут образоваться в почках и могут отличаться по размеру, форме и расположению. Именно эти параметры влияют на выбор методики лечения, основной целью которого является полное удаление камня.

Цель работы: Выбор эффективного метода лечения пациентов с крупными камнями верхних отделов мочеточников.

Материалы и методы исследования: Было проведено сравнение результатов применения дистанционной ударно-волновой литотрипсии (ДУВЛ), трансуретральной контактной уретеролитотрипсии (КУЛТ), а также эндовидеохирургической уретеролитотомии (ЭВХУ). В исследование было включено 78 пациентов с наличием конкрементов в мочеточниках, расположенных от пиелоуретерального сегмента до перекреста мочеточника с подвздошными сосудами.

Критериями включения явилась: конкремент размером ≥ 7 мм, отсутствие признаков наличия инфекции. Среди них женщин было 23 (29,5%), мужчин 54 (69,2%) в возрасте от 26 до 80 лет.

Все больные были разделены на три группы: 1 группа-30 пациентов (женщин -9, мужчин- 21), которым в первую очередь было выполнено ДУВЛ. Пациенты были в возрасте от 26 до 75 лет; 2 группа- 17 пациентов (женщин-5, мужчин-12), которым было выполнено контактная литотрипсия. Возраст пациентов составлял от 35 до 68 лет; 3 группа – 31 пациентов (женщин-13, мужчин-18) которым выполнены ЭВХУ. Пациенты в возрасте от 28 до 79 лет.

Результаты исследования: Было выявлено, что после первого сеанса ДУВЛ полная фрагментация конкрементов была достигнута у 26 пациентов из 30, при этом у 8 из 30 больных наблюдались случаи почечной колики, вызванные отхождением конкремента. Эффективность ДУВЛ зависит от размера и плотности конкремента, а также длительности нахождения камня в одном и том же участке. Так, например, при нахождении конкремента размером 15 мм в течение 4 недель в одном участке мочеточника, создавало трудности в применении ДУВЛ (сеансы повторялись). В таких случаях данный метод приходилось заменять ЭВХУ, при котором радикально удаляется весь конкремент и восстанавливается проходимость мочеточника. Не требуя повторных сеансов. По данным исследования при КУЛТ необходимость в повторных вмешательствах при наличии крупных фрагментов, при появлении каменной дорожки и наблюдались осложнения в виде почечной колики, атака острого пиелонефрита гораздо чаще других методов. Кроме этого у 4 больных произошла дислокация конкремента в лоханку.

Выводы: По результатам нашего исследования было выявлено, что при камнях размером более 10 мм эффективнее выполнять эндовидеохирургическую уретеролитотомию, в связи отсутствия риска повторных вмешательств и способностью удалять крупные камни длительно находящиеся в одном участке мочеточника. Контактная

и дистанционная литотрипсия менее эффективны в случаях больших размеров камней верхней трети мочеточника и имеют множество нежеланных последствий.

К ВОПРОСУ ЛЕЧЕНИЯ РЕЦИДИВОВ УРОЛИТИАЗА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Шодмонова Зебунисо Рахимовна
Университет Зармед, республики Узбекистан

Сегодня по всему миру, в связи с широкой распространенностью и высокой частотой рецидивов уролитиазу уделяется ещё больше внимания. Хотя широкое применение инновационных технологий в урологической практике способствовало достигнут особые успехи в лечении больных уролитиазом, также привело и к увеличению рецидивов заболевания.

Несмотря на это, дистанционная литотрипсия (ДЛТ) в связи с малой инвазивностью и эффективностью, особенно у больных нефроуретеролитиазом, даже при больших камнях (размером до 2 см) является одной из оптимальных вариантом лечения. Но практическому врачу не всегда по силу предсказать исход литотрипсии, прогнозировать эффективность лечения и тем более предупреждать возможных осложнений и рецидивов заболевания, которая зависит от множества факторов.

Цель исследования. Изучить эффективность применения ДЛТ в лечении уролитиаза и определить преимущества перед другими альтернативными оперативными способами удаления камней из почек и мочеточника.

Mikroorganizmlarning metabolizmida uglerod monoksidining ishtiroki

Uglerod monoksidi (CO) ayrim mikroorganizmlar, ayniqsa **anaerob prokaryotlar** uchun muhim **uglerod va energiya manbai** hisoblanadi. Ular CO molekulasini **CO-degidrogenaza (CODH)** fermenti yordamida qaytarib, uni **metan**, **atsetil-koenzim A** yoki boshqa metabolitlarga aylantira oladi. Bu ferment mikroorganizmlarda **uglerod fiksatsiyasi** va **energiya hosil qilish** jarayonlarida muhim katalitik rol o‘ynaydi. Qiziqarli jihatlaridan biri shundaki, CO bilan o‘zaro ta’sirga kirishuvchi ko‘pgina fermentlardan farqli ravishda, **CO-degidrogenaza tarkibida prostetik gem guruhi mavjud emas**. Uning faol markazi **molibden (Mo)** yoki **nikkel (Ni)** kabi **o‘tish metall ionlari**dan tashkil topgan bo‘lib, ular CO molekulasi bilan **nisbatan sust, ammo selektiv** komplekslar hosil qiladi. Bu esa fermentning CO ni toksik darajada bog‘lab qolmasdan, uni metabolik reaksiyalarda samarali ishtirok ettirish imkonini beradi. Bundan tashqari, **anaerob gemolitik bakteriyalar** o‘z metabolik ehtiyojlarini qondirish maqsadida **gemolitik toksinlar** ishlab chiqarib, **eritrotsitlar**ni parchalash va **gemoglobinni degradatsiyalash** qobiliyatiga ega. Bunday bakteriyalar **bakterial gemoksigenaza** fermentlarini ekspressiya qiladi. Ushbu fermentlar **sutemizuvchilardagi HO-1/HO-2 tizimiga funktsional jihatdan o‘xshash** bo‘lib, **gem molekulasining oksidlovchi parchalanishini** katalizlaydi. Natijada **uglerod monoksidi (CO)** va

ikki valentli temir (Fe^{2+}) ajralib chiqadi. Bu jarayon bakteriyalar uchun bir nechta jihatdan foydalidir:

1. **CO** — energiya ishlab chiqarish va signalizatsion mexanizmlar uchun substrat vazifasini bajaradi;
2. **Fe^{2+}** — temirga bo‘lgan metabolik ehtiyojni qoplaydi;
3. **Gem saqlovchi substratlar** (masalan, shikastlangan to‘qimalar yoki gemolizga uchragan eritrotsitlar) — oziq-ovqat manbai sifatida xizmat qiladi.

Bunday bakterial strategiyalar mikroorganizmlarga **noyob ekologik muhitlarda** (masalan, anaerob yoki kislorod cheklangan sharoitlarda) **hayotiyligini saqlab qolish**, **resurslardan maksimal darajada foydalanish** va **raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish** imkonini beradi. Shu sababli, **CO metabolizmi va gem oksidlanish yo‘llarining mikroorganizmlarda o‘rganilishi** ularning ekologik moslashuvi, patogenlik darajasi va terapevtik nishonlar sifatida o‘rganilayotgan molekulalar haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Saprofit mikroorganizmlarning xo‘jayin organizmi bilan uglerod monoksidi (CO) orqali o‘zaro ta’siri

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ichak mikrobiotasining metabolik va molekulyar javoblari xo‘jayin organizmidagi signalizatsion molekulalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shulardan biri sifatida **uglerod monoksidi (CO)** e’tiborni tortmoqda. Aksariyat ichak saprofit bakteriyalarida **CooA** deb nomlanuvchi, **gem saqlovchi va CO-sezgir transkripsion regulyator** oqsili aniqlangan. Ushbu oqsil CO molekulasining mavjudligini kimyoviy signal sifatida qabul qilib, **CO bilan bog‘langanda faol holatga o‘tadi va bakterial gen ekspressiyasini faollashtiradi**, xususan, ko‘payish bilan bog‘liq genlarning transkripsiyasini rag‘batlantiradi. **CooA oqsili** CO molekulasiga yuqori affinitetga ega bo‘lib, bu bakteriyalar uchun CO ni atrof-muhitdagi metabolik sharoitlar haqidagi **signal molekulasi** sifatida qabul qilish imkonini beradi. Shu tarzda, bakteriyalar CO ning mavjudligini **metabolik faollik va populyatsiya zichligini oshirish** signali sifatida talqin qiladilar. Xo‘jayin organizmida esa **gemoksigenaza-2 (HO-2)** fermentining yuqori darajadagi konstitutiv ekspressiyasi, xususan, **me’da-ichak traktining enterik nerv tizimi** (ENS) neyronlarida qayd etilgan. Bu ferment doimiy tarzda CO sintezini ta’minlab beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, enterik neyronlar tomonidan ajraladigan CO ichak bo‘shlig‘idagi saprofit mikroorganizmlar uchun nafaqat metabolit sifatida, balki **biologik axborot signali** sifatida xizmat qiladi. Bu esa **mezbon–mikrobiota o‘zaro ta’sirini neyroximik darajada muvofiqlashtirish mexanizmi** mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonning ahamiyati quyidagicha talqin etilishi mumkin: ichakdagi enterik neyronlar CO sekretsiyasini **vegetativ yoki lokal fiziologik sharoitlarga** javoban moslashtirib, saprofit mikroorganizmlarning ko‘payishini **homeostatik darajada** ushlab turadi. Shunday qilib, **xo‘jayin organizm va mikrobiota o‘rtasidagi muvozanat CO signalizatsiyasi** orqali tartibga solinadi. Bu holat enterik neyronal signalizatsiya va mikroflora o‘rtasidagi **bidirectional (ikkala yo‘nalishda kechuvchi) axborot oqimini** nazarda tutadi.

Tadqiqotlar va terapevtik istiqbollar

Endogen uglerod monoksidining (CO) yallig‘lanishga qarshi va sitoprotektiv vosita sifatidagi roli so‘nggi yillarda ko‘plab mustaqil laboratoriyalar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ushbu biologik faollik CO metabolizmini modulyatsiya qilish orqali turli patofiziologik holatlarni korreksiya qilishda istiqbolli terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Xususan, eksperimental va klinik tadqiqotlar CO metabolizmining quyidagi patologik holatlar va kasalliklar bilan bog‘liq jarayonlarda sezilarli himoya ta’siriga ega ekanligini ko‘rsatgan:

- Ishemiya-reperfuzion shikastlanishlar (masalan, miokard infarkti, ishemik insult);
- Transplantat rad etilishi;
- Aterosklerotik jarayonlar;

- Og‘ir darajadagi sepsis;
- Og‘ir tropik infeksiyalar, xususan, Plasmodium spp. tomonidan chaqiriladigan malyariya;
- Autoimmun xastaliklar.

2015 yilgacha bo‘lgan tajriba va klinik ma’lumotlar tahlili asosida inson organizmidagi endogen CO ning biologik funksiyalari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. **Endogen uglerod monoksidi — organizmda signalizatsiya molekulasi** sifatida faoliyat yurituvchi kichik gazsimon mediatorlardan biri bo‘lib, gazotransmitterlar turkumiga kiradi.
2. **CO markaziy nerv tizimi (MNT)** va **kardiovaskulyar tizim** faoliyatini modulyatsiya qiluvchi neyrohumoral regulyator sifatida qatnashadi.
3. **CO trombotsitlar agregatsiyasi va ularning endoteliyga adgeziyasini susaytirish orqali trombogenezni** cheklaydi, bu esa uning antitrombotik xususiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Kelgusida endogen CO almashinuvi va signalizatsiyasiga ta’sir etuvchi farmakologik vositalar asosida ishlab chiqiladigan terapevtik yondashuvlar ko‘plab surunkali va o‘tkir kasalliklar, jumladan, yurak-qon tomir, nevrologik, immunologik va yallig‘lanish bilan bog‘liq kasalliklarni davolashda yangi davrni boshlab berishi mumkin.

Xulosa Uglerod monoksidining (CO) inson organizmiga kirib borishi, ayniqsa, nafas yo‘llari orqali sistemali ta’sir ko‘rsatishi salbiy fiziologik va patofiziologik oqibatlarga olib keladi. CO gemoglobin bilan yuqori affinitet asosida bog‘lanib, karboksigemoglobin hosil qiladi va shu tariqa qondagi kislorod tashuvchanligini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu gipoksik holat yurak-qon tomir tizimi, markaziy nerv tizimi hamda nafas olish tizimi faoliyatining buzilishiga sabab bo‘ladi. Uglerod monoksidining surunkali yoki takroriy ekspozitsiyasi yurak ishemik kasalliklari, neyrodegenerativ holatlar, qon aylanish tizimi disfunksiyasi va boshqa ko‘plab organlarga oid patologik holatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois CO intoksikatsiyasining oldini olish, erta tashxislash, detoksifikatsiya va simptomatik terapiyani o‘z ichiga oluvchi kompleks profilaktik-davolash yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada taqdim etilgan ma’lumotlar uglerod monoksidining organizmga ko‘rsatadigan zararli ta’sirlarini chuqur o‘rganish zaruriyatini asoslaydi va ushbu gazga nisbatan xavfsizlik standartlarini takomillashtirish, shuningdek, yangi terapevtik strategiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu tarzda, CO bilan bog‘liq toksikologik va biologik jarayonlarning chuqur tahlili inson salomatligini muhofaza qilishda dolzarb ilmiy-tekshirish yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Manbalar

1. Wu, L; Wang, R. **Uglerod monoksidi: endogen ishlab chiqarilishi, fiziologik funksiyalari va farmakologik qo‘llanilishi** // *Pharmacol Rev*. — 2005
2. Maines MD. **Gemoksigenaza: funksiyasi, xilma-xilligi, regulyator mexanizmlari va klinik qo‘llanilishi**. — Iyul 1988.
3. Shibahara S, Müller R, Taguchi H, Yoshida T. **Sichqon gemoksigenaza cDNA’sini klonlash va ekspressiyasi** // *Proc Natl Acad Sci USA*. — Dekabr 1985
4. Mahin D. Maine, Trakshel G. M., Kutty R. K. **Kalamush jigar mikrosomal gemoksigenazasining ikkita konstitutsional shakli: faqat bitta izoforma induktsiyalanadi** // *The Journal of Biological Chemistry*. — 5-yanvar, 1986.
5. Choi AM, Alam J. **Gemoksigenaza-1: funksiyasi, regulyatsiyasi va oksidlovchi shikastlanish bilan bog‘liq bo‘lgan ahamiyati** // *Am J Respir Cell Mol Biol*. — Iyul 1996.

6. Stocker R, Yamamoto Y, McDonagh AF, Glazer AN, Ames BN. **Bilirubin fiziologik jihatdan muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan antioksidantdir** // *Science*. — 27-fevral, 1987.
7. Hayashi S, Takamiya R, Yamaguchi T va boshqalar. **Gemoksigenaza-1 ning induktsiyasi oksidlovchi stress natijasida yuzaga keladigan leykotsitlar adgeziyasini pasaytiradi** // *Circulation Research*. — 15-oktyabr, 1999
8. Verma A, Hirsch D, Glatt C, Ronnett G, Snyder S. **Uglerod monoksid: ehtimoliy neyron vositachi** // *Science*. — 1993..
9. Poss KD, Thomas MJ, Ebralidze AK, O’Dell TJ, Tonegawa S. **Hippokampal uzoq muddatli potentiatsiya gemoksigenaza-2 mutatsiyasiga uchragan sichqonlarda normal holatda saqlanadi** // *Neuron*. — Oktyabr 1995
10. Kolata G. **Uglerod monoksid gazi miya hujayralari tomonidan neyrotransmitter sifatida ishlatilishi mumkin**. *The New York Times*. — 26-yanvar, 1993.
11. Li L, Hsu A, Moore PK. **NO, CO va H_2S ning yurak-qon tomir tizimi va yallig‘lanishdagi o‘zaro ta’siri — uch gaz haqidagi tadqiqot** // *Pharmacology & Therapeutics*. — 2009..
12. Suematsu M, Goda N, Sano T va boshqalar. **Uglerod monoksid jigar sinusoidlarining tomir tonusiga endogen modulyator sifatida ta’sir qiladi** // *The Journal of Clinical Investigation*. — Noyabr 1995
13. Suematsu M, Kashiwagi S, Sano T va boshqalar. **Uglerod monoksid jigarning qon tomir perfuziyasini endogen modulyatsiya qiluvchi omil sifatida** // *Biochem Biophys Res Commun*. — 15-dekabr, 1994.
14. Johnson CY. **Zaharli gaz tibbiy foyda keltirishi mumkin**. *The Boston Globe*. — 16-oktyabr, 2009.
15. Olas B. **Uglerod monoksid inson organizmi uchun har doim ham zahar emas: CO ning fiziologik va farmakologik xususiyatlari** // *Chemico-Biological Interactions*. — 2014. — 25-aprel
16. Szabo C. **Gazotransmitterlar onkologiyada: patologiyadan eksperimental terapiyagacha** // *Nature Reviews Drug Discovery*. — 2016

TIBBIYOTDA YADRO KIMYOSINI QO’LLANILISHI

Abdinazarova Sabina Akbar qizi
Stomatologiya fakulteti 124- guruh talabasi
Samarqand, O’zbekiston.
Ilmiy rahbar: ***Mamadoliyev Ikromjon Ilhomidinovich***
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
tibbiy fundamental fanlar kafedrasi v.b dotsenti

Ishning maqsadi: Tibbiyotda yadro kimyosi - bu atom yadrosining tuzilishi, xususiyatlari va o‘zgarishlarining o‘rganilishi bo‘lib, tibbiyot sohasida juda katta ahamiyatga ega. Yadro kimyosi, ayniqsa, diagnostika, terapiya va davolash usullarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Uning tibbiyotdagi asosiy qo‘llanilishi nuklear tibbiyot deb ataladi va bu soha radiatsiya va radioaktivizotoplar yordamida turli kasalliklarni aniqlash va davolash imkoniyatini yaratadi.

Materiallar va tadqiqot usullari: Onkologik jarayonlarning erta diagnostikasi tibbiyotning dolzarb masalasi va ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi. Erta tashxis organizmning kasalliklardan erta va to’liq xalos bo’lishi uchun zamin yaratadi. Kimyo terapiyasi va bu turdagi dori vositalarini qabul qilishda ular butun organizmga singadi, bu esa nojo’ya ta’sirlarga sabab bo’ladi. Radioterapiyada esa preparat manzilli tarzda faqat kasallikdan zararlangan maydonlarga yo’llanadi. Onkologiya nuqtai nazaridan preparat faqat o’sma hujayralariga ta’sir qiladi va sog’lom hujayralarga zarar yetkazmaydi. Shu tarzda sog’lom hujayralar va, umuman, organizm bu preparatlarning umumiy ta’siridan zarar ko’rmaydi. Ikkinchidan, yadro tibbiyotining samarasi juda yuqori. Masalan, hozirgi kunda lyutetsiy-177 asosidagi shunday preparat paydo bo’ldiki, ilmiy tadqiqotlar asosidagi maqolalarga tayanadigan bo’lsak, bu preparat ta’sirida ba’zi turdagi o’smalardan sog’ayish ko’rsatkichi 99 foizgacha yetishi mumkin. Boshqa uslublar bilan hozircha bunday natijalarga erishib bo’lmayapti.

So’nggi 8-10 yil davomida samariy-153 oksabifor preparati keng qo’llanila boshlandi. Bu preparat suyaklardagi kuchli og’riqlar qo’zg’atuvchi o’smalar metastaz berganda va boshqa suyak kasalliklarida og’riqsizlantirish va davolash maqsadida ishlatiladi.

Tibbiyotda YMR spektroskopiyasi organik molekulalar, proteinlar, DNK va RNK tarkibi, o'zgarmas molekulalar va boshqa kimyoviy tarkiblarni tahlil qilishda foydalaniladi. Yadro kimyoviy usullarning noyobligi kasallikning dastlabki bosqichlarida, ya’ni inson kasallik alomatlarini sezmaydigan davrda, organlarning hayotiy funksiyalarining anomaliyalarini aniqlashga imkon beradi. Bu turli kasalliklarni tezda aniqlash va davolash imkonini beradi. Masalan, Tc-99 radioaktiv elementi saraton va yurak qon tomir kasalliklari, bosh miya, buyrak, jigar va boshqa kasalliklarni tashxislashda ishlatiladi. Sm-153 radioaktiv elementi suyak metostazasidagi og’riqni qoldirish va davolash uchun ishlatiladi. I-131 radioaktiv elementi qalqonsimon bez kasalliklari tashxisi va davolashni hamda qalqonsimon bez saratonini ham davolashda ishlatiladi.

Tadqiqot natijalari: Yadro kimyosi tibbiyotda ishlatilishi sog'liqni saqlash, kasalliklarni tanishlash va davolashda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar kasallikni aniqlash va davolash jarayonlarini yanada samarali va effektiv qilishga yordam beradi. Yadro kimyosi tibbiyot sohasida quyidagi vazifalarni bajaradi.
Nuklear meditsina: Yadro kimyosi nuklear meditsinada ahamiyatli rol o'ynaydi. Radioizotoplar va nuklear tibbiyot texnologiyalari yordamida, xarakteristik organ va tuzilishlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar va kasalliklar aniqlanadi. Bu esa davolashni aniqlash, kasallikni anishlash va davolash protsessini nazorat qilishga imkon beradi. Diagnostika: Yadro kimyosi diagnostika jarayonlarida ham foydalaniladi.

Xulosa: Yadro kimyosi tibbiyot sohasidagi vazifalari sog'liqni saqlash, kasalliklarni tanishlash va davolashda ahamiyatli rol o'ynaydi va tibbiyot sohasidagi texnologiyalarni rivojlantirishda muhim bo'ladi. Yadro kimyosi tibbiyotda, diagnostikada, terapiyada va radioterapiyada keng qo'llaniladi. Bu texnologiyalar kasalliklarni aniqlash, tuzilishlarda o'zgarishlarni nazorat qilish, kasallikli oldini olish va kasallikni davolashda muhim ahamiyatga ega.

ANZUR PIYOZIDAN AJRATILGAN EFIR MOYINING TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHI

Usmonova H.I.
Zarmed universiteti, Samarqand filiali,
Fiziologiya, patologiya, gigiena, farmakologiya va kimyo kafedrasi assistenti

Annotatsiya. O‘zbekistonda keng tarqalgan dorivor o‘simliklardan biri — anzur piyozi (Allium altissimum Regel) organizm uchun foydali biologik faol moddalar manbai hisoblanadi. Uning tarkibidagi efir moylarini o‘rganish, xususan GXMS (gazo-xromato-mass-spektrometriya) usuli orqali tahlil qilish, zamonaviy fitokimyo va farmatsiya sohalarida muhim ahamiyatga ega.

Maqolada yovvoyi piyoz turlaridan biri bo‘lgan Anzur piyozi (*Allium giganteum*) tarkibidan ajratib olingan efir moyining biologik faolligi va tibbiyotdagi qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Fitokomponentlar, xususan, efir moylari antibakterial, antifungal, antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo‘lib, ular an’anaviy hamda zamonaviy tibbiyotda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Anzur piyozi, efir moyi, antibakterial faollik, fitoterapiya, Allium turi.

Kirish

Anzur piyozi xalq tabobatida qadimdan foydalanib kelingan o‘simlik bo‘lib, uning tarkibida S, D, E vitaminlari, karotinoidlar, fitonsidlar, steroidlar, alkaloidlar va turli mineral moddalar mavjud. Ushbu komponentlar modda almashinuvini faollashtiradi, immunitetni oshiradi, organizmni qarish jarayonlariga qarshi kurashishda yordam beradi, shuningdek, miya faoliyatini va xotirani yaxshilaydi. Tabiiy manbali dori vositalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan hozirgi davrda, dorivor o‘simliklar tarkibidagi efir moylar tibbiy tadqiqotlarning markazida turibdi. *Allium* oilasiga mansub Anzur piyozi (yovvoyi piyoz) O‘zbekistonda tog‘li hududlarda keng tarqalgan bo‘lib, xalq tabobatida qadimdan foydalanilgan. Uning tarkibida biologik faol moddalar, ayniqsa efir moylari mavjud bo‘lib, ularning farmakologik xossalari keng qamrovli tadqiqotlarga asos bo‘lmoqda.

Tadqiqotning maqsadi . Ushbu ishning asosiy maqsadi – anzur piyozidan ajratilgan efir moyining kimyoviy tarkibini zamonaviy GXMS usuli orqali aniqlash va ularning biologik faolligini baholashdir.

Asosiy qism

Anzur piyozining efir moyi bug‘ yordamida ekstraktsiya qilinadi. Uning asosiy komponentlari organik oltingugurt birikmalari – allitsin, diallil disulfid, trisulfidlar, monoterpenlar – limonen, pinen, geraniol, antioksidantlar – flavonoidlar, fenolik kislotalar kabilardan iborat. Bu moddalarning aksariyati mikroblarga qarshi faol va yallig‘lanishni kamaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Antibakterial va antifungal faollik. Laboratoriya tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Anzur efir moyi *Staphylococcus aureus, E. coli, Candida albicans* kabi mikroorganizmlarga nisbatan yuqori darajadagi tormozlovchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu uni tabiiy antiseptik sifatida ishlatish imkonini beradi.


Yallig‘lanishga qarshi xossalari. Efir moylar hujayralarda yallig‘lanish mediatorlarini bostiradi. Shuning uchun Anzur moyi revmatizm, artrit, teri yallig‘lanishlari kabi holatlarda tashqi surtma yoki inhalatsiya shaklida qo‘llanilishi mumkin.

Fitoterapiyada qo‘llanishi.Anzur efir moyi xalq tabobatida yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarini davolashda (inhalatsiya), teri kasalliklarida (ekzema, dermatit – surtma tarzida), qon bosimini tushirish va yurak-qon tomir tizimini mustahkamlashda (massaj moylari tarkibida) kabi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot uchun namunalar Samarqand viloyatining Taxtaqoracha dovonidan yig‘ib olindi. Piyozlar tozalanib, maydalangach, ularning tarkibidagi moddalar suv, atsetonitril, butanol va geksan erituvchilar yordamida ekstraksiya qilindi. Ekstraktlarning GX-MS tahlili qo‘yidagi shroitlarda olib borildi: Young in Chromass kompaniyasining GCMS-6500/6900MS markali gazo-xromato-mass-spektrometri, kolonka-HP 5MS, o‘lchami 30 m×0,25 mm×0,25 mkm, injector temperaturasi -280°S, termostatning temperatura dasturi - 60°C (1 min) " 25°C/min " 160°C " 4°C/min " 240°C " 10°C/min " 290°C (11 min), namunani kiritish rejimi - oqimni bo‘lmasdan, namunani kiritish bosimi 250 kPa (1,5 min), gaz tashuvchi sarfi - 40,0 sm^3/s, yuboriladigan namuna hajmi - 2 mkl, mass-selektiv detector interfeysining temperaturasi 280°C, ion manbai temperaturasi - 250°C, erituvchini elyuerlash vaqti - 3 min., qayd etish rejimi - SCAN/SIM, massani skanerlash oralig‘i - 50–500 a.m.b., skanerlash tezligi - 5000 a.m.b./s.

GXMS tahlili natijasida anzur piyozi efir moyi tarkibida quyidagi oltingugurtli birikmalar ko‘p miqdorda aniqlandi.

Olingan moddalar o‘simlikning antimikrob, antivirus va antioksidant xossalarini shakllantiruvchi asosiy komponentlardir. PASS dasturi orqali o‘tkazilgan biofaollik prognozi ham mazkur moddalarning yuqori biologik faolligini tasdiqlaydi (1-rasm).



All Pa>Pi Pa>0,3 Pa>0,7

0,774	0,032	Testosterone 17beta-dehydrogenase (NADP+) inhibitor
0,721	0,057	Aspulvinone dimethylallyltransferase inhibitor
0,707	0,048	CYP2J substrate
0,710	0,065	Ubiquinol-cytochrome-c reductase inhibitor

1-rasm. PASS online dasturi orqali olingan biofaollik ma’lumotlari

Xulosa

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, anzur piyozi efir moyi oltingugurtli birikmalarga boy bo‘lib, bu uni samarali tabiiy dori vositasi sifatida ishlatish imkonini beradi. Ushbu natijalar farmatsevtika, biologiya va tibbiyot sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xamidova F.X., et al**.** Dorivor o‘simliklar kimyosi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. – 235 b.
2. **Kharchevnikov V.V.** Metody khimicheskogo analiza lekarstvennykh rasteniy. **–** Moskva: Meditsina, 2019. – 312 b.
3. Zlatkis A., Stahl E. Gazo-xromatografiya i efirnыe masla. – Moskva: Khimiya, 1981.
4. PASS Online [Elektron resurs]. – http://www.way2drug.com/PASSOnline/
5. Kurbanov Sh., Yo‘ldoshev A. “Allium turkumi o‘simliklari efir moylarining farmakologik tahlili” *// Tibbiyot va Bioximik Jurnal, 2018, №2, 45–49-bet.*
6. Lanzotti V. “The analysis of onion and garlic*” // Journal of Chromatography A*, 2006, Vol. 1112(1-2), pp. 3–22.
7. Block E. “Garlic and Other Alliums: The Lore and the Science.” – Royal Society of Chemistry, 2010.

YONG‘OQ QOBIG‘IDAGI YODNI QO‘SHIMCHA QO‘SHISH USULI YORDAMIDA FOTOMETRIK TAHLILI

G.R.Xodjayorova
Zarmed universiteti Samarqand, Xo‘ja Axror Vali 23
xodjayorova83@gmail.com

Annotatsiya. Yod moddasining tabiatda (o‘simlik, hayvon va er tarkibida) uchrash xolatlari. Suvdagi eritmalarda yodidlarni yodga qadar oksidlab qutubsiz organik erituvchi bilan ekstraksiya qilinish usuli, yodning mikro izlarini aniqlash, ushbu moddani aniqlashda erituvchilarni tanlash hamda yorug‘lik yutishning molyar koeffitsientini o‘rtacha qiymati bo‘yicha konsentratsiyasini o‘lchash usuli orqali namuna tarkibidagi yodni aniqlashga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yod, ekstraksiya, yorug‘lik yutishning molyar koeffitsenti, standart eritma, ishchi eritma, optik zichlik.


So‘nggi yillarda yong‘oqni qayta ishlash sanoatining rivojlanishi bilan yong‘oq qobig‘ining qoldiqlarini katta miqdorda yig‘ish va ishlatish mumkin. Yong‘oq qobig‘ining farmakologik faolligi va funksional ko‘rsatkichlari bo‘yicha tadqiqotlar hali ham mamlakatimizda va xorijda juda kam, bu esa ushbu boy tabiiy resursni samarali rivojlantirish va undan foydalanishga ta’sir qiladi va uzoq vaqt davomida ushbu dori resursining katta isrof qilinishiga olib keldi.

Yong‘oq qobig‘ining spirtli ekstraktidan tayyorlangan yurak preparatini miyokard ishemiyasini yaxshilash uchun qo'llash qondagi yog' miqdorini kamaytirishda, qon bosimini tartibga solishda, arterioskleroz, yurak-qon tomir kasalliklarni oldini olishda, davolashda samarali natijalarga erishilgan.

Ekstrakt tarkibidagi yodni aniqlashning usullaridan biri qo‘shimcha qo‘shish usuli bo‘lib, odatda ishni osonlashtirish uchun xalaqit beruvchi begona aralashmalarning ta’sirini bartaraf qilishda, ba’zida esa fotometrik usullarning to‘g‘riligini baholash uchun ishlatiladi. Bu usul tadqiq qilinayotgan va standart (qo‘shimcha qo‘shilgan) rangli eritmalarni fotometrik o‘lchash uchun bir xil sharoit yaratadi. Shuning uchun uni begona moddalarning miqdori ko‘p bo‘lgan eritmalarda turli moddalarning kam miqdorini aniqlash uchun ishlatish maqsadga muvofiqdir. Noma’lum konsentratsiya hisoblash yoki grafik orqali topiladi.

Qo‘shimchalarni shunday miqdorda qo‘shish kerakki A_{x+a} - A_x farqini hisoblashda aniqlikning pasayishi sodir bo‘lmasin. Bu farqning minimal qiymati 0,1 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Noma’lum konsentratsiyani grafik usulda aniqlashda ordinata o‘qiga tadqiq qilinayotgan eritmalar optik zichliklarining qiymatlari (A_x, A_{x+a1}, A_{x+a2}) abtsissa o‘qiga esa eritmadagi qo‘shimchaning konsentratsiyalarining qiymatlari qo‘yiladi (1–rasm).




1-rasm. Eritmaning konsentratsiyasini qo‘shimcha qo‘shish usuli bilan grafik yordamida aniqlash

Aniqlanayotgan moddaning eritmadagi qiymati suyultirishni hisobga olgan holda quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$q_x = C_x V_x V_{umum}/V_1$$

Biz quyidagicha ekspriment jarayonini o’tkazdik. Yong‘oq qobig‘ining etil spirtdagi eritmasi tayyorlandi. Undan 5 ml ajratib olib tegishli reaktivlarni tegishli tartibda qo‘shib eritma tayyorlandi va eritmaning spirtga nisbatan elektron yutilish spektrini olindi (2-rasm). Bunda standart eritmalarni o‘lchagan sharoitlar qanday bo‘lsa shunday bo‘lishi kerak ya’ni rang berish uchun quyiladigan eritmalar, kyuvetaning qalinligi, spektrni o‘lchash oralig‘i, taqqoslash eritmasining bir xil bo‘lishi va harorat kiradi. Hamma spektrlar oynalari kvarsdan va qalinligi 1 sm bo‘lgan kyuvetalarda o‘lchandi.



2-rasm. Namunaning elektron yutilish spektri

Namuna optik zichligining (A = 0,094) bu qiymatini darajalash grafigiga qo‘yib grafikdan unga mos kelgan konsentratsiyaning qiymati topildi. Namunaning konsentratsiyasi 4.3 mkg/ml ga teng. Konsentratsiyaning bu qiymatini namunadan ajratib olingan eritmaning hajmiga ko‘paytirib yodning eritmadagi miqdorini topamiz.

4,3 mkg/ml * 38 ml = 163,4 mkg

Ushbu namunada 20 g maydalangan yong‘oq pardasi eritilgan edi. Demak massasi 20 g bo‘lgan yong‘oq pardasida 163,4 mkg yod bor. Agar bu miqdorni 1 kg uchun hisoblasak u 8170 mkg bo‘ladi.

O‘lchash xatoliklari 5-7 foizdan oshmaydi. Agar bu xatolikni hisobga olsak natija 8170 ±572 mkg ga teng bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha yong‘oq mag‘zida anchagina yod bor asosiy masala uni to‘lasincha eritmaga o‘tkazish va inson organizmi yaxshi qabul qiladigan shaklga aylantirishdan iborat. Shunda u oz bo‘lsa ham yod tanqisligini kamaytiruvchi vositalardan biriga aylanishi mumkin. Yod etishmaydigan lekin yong‘oq ko‘p bo‘lgan bizning mamlakatimiz uchun bu foydali masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллоев О. Ш. и др. YOD TANQISLIGINING HOMILAGA TA'SIRI VA UNI OLDINI OLISHNING XALQ TABOBATI USULLARI //Журнал химии товаров и народной медицины. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 287-302.
2. Alasalvar C. et al. Upcycling commercial nut byproducts for food, nutraceutical, and pharmaceutical applications: A comprehensive review //Food Chemistry. – 2024. – С. 142222.
3. Juglans regia //International Journal of Pharmacognosy and Chemistry. – 2020. – Т. 7.

РАЗРАБОТКА ИОНОСЕЛЕКТИВНЫХ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ЭКСПРЕСС-ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВЕЩЕСТВ НА ОСНОВЕ ГЕТЕРОПОЛИМЕТАЛЛОФОСФОРАТНЫХ ИОНОФОРОВ И ИЗУЧЕНИЕ ИХ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ

Абдурахмонова Замира Эргашбоевна
ассистент кафедры фармакология
Самаркандского государственного медицинского университета
Кодирова Барно Эсановна
ассистент кафедры до клинических предметов
Самаркандский университет Зармед

Аннотация. Для создания высокочувствительных электродов, которые определяет ряд препаратов во время работы ИСЭ были приготовлены на основе мембран, содержащих гетерополиметаллофосфатные ионофоры. Для изготовления гетерополиметаллофосфатных электродов было отобрано 12 препаратов, широко используемых в медицинской практике. Концентрация компонента, определенная в ходе исследованияв диапазоне от 10^{-1} до 10^{-7} моль/л диапазон обнаружения и чувствительность разработанных электродов изучал. По результатам исследования ИСЭ, разработанные на основе ионофоров, содержащих лекарственную додекомолибдофосфатную кислоту включая дибазол и пиридокси нДоказано, что ИСЭ, разработанные на основе лекарственных ионофоров додекавольфрамофосфата, обладают высокой чувствительностью к препаратам дипразина и бромгексина.

Ключевые слова. Ионоселективный электрод, ионофор, додекомолибдофосфатная кислота, додековольфрамофосфатная кислота, дибазол, пиридоксин, дипразин, бромгексин, чувствительность, диапазон обнаружения.

Одним из перспективных направлений развития ионометрии является исследование ИСЭ на основе ПВХ-мембран, содержащих в качестве ионофоров гетерополиметаллофосфатные соединения [1,2]. Мембраны на основе таких ионофоров позволяют получать электроды для количественного определения различных ионов в широком диапазоне концентраций [5,6]. Такая мембрана состоит из пластифицированной полимерной (матричной) пленки, в которую введен ионофор (вещество, способное избирательно пропускать определенные типы ионов через мембрану). В большинстве случаев в качестве полимерной матрицы используется поливинилхлорид (ПВХ). Соответствующие лекарственные препараты и ионофоры, состоящие из гетерополиметаллофосфатов, добавленные в полимерную матрицу, служат для повышения чувствительности мембраны к лекарственным препаратам (в результате увеличения ее электропроводности) [5].

Пленочные мембраны ИСЭ готовили путем растворения ПВХ, пластификатора - диоктилфталата и электродноактивного соединения (ЭАСВ) в тетрагидрофуране при непрерывном перемешивании. В ходе экспериментов были изготовлены ионселективные мембраны на основе гетерополиметаллофосфатных ионофоров, соотношения компонентов которых были получены в указанных выше массовых долях, для обнаружения различных лекарственных препаратов. Подготовленные мембраны крепятся к корпусу электрода и хранятся в дистиллированной воде.

Разработанные мембранные электроды состоят из цилиндрического тефлонового корпуса, к кончику которого с помощью специального клея прикреплена пластифицированная мембрана. В корпус электрода добавляют ~1,5 -2,0 мл раствора внутреннего сравнения, содержащего потенциалопределяющий ион ($1\cdot10^{-5}$ - $1\cdot10^{-4}$ М) и 1-2 капли 3М KCl. В качестве внутреннего электрода сравнения использовалась платиновая проволока.

Одним из основных электрохимических показателей любого ИСЭ является его чувствительность к определяемому соединению. Чувствительность разработанных электродов к обнаруживаемому компоненту определяется путем измерения СОЭ исследуемой электродной системы. Перед измерением потенциала необходимо подготовить электроды к работе в установленном порядке. При проведении поверки и калибровки должны соблюдаться следующие условия: температура окружающей среды 25±10 ^{0}C; относительная влажность воздуха не должна превышать 80%; Значения электрических и магнитных полей, влияющих на точность измерений, должны соответствовать ГОСТ 8.213-76.

Перед использованием необходимо провести визуальный осмотр ионоселективного электрода. Проводится визуальный внешний осмотр с целью определения отсутствия повреждений мембраны, наличия разрывов и трещин в корпусе электрода, наличия изменений в системе соединений, а также наличия на электроде соответствующей маркировки. При первичном осмотре потенциал электрода должен соответствовать значениям, указанным в соответствующем документе.

Наклон и отклонение от линейности концентрационной зависимости сигнала ионселективного электрода рассчитываются по формулам (1) и (2). Эти значения находятся путем измерения потенциала в растворах A, B и C.

Раствор A — это раствор с концентрацией, соответствующей верхнему пределу измерений электрода (наивысшая концентрация).

Раствор B — это раствор, значение pX которого на 0,7–1 единицу меньше значения pX раствора A.

Раствор C — раствор, значение pX которого на 0,7–1 единицу выше значения pX раствора, соответствующего нижнему пределу измерений электрода.

S — наклон ионной характеристики электрода в единицах мВ/pH. Он определяется путем измерения потенциалов в растворах B и C и рассчитывается по следующему уравнению:

$$S=(E2-E1)/(pX2-pX1) \quad (1)$$

E1 и pX 1 –S потенциал раствора (мВ) и rN. E2 и pX2 B- потенциал раствора (мВ) и значение pX.

$$D = (pH_3-pH_1) – (E_3-E_2)/S \quad (2)$$

Δ — отклонение ионной характеристики электрода от линейности (отклонение сигнала электрода от линейной формы), определяемое путем измерения и расчета потенциалов в растворах A и B.

pH_3 и E_3 - наблюдаемые результаты для раствора B, в единицах мВ и pH; pH_2 и E_2 — наблюдаемые результаты в единицах мВ и pH в растворе A; Характеристическая кривая S-электрода, рассчитанная по уравнению (1). Отклонение значения ионной характеристики электрода от линейности не должно превышать ± 0,2 единицы pH.

В ходе данной работы с целью создания высокочувствительных электродов, обнаруживающих ряд наркотических веществ, ИСЭ были приготовлены на основе мембран, содержащих гетерополиметаллофосфатные ионофоры. Для изготовления гетерополиметаллофосфатных электродов было отобрано 12 препаратов, широко используемых в медицинской практике. Концентрация компонента, определенная в ходе исследования в диапазоне от 10-1 до 10^{-7} моль/лдиапазон обнаружения и чувствительность разработанных электродовизучал. В таблице 1 показано значение сигнала, полученное с помощью ИСЭ с различными ионофорами в широком диапазоне концентраций лекарственных средств.

Заключение. Разработанный электрод на основе додекомолибдофосфата может быть использован для определения лекарственных препаратов дибазола и пиридоксина в широком диапазоне концентраций. Также электрод, разработанных на основе додекавольфрамофосфата, наблюдался широкий концентрационный диапазон обнаружения и высокое значение сигнала, соответствующее одинаковой концентрации дипразин и бромгексин.

TIBBIYOTDA KVANT NUQTALARNING QO‘LLANILISH ISTIQBOLLARI

Zufarov A.M.
Zarmed universiteti, Samarqand filiali,
Fiziologiya, patologiya, gigiena, farmakologiya va kimyo kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyotda kvant nuqtalar (KN) — yarim o‘tkazgichli nanokristallarning diagnostika, terapiya va biofotonika yo‘nalishlaridagi qo‘llanilishi yoritiladi. KNlar o‘zining fotofizik xossalari, yuqori yorqinligi va spektral sozlanuvchanligi bilan biotibbiyotda keng qo‘llanilmoqda. Ularning maqsadli dorilarni yetkazish, saratonni davolash va ilg‘or tasvirlash texnologiyalaridagi istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kvant nuqtalar, nanodori, fotodinamik terapiya, diagnostika, biosensorika.

Nanotexnologiyaning tibbiyotdagi jadal rivoji inson salomatligini saqlash va kasalliklarni aniqlashda yangi texnologik yechimlarni taqdim etmoqda. Shulardan biri - kvant nuqtalar (quantum dots, QDs) deb ataluvchi yarim o‘tkazgichli nanokristallardir. Ularning o‘lchamlari odatda 2–10 nanometrni tashkil qiladi va kvant cheklanish effektiga ega bo‘lishi natijasida o‘ziga xos optik va elektr xossalarga ega. Tibbiy diagnostika va terapiyada KNlardan foydalanish ularning yuqori yorqinlik, fotostabiliklik, spektral sozlanuvchanlik kabi afzalliklari bilan izohlanadi. KN lar yordamida in vivo tasvirlash tirik organizmlardagi biologik jarayonlarning real vaqt rejimida vizualizatsiyasini ta’minlaydi. Ularning mukammal optik xossalari va maqsadli yetkazib berish uchun sirt funksionalligi KN larini molekulyar hodisalarni, kasallikning rivojlanishini va klinikadan oldingi modellarda davolanishga javobni o‘rganish uchun qimmatli vositalarga aylantiradi. KNning fizik-kimyoviy xossalari ularni bir elektronli tranzistorlar, quyosh batareyalari, LEDlar, displeylar, lazerlar, fotodetektorlar, fotokatalizatorlar, fotovoltaik qurilmalar, kvant hisoblash, sud tibbiyoti, mikroskopiya va tibbiyot kabi turli sohalarda qo‘llash imkonini berdi.

Kvant nuqtalari (KN) o‘zining noyob optik xossalari, ko‘p funksiyaliligi va turli tasvirlash usullari bilan mosligi tufayli tibbiy tasvirlash uchun ulkan imkoniyatlarni ko‘rsatdi. Ushbu nano o‘lchamli yarimo‘tkazgichlar o‘lchamga bog‘liq sozlanishi floresan emissiyasi, yuqori kvant rentabelligi va mukammal fotostabilitesini namoyish etadi, bu ularni turli xil biomedikal ilovalar uchun juda mos keladi. Ularning toksikligi, tozalanishi va barqarorligi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga qaramay, ushbu sohada davom etayotgan tadqiqotlar ushbu muammolarni hal qilmoqda. Bu KNga asoslangan xavfsiz va samarali tasvirlash vositalarini ishlab chiqish uchun yo‘l ochmoqda.


Diagnostika va biofotonika. KNlar ultrabinafsha yoki infraqizil nurlanish orqali nurlantirilganda turli xil ranglarda nurlanadi. Ularning bu xususiyati hujayralar ichidagi jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish va erta bosqichdagi kasalliklarni aniqlashda katta imkoniyat beradi. Masalan, CdSe, ZnS asosidagi KNlar saraton hujayralarini tasvirlashda ishlatilmoqda.

Nanodori yetkazib berish. KNlar ustiga dori moddalari biriktirilgan holda zararlangan hujayralarga yo‘naltirilishi mumkin. Bu usul bilan saraton hujayralariga maqsadli zarba beriladi, sog‘lom to‘qimalar esa zarar ko‘rmaydi. Hozirda KN asosidagi nanodori tizimlari laboratoriya va hayvon modellarida sinovdan o‘tmoqda.

Fotodinamik terapiya (FDT). KNlar yorug‘lik ta’sirida reaktiv kislorod turlarini hosil qilib, saraton hujayralarini nobud qilishi mumkin. Bunday terapiya an’anaviy kimyoterapiyaga qaraganda ancha kam toksiklikka ega. InP, $CuInS_2$ kabi KNlar toksik bo‘lmagan alternativlar sifatida ishlab chiqilmoqda.

Biosensorlar va immunotahlil. KNlar biomarkerlarga birikib, ularni yuqori sezuvchanlik bilan aniqlashga yordam beradi. Masalan, virusli kasalliklar, diabet, yoki genetik muammolarni erta aniqlashda KN-biosensorlar istiqbolli vositadir.

Ular biotasvir va floresan yorlig‘iga (in vitro va in vivo) katta qiziqish uyg‘otdi. Bundan tashqari, ularning o‘lchami va tarkibini sozlash orqali ularning emissiya to‘lqin uzunligi ko‘rinadigan to‘lqin uzunliklaridan infraqizil to‘lqin uzunliklariga sozlanishi mumkin , bu tasvirni boshqaradigan jarrohlik uchun sentinel limfa tugunlari xaritasi kabi in vivo tasvirlash uchun foydali bo‘lishi mumkin. CdS kvant nuqtalari o‘zining yuqori kvant rentabelligi va turli spektral diapazonda nurlanish xossasiga ega ekanligi sababli hujayra va to‘qimalarni tasvirlash uchun samarali marker sifatida ishlatiladi. Hujayralar ichiga kirib, CdS kvant nuqtalari ultrabinafsha (UV) yoki ko‘'rinuvchi yorug‘lik nurlanishi ostida turli ranglarda nurlanadi. Kalamushlar jigariga og‘ir metallarning ta’sirini o‘rganish maqsadida CdS kvant nuqtalari bilan oziqlantirilgan kalamushning tanasidagi kvant nuqtaning ultarbinafsha nuridagi tasviri olib o‘rganildi (Samarqand davlat universiteti Biokimyo institutining vivariy laboratoriyasida tajriba o‘tkazilgan). Nazoratdagi kalamushning ozuqasiga CdS kvant nuqta qo‘shishdan maqsad dorilarni belgilangan joyga tashishni kuzatish edi. Ularning qon plazmasidan olingan namunaning yutilish spektlari yordamida CdS kvant nuqtaning qon tarkibida borligi aniqlandi(1 a.b.c.-rasmlar).



a) b) c)

1-rasm. Kalamushning qon plazmasidan olingan namunaning yutilish spektlari

(a) sog‘lom, (c) nazoratdagi kalamushlarning qon plazmasidan olingan namunaning yutilish spektlari, b) sog‘lom va nazoratdagi kalamushlarining ultrabinafsha nurdagi tasviri

Xulosa. Kvant nuqtalar tibbiyotda tashxislash, terapiya va kasalliklarni monitoring qilishda yangi davrni boshlab bermoqda. Ularning yuqori aniqligi, fotostabil xatti-harakati va kimyoviy moslashuvchanligi zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarining asosini tashkil etmoqda. Kelgusida toksik bo‘lmagan KNlar ishlab chiqilishi va klinik qo‘llanilishi ushbu sohaning rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zufarov A.M., Sagdeev D.O., Galyametdinov Yu.G., Muxamadiyev N.K. Gidrofilik stabilizatorlar bilan modifikatsiyalangan CdS kvant nuqtalarining fototakatalitik xossalari va kvant kimyoviy hisoblash natijalari. SamDU ilmiy axborotnomasi. 2024, 5(147), 163-170.
2. Zufarov, A., Sagdeev, D., Mukhamadiev, N., Galyametdinov, Y. Synthesis of CdS stabilized with different anion stabilizers and its photocatalytic properties. AIP Conference Proceedings. /AIP Publishing, 2024 (3244), 50012- 50023.
3. Thangadurai, P., Balaji, S., Manoharan, P. T. (2008). Surface modification of CdS quantum dots using thiols—structural and photophysical studies. Nanotechnology, 19(43), 435708.

OG’IR METALL TUZLARINING KALAMUSHLAR ORGANIZMIGA TA’SIRI


Ma’rufjonova N[1]., Tojikulova O.J[2]., Qodirova N.E[3].
[1]Samarqand Davlat Universiteti 4-kurs talabasi,
[2]Samarqand davlat Universiteti PhD, dotsenti.
[3]ZARMED universiteti o’qituvchisi.
+998990928126
otojikulova_81@mail.ru

Maqolada Cd^{2+} tuzi bilan zaharlangan kalamush qon korsatkichlari o’rganilgan. Cd^{2+} tuzlari ta’sirida 14 kun davomida intoksikasiya qilingan kalamush tana vazni, qon ko’rsatkichlaridagi o’zgarishlarni o’rgandik. *In vivo* tajribalarida aniqlanishicha, organizmning og’ir metall tuzlari bilan zaharlanishi kalamush tana vazni, qon ko’rsatkichlari o’zgarishlariga olib kelishi aniqlandi.

Kalit so’zlar: *In vivo*, og’ir metallar, intoksikasiya, tana vazni, qon ko’rsatkichlari.

Oziq–ovqat mahsulotlari tarkibining, shuningdek ichimlik suvining mineral o’g’itlar, zaharli moddalar, og’ir metallar bilan ifloslanishi, bundan tashqari ksenobiotiklarning odam va hayvonlar organizmiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mutaxassislarni tashvishga solmoqda. Alohida qayd qilib o’tish kerakki, tuproq va suv tarkibida, jumladan ichimlik suvlari tarkibida ko’pincha holatlarda mineral tuzlar miqdorining me’yorida ortiq darajada bo’lishi, shuningdek organik birikmalar mavjudligi qayd qilinadi. Og’ir metallar atrof-muhitning ekologik jihatdan ifloslanishida xavfli manbalardan biri hisoblanib, organizmga tushishi natijasida kuchli genotoksik, o’sma kasalliklarni keltirib chiqaruvchi va sitotoksik ko’rinishdagi salbiy ta’sirlarni namoyon qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, kadmiyni ko’p miqdorda iste’mol qilish ishtahani pasayishiga, kamqonlikka, yomon o’sishga, homilaning nobud bo’lishiga olib kelishi mumkin. Kadmiyni haddan tashqari ko’p iste’mol qilish hayvonlarda sink va mis metabolizmini o’zgartiradi.

Tajribalar uchun tana og’irligi 250 g bo’lgan kalamushlar tanlanib, kattaligi 50x30x28 sm bo’lgan plastmassa kataklarda, havo almashib turadigan yorug’ xonada saqlandi. Xonaning harorati 20-260 C^0 ni, nisbiy namligi esa 40-60 % ni tashkil etdi. O’g’ir metall tuzlari ta’sirida kalamushlar organizmi o’zgarishini o’rganish uchun tajribalar 90 kunlik kalamushlarda olib borildi. CdS tuzi tajriba hayvonlariga og’iz orqali ovqat bilan 14 kun mobaynida kuniga 1 martadan 250 mkg/kg tana vazniga ko’ra berildi. Og’ir metal tuzi hayvonlarga 14 kun berilgandan so’ng tajriba o’tkazildi. Tajriba Samarqand davlat universiteti qoshidagi biovivariy laboratoriyasida olib borildi.Tajriba o’tkazilishidan oldin kalamushlar tana vazni tarozida o’lchandi hamda og’ir metal berish jarayonida ham ularning og’irligi tarozida tortilib borildi. Tajriba uchun kalamushlar qoni maxsus probirkalarga olinib, universitet vivariy laboratoriyasida ECL 760 Filly avtomat Hayemostasis analyser analizatorida tahlildan o’tkazildi.



1- Rasm. CdS tuzi ta’sirida kalamushlar tana massasining o’zgarishi (gramm o’lchov birligida).

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, og’ir metall tuzi (CdS) kalamushlarning tana vazniga ham ta’sir ko’rsatib, ularning tana vaznini nazorat guruhiga nisbatan kamaytirganligi kuzatildi (1- rasm). Og’ir metal tuzlari bilan zaharlangan kalamushlar qoni tarkibidagi gemoglobin miqdori sog’lom kalamushlarga nisbatan kamayganligi aniqlandi. Xulosa qilib aytish mumkinki, og’ir metallar kalamushlar tana vazniga, ularning qon ko’rsatkichlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi o’rganildi.

СИНТЕЗ И БИОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ 1-ФЕРРОЦЕНИЛБУТАНДИОНА-1.3

Сулаймонова Зилола Абдурахмановна
PhD, доцент кафедры доклинических наук университета “Зармед”
e-mail: sulaymonovaza@mail.ru (95-222-19-00)
Атоева Мохигул Отабек кизи
Студент III курса лечебного факультета Бухарского государственного медицинского института
e-mail: atoyevamoxigul@gmail.com (93-137-19-00)

Одним из направлений, вызывающих особый интерес, является модификация ферроцена биологически активными функциональными группами. В частности, производные 1,3-дикетонов известны своей высокой реакционной способностью и способностью образовывать комплексы с металлами, а также проявляют разнообразную биологическую активность – противомикробную, противоопухолевую и антиоксидантную. Комбинирование ферроценового фрагмента с 1,3-дикетонной системой может привести к созданию новых соединений с усиленными или новыми свойствами [1,2].

Настоящая работа посвящена синтезу и исследованию 1-ферроценилбутандиона-1,3 – соединения, сочетающего в себе свойства как ферроцена, так и α-дикетонов. Основное внимание уделено методике получения данного соединения, его структурной идентификации с помощью спектроскопических методов, а также оценке его биологической активности, в первую очередь – антимикробной и цитотоксической.

Нами путем сложноэфирной конденсации Кляйзена был получен из моноацетилферроцена ферроценоилацетон (1-Ферроценилбутандион-1,3) [3].

Структура соединения была подтверждена данными ИК-спектроскопии. На ИК-спектре соединения наблюдаются характерные полосы валентных колебаний карбонильных групп (C=O) в области 1710–1730 $см^{-1}$, что свидетельствует о наличии в молекуле дикетонной системы. Наличие двух близкорасположенных полос в этой области указывает на асимметрию среды карбонильных групп и возможное участие в внутримолекулярном сопряжении. Также фиксируются полосы в области 480-500 $см^{-1}$, которые характерны для колебаний связи Fe-Cp, что подтверждает присутствие ферроценильного фрагмента в структуре молекулы. Совокупность спектральных данных указывает на успешное внедрение ферроцена в дикетонный каркас и соответствие целевому строению.

Биологическая активность соединения оценивалась в двух направлениях: антимикробное действие. В тестах на чувствительность к бактериям (Escherichia coli, Staphylococcus aureus и др.) было установлено, что 1-ферроценилбутандион-1,3 проявляет умеренную до выраженной антимикробной активности, сравнимой с активностью некоторых известных антибиотиков. Особенно чувствительными к действию соединения оказались грамположительные бактерии.

Полученные данные позволяют заключить, что новое соединение представляет собой перспективное соединение как для дальнейших фундаментальных исследований, так и для потенциального использования в медицинской химии. Совмещение ферроценового ядра с биологически активным дикетонным фрагментом может стать эффективным подходом к созданию новых фармакологически активных веществ.

ЛИТЕРАТУРА

1. Heinze K., Lang H. Ferrocene beautyand function. // Organometallics 2013. №32. P.5623-5625.
2. Xin Z., Shino X., Zhongyang Ch., Jianfeng Y., Yaofeng Y. Progress in studying the electron transport properties of ferrocene-containing single molecule compounds. // Chinese Journal of Organic Chemistry. 2023. Vol. 7. №43. P.2313-2322.
3. Sulaymonova Z.A., Kodirova Z.Q., Xudoynazarova G.A. Synthesis and spectroscopic study of complex compounds of some 3D metals with the condensation product of 1-ferrocenylbutanedione-1,3 and succinic acid dihydrozide // Journal Materials Today: Proceedings, 2214-7853/ 2023 Elsevier Ltd. https://doi.org/10.1016/j.matpr.2023.05.574

CROCUS SATIVUS NING BIOKIMYOVIY VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.N.Zulfikorov.
Buxoro shahar "Zarmed" universiteti
b.f.n; dotsent

Abstract: In this article, the distribution areas of the saffron plant and the climate adaptation of the species in each distribution area, and the change in medicinal properties are highlighted. Also, information about the saffron plant, its systematic place, and alleged diseases were disclosed.

Key words: saffron flower, saffron oil, zotiljam, liquor, crocetin, kaempferol, shafranal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada za'faron o'simligining tarqalish maydonlari va har bir tarqalgan hududdagi turlarning iqlimga moslanishi, dorivorlik xususiyatlarining o'zgarishi yoritilgan. Shuningdek, za'faron o'simligi, uning sistematik o'rni, da'vo bo'lgan kasalliklari haqida ma'lumotlar ochiqlangan.

Kalit so'zlar: za'faron guli, za'faron yog'i, zotiljam, likyor,krosetin, kempferol,shafranal.

Qadimda insonlar dasturxoni bezagi, ziravorlar sultoni, bir urug'palli o'simliklar sinfi Gulsafsardoshlar Iridaceae oilasi vakili bo'lgan beqiyos hidga va ta'mga ega bo'lgan za'faron o'simligi O'rta yer dengizining noma'lum turidan kelib chiqqan deb tahmin qilinadi. Za'faron (Crocus sativus – lotin.) –sapsarguldoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyozli o'simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni 2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'ondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7 mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel—avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90-100 ming dona za'faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Za'faron gulining quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlar rangi va ta'mini yaxshilash, oziq-ovqat (pishloq, sariyog', likyor va boshqalarda rang berish uchun), parfyumeriya (atir-upa) sanoatida ishlatiladi. Tabobatda dori-darmon sifatida qo'llaniladi. Za'faron o'simligi tibbiyotda onkologik kasalliklarni davolashda (hatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi), qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi), miya faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi, xotirani yaxshilaydi), nevrozdan forig' qiladi, bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos etadi, oshqozon-ichak faoliyatini me'yorga keltiradi, organizmni quvvatlaydi, ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasidagi illatlarni davolaydi, butun organizmni yoshartiradi.

Za'faron – crocus sativus o'simligi uchta gomologik xromosomalar yig'indisini o'zida jamlaganligi (24 ta xromosoma) va har bir xromosoma to'plami o'ziga xos shaklga va hajmga ega ekanligi sababli uni urug'idan ko'paytirish imkoni mavjud emas. Za'faron piyozchalari orqali vegetativ usul orqali ko'paytiriladi.

